

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI**

**SANATSHUNOSLIK KAFEDRASI
IJODKORLIK TEXNOLOGIYASI
FANIDAN**

O‘QUV - USLUBIY MAJMUA

Shahrisabz – 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI

SANATSHUNOSLIK KAFEDRASI
IJODKORLIK TEXNOLOGIYASI
FANIDAN

O‘QUV - USLUBIIY MAJMUUA

Bilim sohasi:	100 000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Magistratura	7011130 – Ta’lim va tarbiya
mutaxassisligi:	nazariyasi va metodikasi (texnologik ta’lim)

Shahrisabz - 2025

O'UM ning Kelishilgan varaqasi

Fanning o'quv uslubiy majmuasi Shahrisabz davlat pedagogika instituti kengashining 2025-yil "30" avgustdagi 1-sonli bayoni bilan tasdiqlangan, (Ijodkorlik faoliyati texnologiyasi) fanidan namunaviy dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi:


J.X.Xayitov. Shahrisabz davlat pedagogika instituti "San'atshunoslik" kafedrası v/b dotsent, pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

Turdiyev E. Qar.DU "Texnologik ta'lim" kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.
Ismoilova M. Shahrisabz davlat pedagogika instituti, "San'atshunoslik" kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Fanning o'quv uslubiy majmua Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" fakulteti "Sanatshunoslik" kafedrasining 2025 yil "26" avgustdagi 1-sonli majlisida ko'rib chiqilgan va tasdiqlashga tavsiya qilingan.


Kafedra mudiri:



J.X.Xayitov

Fanning o'quv uslubiy majmua Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" fakultetining ilmiy kengashida tasdiqlangan (Bayonnoma № 1 2025 yil 27 avgust)

Fakultet dekani:



A.N.Achilov

MUNDARIJA

№	BO‘LIMLAR	Betlar
1	O‘MMning kelishilgan varag‘i	
2	O‘MM ning mundarijasi	
3	Ma‘ruza mashg‘ulotlar mazmuni	
1	Ijod tushunchasi va uning Ilmiy-metodik jarayondagi o‘rni.	
2	Ijodning nazariy muammolarini ko‘tarish ishiga sharq mutafakkirlari qo‘shgan hissalari.	
3	O‘zbekiston Respublikasida ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyatining me‘yoriy asoslari.	
4	Ijodkorlik faoliyati va ixtirochilikning innovatsion potentsiali.	
5	Ijodkorlik faoliyatining psixofiziologik xususiyatlari.	
6	Yoshlarni ixtirochilik ijodkorligiga tayyorlashning tashkiliy asoslari.	
7	Ixtirochilik ijodkorligi metodlari.	
8	Xalq xo‘jaligidagi muammo va texnik echimlarni tadqiq qilish uslublari.	
9	Fan asoslarini ijodiy talqin qilish.	
10	Ijodkorlik faoliyatini amalga oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.	
11	Patent hujjatlari va patent tasnifi.	
12	Innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlari.	
13	Ijodiy tafakkur va uning rivojlanish mexanizmlari.	
14	Ixtirochilik faoliyatida muammolarni hal qilish metodlari.	
15	Ilmiy-texnik ijodkorlikning iqtisodiy va huquqiy asoslari.	
4	Amaliy mashg‘ulotlar mavzulari.	
1	Innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish va baholash.	
2	Ijodiy tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha mashqlar.	
3	Yangi texnologiyalar asosida mahsulot yaratish.	
4	Ixtirochilikka oid tarixiy shaxslarning faoliyatini tahlil qilish.	
5	Ixtiro jarayonining huquqiy jihatlar.	
6	Ilmiy-texnik loyihalarni taqdimot qilish.	
7	Sun‘iy intellekt va ijodiy tafakkur.	
8	Fan-texnika rivojlanishidagi muammolarni aniqlash.	
9	O‘zbekistondagi startap loyihalarni tahlil qilish.	
10	Mahalliy sanoat korxonalarida innovatsion jarayonlarni o‘rganish.	
11	Axborot texnologiyalaridan foydalanib innovatsion mahsulot yaratish.	
12	Ixtirochilik ijodkorligi bo‘yicha seminar tashkil etish.	
13	Intellektual tizimlar va avtomatlashtirish.	
14	Eksperiment va tadqiqot usullarini o‘rganish.	
15	Yangi qurilma yoki texnologiyani modellashtirish.	

5.	Fan dasturi va sillabusga muvofiq baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar	
6.	Ilovalar	
7.	Fan dasturi	
8.	Sillabus	
9	Glossariy	
10	Nazorat uchun savollari	
11	Foydalanilgan adabiyotlar	

1-Mavzu: Ijod tushunchasi va uning Ilmiy- metodik jarayonidagi o‘rni.

Reja:

1. Ijod tushunchasi va uning ilmiy jarayonidagi o‘rni.
2. Ilmiy ijod – bu ilmiy bilishni rivojlantirish asosi.
3. Eksperiment ilmiy ijodning o‘ziga xos vositalaridan biri.

Tayanch so‘z va iboralar: *Ijod, ijodkorlik, yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash, mustaqil fikrlash, yangilik yaratish, noodatiy yondashuv, kreativ yondashuv, muammoli vazifalar, o‘quvchilarning faolligi, ijodiy yondashuv.*

1.1. Ijod tushunchasi va uning ilmiy jarayonidagi o‘rni.

Ijod – bu inson tafakkurining eng yuksak ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u mavjud bilim va tajriba asosida yangi g‘oya, yechim yoki mahsulot yaratish jarayonidir. Ijodkorlik inson tabiatiga xos bo‘lib, uni tarbiya, ta’lim va amaliy faoliyat orqali shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Psixologik nuqtayi nazardan ijod – bu shaxsning noodatiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, yangi yechimlar topishga intilish kabi qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayonida esa ijod o‘quvchi va o‘qituvchining faol, izlanishga yo‘naltirilgan hamkorligida yuzaga chiqadi.

Ilmiy faoliyat esa, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ijodiy jarayon bo‘lib, unda yangi bilimlar izlanadi, mavjud bilimlar qayta ko‘rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Ilmiy jarayonda ijodning o‘rni beqiyosdir, chunki har qanday ilmiy izlanish, eng avvalo, yangi g‘oyani ilgari surish, gipoteza yaratish, uni tekshirish, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi bosqichlardan iborat. Bularning barchasi ijodiy fikrlash, mustaqil qaror chiqarish va muammoni hal etishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Shuning uchun ilmiy-izlanish faoliyatida ijodiylik eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Tarixda amalga oshirilgan yirik ilmiy kashfiyotlar — Nyutonning tortishish qonuni, Eynshteynning nisbiylik nazariyasi, Tesla yoki Edisonning texnik ishlanmalari — barchasi oddiy bilim asosida emas, balki chuqur ijodiy tafakkur va tahlil orqali vujudga kelgan.

Bugungi kunda ta’limda sifat va samaradorlikni oshirish uchun o‘qituvchidan nafaqat nazariy bilim, balki ijodiy yondashuv ham talab etiladi. O‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, muammoga yechim topish kabi ko‘nikmalarni

shakllantirish uchun o'qituvchi o'z ishiga yangicha, zamonaviy va ijodiy yondashishi lozim. Dars jarayonida yangi metodlar, interaktiv mashg'ulotlar, muammoli topshiriqlar, fanlararo integratsiya va o'quvchilarning faolligiga asoslangan usullarni qo'llash — bularning barchasi ijodiy faoliyat mahsulidir. Ilmiy-metodik faoliyatda o'qituvchining dars ishlanmalari yaratishi, metodik qo'llanmalar yozishi, mualliflik dasturlar ishlab chiqishi va sinovdan o'tkazishi — bularning barchasi ilmiy-ijodiy faoliyatning tarkibiy qismlaridir. Ijod, ijodiyot va ijodkorlik tushunchalari. Ijodkorlik – yangi moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyat turi. Intellect – shaxs aqliy qobiliyatlarining nisbatan turg'un tuzilmasi. Ijodiy topshiriq – obyekt o'lchamlarini orttirish yoki kamaytirish, buyumning detallari, uzeli yoki tarkibiy qismini puxtarog'i bilan almashtirish orqali buyumni o'zgartirishni ko'zda tutadi. Intuitsiya – bu subyekt tomonidan o'ziga fikran qo'yiladigan savol va muammolarga anglanmagan holatda yuzaga keluvchi javoblar bo'lib, u to'plangan tajriba va bilimlar asosida topiladi. Intuitiv fikrlash jarayonlari amalga oshuvining tezligi, bosqichlarning aniq farqlanmasligi, minimal darajadagi anglanganlik bilan tavsiflanadi. Ijodiy fikrlash yangi buyumlar yaratilishi bilan xarakterlanib, uni hosil qilish uchun bilish faoliyatining o'zida yangi motivatsiya va maqsadlarni yuzaga keltiradi. Patent tadqiqotlari texnika obyektlarining rivojlanishi, texnik darajasi va taraqqiyot istiqbollari aniqlash maqsadida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar bo'lib, bunda ularning patent sofligi belgilanadi. Patent izlanishlari turli davlatlarning Ixtirolar xalqaro tasnifi bo'yicha tasniflangan himoya hujjatlarini izlash va tahlil qilish. Bilimlar banki kompyuterlarda saqlanuvchi axborotlar jamlamasi bo'lib, unda axborotlarning konseptual birligini hosil qiluvchi ma'lumotlar belgilangan tartibda jamlab boriladi. Ijod sifat jihatidan yangi va beqiyos, originalligi va ijtimoiy-tarixiy jihatdan nodirligi bilan o'zgacha narsa yaratish faoliyati. Kashfiyot – moddiy dunyoning ilgari ma'lum bo'lmagan obyektiv mavjud qonuniyatlar, xossalari va hodisalarni aniqlanishi bilan tavsiflanib, u insoniyatning bilish darajasini tubdan o'zgartiruvchi ta'sirga ega bo'ladi.

Kashfiyotning ishonchliligi - obyektiv mavjud bo'lgan qonuniyat, xususiyat yoki hodisaning kashfiyot sifatida tan olinishi uchun u nazariy yoki tajriba-sinov ishlari vositasida isbotlab berilmog'i lozim. Kashfiyot uchun arizaning tarkibi - kashfiyot

uchun tuziladigan ariza quyidagi hujjatlardan iborat bo'lishi lozim: kashfiyot uchun diplom berilishini so'rab yozilgan ariza, taxmin qilinayotgan kashfiyot tafsiloti, kashfiyot ustivorligini tasdiqlovchi hujjatlar, kashfiyot ishonchliligi va ahamiyati to'g'risidagi xulosa hamda yordamchi materiallar. Ixtiro - xalq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy qurilish yoki mudofaa sohasida masalani ijobiy samara beradigan qilib, yangichasiga va o'ziga xos texnik hal etish. Ixtirochilik huquqi - kashfiyotlar bilan, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflar qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi meyorlar majmui. Patent hujjatlari - bu shunday hujjatlar yig'indisiki, unda ilmiy-texnik tajribalar va loyiha konstruktorlik ishlanmalarining mazmuni kashf qilinganligi, foydali modeli hamda kashfiyotchining huquqini himoya qiluvchi ma'lumotlar bo'lishi kerak. Metod - muayyan maqsadga erishish, konkret vazifani bajarish usuli, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish (bilish) usullari yoki jarayonlar majmui. Shaxs xususiyatlari - turli xil sharoitlarda takrorlanuvchi, ma'lum darajadagi turg'unlikka ega bo'lgan individ faoliyatining ko'rinishi. Ijodkorlik - inson faoliyatining shunday turiki, uning natijasida yangi moddiy yoki ma'naviy boyliklar yaratiladi. Ish o'rni - ustaxona maydonining o'quv ishlab chiqarish va konstruktorlik- texnologik ishlarni bajarishi uchun zarur uskunalar (verstak, stanok), asboblari va moslamalar maqsadga eng muvofiq holda joylashtirishgan qismi tushuniladi. Loyiha - ko'zda tutilgan obyektни yaratish uchun bajariladigan hisob-kitoblar va grafik ishlarni qamrab oluvchi vazifalar majmui.

Loyihalash - ko'zda tutilgan yoki mavjudligi mumkin bo'lgan obyekt, holatning timsoli - loyihasini yaratish jarayoni. Ijodkorlik - inson faoliyatining shunday turiki, uning natijasida yangi moddiy yoki ma'naviy boyliklar yaratiladi. Modellashtirish - muayyan hodisa, jarayon yoki obyektlar sistemasini ularning modellarini yasab o'rganish yo'li bilan tekshirish; yangi yaratilayotgan obyektlar xarakteristikalarini aniqlash va ularni qurish. Loyihalashning samarali metodlari - buyumlarni konstruksiyalash, manipulyativ konstruksiyalash, ma'lumotlari qisqartirilgan texnik hujjatlarni qo'llash, ijodiy masalalarni hal qilish, ijodiy topshiriqlarni bajarish, ilgari tayyorlangan konstruksiyalarni o'zlashtirib, ishlarni qayta bajarish, xayoliy eksperiment. Evristik metod - bu yangi texnik yechimni yaratish maqsadida prototipni

qanday qilib o'zgartirishga oid yo'riqlarning qisqacha tavsifi. Model – haqiqatdan obyektning shartli aks ettirilishi. Maket– obyektning konstruksiyasini yaqqolroq tasavvur etish imkonini beradigan umumiy hajmli tasviridir. O'zaro o'xshashlik – ikki predmet yoki hodisaning barcha mos joylaridagi nuqtalari bir xil o'lchov birligida bir xil masshtabda bo'lishi bilan belgilanadi. Dizayn - narsalar muhitining estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyatining turlarini qamrab oladi. Grafika - tasviriy san'at turi; rasm san'atiga asoslangan, lekin o'z tasvir vositalari va ifoda imkoniyatlariga ega bo'lgan bosma badiiy tasvirlar (gravvyura, litografiya, monotipiya va b.) ni o'z ichiga oladi. Bilim - voqelikni bilish natijasi U amalda sinalgan bo'lib, voqelikning inson tafakkuridagi to'g'ri in'ikosidir. Ko'nikma - biror maqsad yo'lida harakat bajarish qobiliyati; ishlab chiqarish yoki o'quv faoliyatida bir xil harakat yoki bir tipdagi masalalarni yechishning ongli ravishda ko'p marta qaytarilishi natijasida avtomatizm holiga keladi.

1.2. . Ilmiy ijod – bu ilmiy bilishni rivojlantirish asosi.

Ilmiy ijod – bu ilmiy bilishni rivojlantirishning asosiy omili bo'lib, yangi g'oyalar, nazariyalar, usullar va kashfiyotlarni yaratish jarayonidir, u orqali insoniyat ilm-fan sohasida yangi yutuqlarga erishadi, mavjud bilimlarni takomillashtiradi va kengaytiradi.

Masalan Nyutonning tortishish qonuni fizika sohasida tubdan yangi qarashlarni olib keldi, Gregor Mendel esa genetikani rivojlantirib, irsiyat qonunlarini aniq belgiladi, Marie Curie radioaktivlikni kashf etib, ilm-fan va tibbiyotda yangi davrni boshlab berdi, shuningdek, zamonaviy davrda kompyuter texnologiyalari va sun'iy intellekt sohalarida yuzaga kelgan kashfiyotlar insoniyat faoliyatining barcha jabhalarini o'zgartirib, yangi bilimlarni yaratishga xizmat qilmoqda, ilmiy ijodning asosiy xususiyatlari esa yangilik yaratish, mustaqil va ijodiy tafakkurga ega bo'lish, tajriba va kuzatuvlarga asoslanishdan iborat, ilmiy ijod jarayoni muammoni aniqlash, mavjud bilimlarni tahlil qilish, yangi g'oyalarni taklif etish, sinov va eksperimentlar o'tkazish hamda natijalarni tahlil qilish bosqichlaridan tashkil topadi, shu sababli ilmiy ijodsiz ilmiy bilish rivojlanishi to'xtab qoladi, chunki faqat ijodiy yondashuv va yangi fikrlar yordamida ilm-fan taraqqiyoti mumkin, shunday ekan ilmiy ijod – bu faqat

yangi bilimlar yaratish emas, balki inson tafakkurining yuqori darajasi va mustaqil fikrlash san'ati bo'lib, u ilm-fanning poydevorini tashkil etadi va insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda fan hozirgi zamon axborot jamiyatining asosidan mustahkam o'rin olgan. Bunda borliqning tuzilishini ijodiy bilish sifatidagi fanning epistemologik, kreativ va evristik funksiyasi alohida hisoblanadi.

Hozirgi zamon noklassik (kvant realitivistik) fanining kreativ evristik o'rni alohida yaratuvchi olimning ilmiy ijodida ham, ilmiy jamoalar – laboratoriyalar, institutlar, sinov poligonlari va hokazolarning ilmiy ijodida ham o'z aksini topadi.

Ilmiy ijod – bu ilmiy bilishni rivojlantirish, yangi ilmiy bilim olish va undan foydalanish, ilmiy bilimni yangi qonunlar va qonuniyatlar, yangi ilmiy prinsiplar va nazariyalar, inson faoliyatining xar xil sohalaridagi amaliyotga faol chiqishlar bilan boyitish bilan bog'liq bilish va bunyodkorlik faoliyatidir.

Ilmiy ijod bu asosiy jihati o'rganilayotgan hodisalar va jarayonlarning, ularning harakat va rivojlanish qonunlarining mohiyatini abstrakt tushunchalar, sxemalar, formulalar, tenglamalar va hokazolar shaklida ifodalashdan iborat bo'lgan obyektiv voqelikni subyektiv aks ettirishdir.

Ilmiy ijod tushunchasi ilm-fan sohasida yangilik yaratish, ilmiy muammolarni hal qilish va mavjud bilimlarni chuqurlashtirish faoliyatini anglatadi. Bu ijodiy jarayon quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Ilmiy muammoni aniqlash – mavjud bilimlar orasidagi bo'shliqlarni ko'rish va tadqiqot mavzusini tanlash.
2. Faraz (gipoteza) ilgari surish – taxminlar qilish orqali yechim izlashga asos yaratish.
3. Tajriba va kuzatuvlar – gipotezani tekshirish uchun amaliy yoki nazariy tajribalar o'tkazish. Nashr va taqdimot – ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar yoki konferensiyalarda taqdim etish orqali bilimni ommaga yetkazish. Inson ijodiy ilmiy tadqiqotlaryordamida o'zini kurashgan olamga epistemologik jihatdan faol, muttasil ravishda chuqur va keng kirib boradi. Ilmiy kashfiyot ilmiy ijodning muxim jihati bo'lib, u ilmiy tadqiqotobyekti haqida yangi sifatli axborot olish, yangi qonunlar,

gipotezalar va nazariyalarni aniqlash, fanning yangi sohaları xaqida ma'lumotlar olishda namoyon bo'ladi. Ilm-fan inson faoliyatining maxsus sohasi bo'lib, uning vazifasi borliq haqida obyektiv bilimlarni ishlab chiqish va nazariy tizimlashtirishga quyidagilar kiradi: - ilmiy tushunchalar, tamoyil va aksiomalar, ilmiy qonunlar, nazariya va gipotezalar, empirik ilmiy faktlar, tadqiqot metodlari, usul yayo'llari shaklidagi muttasil to'ldirilib, takomillashtirilib, rivojlanib boruvchi bilimlar tizimi; - insonlarning ushbu bilimlar tizimini yaratish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy ijodiyoti; - insonlarning ijodiyotini ilmiy mehnat obyektlari, ilmiy faoliyat vositalari va sharoitlari bilan ta'minlovchi tashkilotlar.

Fanning rivojlanishi - faktlarni to'plash, ularni o'rganish va tizimlashtirish, umumlashtirish va ayrim qonuniyatlarni ochishdan ilmiy bilimlarning hozirda ma'lum bo'lgan faktlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib beraoladigan, yangilarini bashorat qilishga qodir bo'lgan yaxlit mantiqiy tizimini yaratish yo'nalishida boradi.

Ilmiy bilimlarning asosida tamoyillar (postulat, prinsiplar) va aksiomalar yotadi, ular tizimlashtirishning boshlang'ich shakli bo'lib, ta'limot, nazariya va fanlarning poydevorini tashkil etadi.

Nazariya – ilmiy bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishning oliy shaklidir. Nazariya mavjud ob'ektlarni, ular haqidagi ma'lumotlarni, jarayon va hodisalarni tushunish va bilishga, umumlashtirishga, yangilarini bashorat qilaolishga imkon beradigan ilmiy tamoyillar va qonunlarni, tadqiqot metodlarini shakllantiradi. Shuningdek, nazariya olingan bilimlardan insonlarning amaliy faoliyatida foydalanish bo'yicha tegishli tavsiyalar manbaasi hamdir. Ilmiy qonunlar – ilmiy bilimlar tizimidagi muhim tarkibiy qism bo'lib, ular tabiat, jamiyat va inson tafakkuridagi eng ahamiyatli, ustuvor va takrorlanuvchi obyektiv ichki aloqalarni aksettiradi. Ilmiy qonunlar, odatda, umumiy tushunchalar, kategoriyalar sarasiga kiritiladi.

Gipoteza – ilmiy bashoratning bir turi bo'lib, uning ishonchli ilmiy nazariyaga aylanishi uchun tajribada sinab ko'rilishi va nazariy asoslanishi talab etiladi.

Ilmiy bilishning umumiy va maxsus metodlari – ilm-fandagi masalalar nazariyalarni yaratish, borliqning obyektiv qonunlarini tashkil etish, ilmiy faktlarni aniqlash kabilarni yechishning quroli bo‘lib xisoblanadi.

Umumiy metodlar uch guruhga bo‘linadi:

- 1) empirik tadqiqot metodlari (kuzatish, taqqoslash, o‘lchash, eksperiment);
- 2) nazariy tadqiqot metodlari (abstraktlikdan konkretlikka ko‘tarilish va b.);
- 3) empirik va nazariy tadqiqot metodlari (analiz va sintez, induksiya va deduksiya, modellastirish, abstraktlashtirish va boshqalar).

Kuzatish – obyektни o‘rganishda unga ta’sir etmasdan bilish metodidir. Bunda obyektning xossasini, qayd etish va o‘lchash bilan chegaralaniladi, uning o‘zgarishi kuzatiladi. Tadqiqot natijalari bizga real obyektlarning obyektiv xossa va aloqalaridagina ma’lumot olishimkoniyatini beradi. Ushbu natijalar tadqiqotining ixtiyori, hissiyoti va hohish-irodasiga bog‘liq emas.

Taqqoslash (qiyoslash) – ilmiy bilishning keng tarqalgan metodi bo‘lib, u “hamma narsa qiyoslanganda bilinadi” degan tamoyilga asoslanadi. Taqqoslash natijasida bir necha obyektga taalluqli bo‘lgan umumiy jihatlar aniqlanadi. Bu esa, ma’lumki, qonuniyat va qonunlarni bilish yo‘lidagi birinchi qadamdir.

Taqqoslash sarmahsul bo‘lishi uchun o‘rtasida ma’lum obyektiv umumiylik mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan ob’ektlargina taqqoslanishi hamda obyektlarni taqqoslash eng ahamiyatli (bilish, o‘rganish nuqtai nazaridan) xossalari, belgilari va jihatlari bo‘yicha amalga oshirilishi shart.

O‘lchash – taqqoslashga nisbatan aniqroq bilish quroli hisoblanadi. Ushbu metodning ahamiyati o‘rganilayotgan obyekt haqidagi ma’lumotlarning yuqori aniqligidadir

1.3 Eksperiment ilmiy ijodning o‘ziga xos vositalaridan biri.

Eksperiment ilmiy ijodning ajralmas vositalaridan biri bo‘lib, ilmiy bilimlarni chuqurlashtirish, yangi qonuniyatlarni aniqlash va mavjud gipotezalarni tekshirishda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy faoliyatda eksperiment, ya’ni tajriba, inson tafakkuri mahsuli bo‘lgan nazariyalarni amalda sinovdan o‘tkazish uchun zarur vosita sifatida maydonga chiqadi. Bu usul yordamida olimlar hodisalarni o‘z nazoratlari ostida tahlil qilib, turli omillarning ta’sirini ajratib o‘rganadilar, natijada esa ilmiy haqiqatlarga erishadilar. Eksperiment boshqa ilmiy metodlardan farqli o‘laroq, hodisalarni bevosita sinab ko‘rish, kuzatish va ularning takroriyligini tekshirish imkonini beradi.

Ilmiy ijod – bu inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, u orqali yangi g‘oyalar, nazariyalar, qonuniyatlar va uslublar yaratiladi. Bu jarayon o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, balki uzoq kuzatuv, mulohaza va eng asosiysi, eksperimentlar orqali shakllanadi. Har qanday ilmiy gipoteza dastlab fikr tarzida paydo bo‘ladi, biroq uning ilmiy qiymatga ega bo‘lishi uchun tajriba orqali sinovdan o‘tkazilishi zarur. Eksperiment esa shu gipotezani tasdiqlovchi yoki rad etuvchi asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, eksperiment nafaqat mavjud nazariyalarni isbotlaydi, balki yangi ilmiy kashfiyotlarga ham yo‘l ochadi.

Tarixdan ma’lumki, ko‘plab buyuk kashfiyotlar aynan eksperiment asosida amalga oshirilgan. Masalan, Galileo Galileyning Piza minorasidan olib borgan tajribalari og‘irlik tushunchasini qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Isaac Nyuton prizmadan foydalangan holda yorug‘likning tarkibini aniqladi. Gregor Mendel esa no‘xat o‘simliklari ustida olib borgan tajribalari orqali genetika fanining asoslarini yaratdi. Ularning barchasi ilmiy ijod namunasi bo‘lib, eksperiment yordamida amalda isbotlangan nazariyalarga aylangan.

Zamonaviy ilm-fan ham eksperimentga tayanadi. Bugungi kunda tibbiyotda yangi dori vositalarini yaratish, fizika sohasida zarralar ustida olib borilayotgan tajribalar, biologiyada gen injiniringi, hatto ijtimoiy fanlarda ham inson xulq-atvorini o‘rganish eksperiment asosida amalga oshirilmoqda. Eksperimentning asosiy afzalliklaridan biri shuki, u nazorat qilinadigan sharoitda o‘tkaziladi, natijalari aniq va

ishonchli bo'лади hamda boshqa tadqiqotchilar tomonidan takrorlanishi mumkin. Bu esa ilmiy haqiqatlarning umumiy e'tirof etilishi va fan oldinga siljishiga xizmat qiladi.

Eksperiment turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Tabiiy eksperimentlar real hayot sharoitida olib boriladi, laboratoriya eksperimentlari esa maxsus sharoitda, nazorat ostida o'tkaziladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida modellashtirilgan yoki kompyuter orqali simulyatsiya qilingan eksperimentlar ham keng qo'llanmoqda. Ijtimoiy va psixologik fanlarda esa inson xatti-harakatlari ustida eksperimentlar olib borilib, jamiyatdagi muammolarga ilmiy yechimlar izlanmoqda.

Eksperiment (lot. yexreptegshp — tajriba, sinab ko'rish) — fanda narsa va hodisalarni sezgi predmet faoliyati bilan tadqiq qilish, o'rganish. Kuzatishga qaraganda yuksakroq bilish usuli. Mohiyat e'tibori bilan tajriba tushunchasini ifodalasada, eksperiment fanga nisbatan ishlatiladi. Eksperiment zarur shartsharoit yaratishni, turli vositalar bilan ob'yektni qayd etishni yoki hodisani sun'iy ravishda yuzaga keltirishni, tegishli texnika va moslamalarni tatbiq etish va o'lchash ishini o'z ichiga oladi. Eksperiment bilish ob'yektini takror hosil qiladi, farazlarni tekshiradi. Eksperiment insonning ob'yektga moddiy ta'sir ko'rsatishiga, voqelikni amaliy o'zlashtirishiga, bilimlarni boyitish va rivojlantirishga yordam beradi. Tabiiy va texnika fanlarida eksperimentdan haqiqatni bilish va uni isbotlash vositasi sifatida foydalaniladi. Eksperiment ijtimoiy hodisalarni, xususan, ijtimoiy fanlarni tadqiq etishda ham keng qo'llanadi.

Eksperiment metodining asosiy farqi va afzalligi shundan iboratki, bunda tadqiqotchi o'z xohishi bilan qandaydir psixik jarayon yoki xususiyatni yuzaga keltirib, psixik hodisaning tashqi sharoitga bog'liqligini tekshirib ko'rishi mumkin. Eksperiment metodining ana shu afzalligi uning psixologiyada keng qo'llanilishi bilan tushuntiriladi. Empirik, ya'ni tajriba yo'li bilan qo'lga kiritilgan faktlarning asosiy ko'pchiligi psixologiyada eksperimental yo'l bilan olingandir. Biroq har qanday tadqiqot qilinadigan vazifalarga eksperimentni qo'llab bo'lmaydi. Masalan, agarda psixik jarayonlar va funksiyalar ko'proq eksperiment yo'li bilan o'rganilsa, shaxsning birmuncha sodda xususiyatlari (temperament, ko'pgina qobiliyatlari) ham shu metod

yordamida o'rganiladi. Lekin xarakter va qobiliyatlarning murakkab turlarini eksperiment metodi bilan o'rganib bo'lmaydi

Tabiiy eksperimentlar ishlab chiqarish, turmush va h.k.larda ijtimoiyhodisalarnio'rganishda muhimdir. Sun'iy eksperimentlar esa texnika vaboshqafanlarda keng qo'llanadi.

Obyekt yoki jarayon modeli xususiyatiga, eksperimentlarni tanlash vao'tkazishga bog'liq holda ular laboratoriya va ishlab chiqarish turiga bo'linadi.

Laboratoriya eksperimentlari maxsus modellashtiruvchi qurilma, stendlardanamunaviy priborlar va tegishli apparatlarni qo'llab o'tkaziladi. Bularkamharajatqilgan holda qimmatli ilmiy informatsiya olish imkonini beradi.Lekin, eksperimental tadqiqotning bunday natijalari hamma vaqt ham jarayon yoki obyekt ishining borishini to'liq aks ettira bermaydi.

Ishlab chiqarish eksperimentlari atrof muhit turli tasodifiy omillarini hisobgaolgan holda mavjud sharoitlarda o'tkaziladi. Bunday eksperimentlar laboratoriyadagidan murakkab, tajriba naturasi (mavjud jarayon yoki obyekt)hajmdorligi oqibatida puxta fikrlash va rejalashtirishni talab etadi.

Eksplutatsiya qilinadigan obyektning turli dala sinovlari ham ishlab chiqarish tadqiqotlarga kiradi.Tegishli metodika va shakl bo'yicha tashkilotlar yoki muassasalardan, korxonalardan u yoki bu tadqiq etilayotgan masala bo'yicha materiallar to'plash ishlab chiqarish eksperimentlarining bir turi hisoblanadi.

Eksperimental tadqiqotlarni samarali o'tkazish uchun eksperiment metodologiyasi ishlab chiqiladi. U quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi: - eksperimentni reja-programmasini ishlab chiqish; - o'lchamlarni baholash va eksperiment o'tkazish vositalarini tanlash; -eksperimentni o'tkazish; -eksperiment natijasida olingan ma'lumotlarni ishlab chiqishi va tahlil qilishi.

Eksperiment reja-programmasi-ekperimental tadqiqotlarning metodologik asosi. Reja-programma quyidagilarni o'z ichiga oladi: - tadqiqot mavzulari ro'yxati va ishchi gipoteza mazmuni; - eksperiment metodikasi va uni bajarish uchun zarur materiallar, priborlar, qurilmalar va h.k.lar ro'yxati; - bajaruvchilar ro'yxati va ular kalendar ish rejasi; - eksperimentni bajarish uchun xarajatlar ro'yxati.

Eksperiment metodikasi - metodlar, eksperimental tadqiqotlarni maqsadga muvofiq usullari majmui. Umumiy tarzda u o'z ichiga oladi: - eksperiment maqsad va vazifasini;

- faktorlar tanlash va ular o'zgarish darajasini; - vositalar va o'lchashlar zarur miqdorini asoslashni;
- eksperiment mohiyati va tartibining bayonini;
- eksperiment natijalarini ishlab chiqishi va tahlil qilishi usullarini asoslashni.

Eksperimentning maqsad va vazifasi ishchi gipoteza va tegishli nazariy ishlanmani tahlil qilish asosida aniqlanadi. Vazifa aniq bo'lishi, ularning soni - uncha ko'p bo'lmasligi lozim: oddiy eksperiment uchun - 3... 4, majmua eksperiment uchun esa -8...10ta. Jarayon yoki obyektga ta'sir etuvchi faktorlarni tanlash qabul qilingan ishchi gipotezaga muvofiq nazariy ishlanmalarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Barcha faktorlar mazkur eksperiment uchun avval muhimlik darajasiga ko'ra saralanadi, so'ngra ulardan asosiylari va yordamchilari ajratiladi. O'lchash vositalari eksperimentning maqsad va vazifasidan, o'lchanadigan parametrlar tavsifi va talab etilayotgan aniqlikdan kelib chiqib tanlanadi. Qoidaga ko'ra, standart, yalpi ishlab chiqiladigan o'lchash vositalari (mamlakatda, chet elda ishlangan)dan foydalaniladi. Ayrim hollarda kamyob o'lchovlar pribor va apparatlari bunyod etiladi.

Eksperiment o'tkazishning mazmun va tartibi - metodikaning markaziy qismi. Unda eksperiment o'tkazish jarayoni to'la loyihalanadi: - kuzatish va o'lchash operatsiyalarini o'tkazish ketma-ketlikda tuziladi - eksperiment o'tkazishning tanlangan vositalarini hisobga olgan holda har bir operatsiya ayrim-ayrim mufassal tavsiflanadi; - operatsiyalar sifatini nazorat qilishda qo'llanadigan usullar tasvirlanadi; - kuzatish va o'lchash natijalarini yozshi uchun daftar tutiladi. Eksperimental ma'lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish usullarini asoslash metodikani muhim bo'limi hisoblanadi. Eksperimentlarning natijalari namoyish etishning ko'rgazma shakliga keltirilishi lozim (jadvallar, grafik, nomogrammlar va h. k.) toki ularni qiyoslash va tashkil qilish mumkin bo'lsin. Alohida e'tibor ishlab chiqish matematik usullari - empirik bog'liqlik, faktorlar va chiqish parametrlari o'rtasidagi aloqa approksimasiyasi, mezonlar, ishonchli intervallar o'rnatish va b.ga qaratiladi.

Eksperiment metodikasi ishlab chiqilgandan so'ng eksperimental tadqiqot hajmi va mehnat talabligi aniqlanadi. Ular nazariy ishlanmalar chuqurligi va qabul qilingan o'lchash vositalari tavsifi (aniqlik, ishonchlik, tez harakatlanish va h. k.) ga bog'liq. Tadqiqotning nazariy qismi qanchalik aniq ifodalangan bo'lsa, eksperiment hajmi va mehnat talabligi shuncha kam bo'ladi. Tabiiyki, hajm va mehnat talablik eksperiment turiga bog'liq. Dala sinovlari, qoidaga ko'ra, ko'p mehnat talabdir. Eksperiment-ilmiy tadqiqotning eng muhim va ancha mehnat talab bosqichi. Eksperiment ishlari tasdiqlangan reja-programma va eksperiment metodikasiga muvofiq o'tkaziladi. Eksperimentga kirishilar ekan sinovlarni o'tkazish metodikasi va ketma-ketligi tugal aniqlanadi. Eksperimental tadqiqotlar o'tkazish jarayonida quyidagi qator asosiy qoidalarga rioya qilish lozim; - eksperimentchi o'lchash natijalariga subyektiv ta'sirga yo'l qo'ymay tadqiq etilayotgan jarayon yoki obyekt parametrining barcha tavsifini vijdonan qayd etishi lozim; - eksperimentchi ehtiyotsizligiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, chunki bu hol ko'pincha katta xatolik va soxtalashtirishga, oqibatda, eksperimentlarni takrorlashga olib keladi; - eksperimentchi kuzatish va o'lchash daftarini albatta yuritishi kerak, uni tartibli va hech qanday tuzatishlarsiz to'ldirib borish lozim; - eksperiment jarayonida bajaruvchi o'lchash vositalari ishini, ular to'g'ri ko'rsatayotganligini va qurilma, jihoz, stend va h. k. lar ishi barqarorligini, atrof muhit holatini muntazam kuzatishi, ish zonasiga begonalarni kiritmasligi shart. - eksperimentchi o'lchov vositalarini, ular to'g'riligini nazorat qilgan holda ishchi tekshiruvni muntazam o'tkazishi kerak; - o'lchashlar o'tkazishi bilan bir vastda bajaruvchi natijalarni dastlabki ishlab chiqish va tahlil qilishni o'tkazishi lozim. Bu tadqiq etilayotgan jarayonni nazorat qilish, eksperimentni to'g'rilash, metodikani yaxshilash va eksperiment samaradorligini oshirishga imkon beradi; - eksperimentchi texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi va yong'inni oldini olish bo'yicha yo'riqnomalar talabiga amal qilishi lozim. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilgan barcha qoidalarga ayniqsa ishlab chiqarish eksperimentini o'tkazayotganda amal qilish kerak. Ilmiy ma'lumotlar olishning asosiy usullaridan biri bo'lib, eksperimental tadqiqotlar hisoblanadi. Eksperimentlar tabiiy va sun'iy, laboratoriyadagi va ishlab chiqarishdagiga bo'linadi. Har qanday eksperimental

tadqiqotlar metodologiyasining asosi bo'lib, reja-programma, metodika va eksperiment o'tkazish qoidasi hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Ijod qanday tushunasiz? tushunchasini
2. Ijodning qanday turlarini bilasiz? Har biriga misol keltiring.
3. Ilmiy ijod natijasida qanday yutuqlarga erishish mumkin?
4. O'z fanningiz yo'nalishida ilmiy ijodga oid misollar keltiring.
5. Eksperiment ilmiy ijodda qanday o'rin tutadi?
6. Biror eksperiment natijasida yangi ilmiy g'oya yuzaga kelgan holatlarga misol keltiring.

2-Mavzu: Ijodning nazariy muammolarini ko'tarish ishiga sharq mutafakkirlari qo'shgan hissalari.

Reja:

1. Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy ijodning qadimgi yodgorliklari.
2. Al-Farg'oniy, al- Xorazmiy, al-Forobiy , Ibn Sinoning ijodiy faoliyati
3. Temuriylar davrida olmiy falsafiy, ijodiy faoliyat.
4. Jamiyat va fan- texnika taraqqiyotida ixtirolarning tutgan o'rni.
5. Ijodkorlik faoliyatining ijtimoiy - tarixiy ahamiyati

Tayanch so'z va iboralar: *Ijodiy tafakkur, nazariy fikrlash, estetik qarashlar, badiiy tafakkur, san'at mohiyati, so'z san'ati, adabiy meros, badiiy obraz, haqiqat va badiiyat, adabiy tanqid, tasvir vositalari, iste'dod va ilhom, axloq va san'at, ijod erkinligi, komil inson g'oyasi, adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati, ma'naviyat va ijod, hikmatli fikrlar, didaktik yondashuv.*

2.1. Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy ijodning qadimgi yodgorliklari.

Quyidagi rasmlar orqali Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy va madaniy merosini ramziy tarzda aks ettiruvchi qadimiy yodgorliklarni ko'rishingiz mumkin jumladan, Buxoro, Samarqand markazlaridagi tarixiy me'morchilik namunalari, Qoniy

Urganchdagi muzey inshootlari va Turkiston shahridagi Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi.



Markaziy Osiyo qadimdan buyuk sivilizatsiyalar beshigi bo‘lib kelgan, bu hududda yashagan xalqlar insoniyat tarixiga beqiyos madaniy-ma’naviy meros qoldirganlar, ushbu yodgorliklar nafaqat arxeologik va moddiy madaniyat shaklida, balki yozma manbalar, adabiy asarlar, diniy-falsafiy risolalar, xalq og‘zaki ijodi namunalari sifatida ham bizgacha yetib kelgan, ularning har biri xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va tarixiy xotirasini aks ettiradi, bugungi avlod uchun esa saboq va ibrat manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’naviy meros avloddan-avlodga o‘tadigan, xalqning fikrlash tarzini, urf-odatlarini, e’tiqodlarini, qadriyatlari va ruhiy dunyosini ifodalovchi bebaho boylikdir, bu meros xalqning milliy o‘zligini anglashida, madaniy taraqqiyotida va g‘oyaviy dunyoqarashining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi, Markaziy Osiyoda

shakllangan qadimiy ma'naviy yodgorliklar esa turli davrlar va sivilizatsiyalar uyg'unligini o'zida mujassam etgan.

Qadimgi yozuvlar va bitiklar bu hudud xalqlarining ilk yozma ijodi namunalari hisoblanadi, Orxon-Enasoy bitiklari shular jumlasidan bo'lib, ular qadimgi turkiy runik yozuvlarda bitilgan, bu yodgorliklarda turkiy xalqlarning tarixi, siyosiy hayoti, urf-odatları va axloqiy qarashlari bayon etilgan, ularning nasihat va donoliklarga boy mazmuni bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Markaziy Osiyoda zardushtiylik e'tiqodi keng tarqalgan bo'lib, uning asosiy manbasi hisoblangan "Avesto" kitobi bu hududda shakllangan eng qadimiy yozma yodgorliklardan biridir, "Avesto"da ezgulik va yovuzlik, poklik va nopoklik, halollik va adolat haqida chuqur falsafiy fikrlar bayon etilgan, bu asar orqali biz o'sha davr odamlarining ma'naviy-axloqiy qarashlarini, hayotga bo'lgan munosabatini chuqur anglashimiz mumkin.

Sug'd va Baqtriya xalqlarining ma'naviy merosi ham tarixan muhim o'ringa ega, Panjikent va Afrasiob kabi shaharlardan topilgan devoriy rasmlar, yozuvlar, haykallar va arxeologik topilmalar orqali ularning diniy qarashlari, e'tiqod tizimi, urf-odatları va ma'naviy hayoti haqida boy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin, ayniqsa buddaviylik va manixeylikning tarqalishi bu yodgorliklarda yaqqol aks etgan.

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati haqidagi bilimlarning bebaho manbasi «Avesto» hisoblangan. «Avesto» so'zining mazmui izohga ega emas, ko'pgina «Asos matni» sifatida tarjima qilinadi. «Avesto» dunyoning eng qadimgi dinlardan bo'lgan zaro'shtiylik tarafdorlari uchun muqaddas kalima hisoblanib, payg'ambar Zardo'sht to'planganlarga undan va'z o'qigan. Uning hayot davri mil.avv. IX-VI asrlar atrofida deyiladi. «Avesto» va uning boshqa matnlarining to'planishi ko'p asrlar davomida amalga oshirilgan. «Avesto»ning eng qadimgi matnlari mil.avv. II-minginchi yillarga ta'luqli, «Avesto»ning milodiy VII asrga tegishli bo'lgan to'plami turli mazmundagi 21 kitobdan iborat bo'lib, unda o'sha davrning barcha bilimlari jamlangan. Zardo'shtiylik a'xolariga ko'ra bu yodgorlik Ezgulik va Yorug'lik xudosi Axuramazdaning Zaratujrtağa vahiysi hisoblanadi. Biroq, unda qadimgi mifologik tasavvurlar, miflarning keng tarqalishi, qahramonlik epik

rivoyatlaridan parchalar ham tasvirlanadi. Shuningdek diniy yo'l-yo'riq «payg'ambar davridan» keyin zardo'shtiylikning rivojlangan «e'tiqod ramzi» yuzaga keldi. Hozirgacha «Avesto»ning ayrim qismlari, 4 kitobi saqlanib qolgan:

1. Videvdat-«Devlatga qarshi qonunlar», bu kitobda asosan zardo'sht va Axuramazda o'rtasida suhbat, yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar mazmunida bo'lib, zulmat va yovuzlik xudosi Axrimani boshqaruvchi yomonlik kuchlarini qaytirish haqida.
2. Visprat-«hamma hukmronlar», bu kitobda ibodat namozlari to'plangan.
3. Yasna-«Ibodat», «Marosim» kitobi xudolarga sig'inish va murojaatdan iborat. Yasnadagi «Tot»lar nomli 17 bob zardo'shtning muqaddas qo'shiqlaridir.
4. Yasht-«Qadrlash», «Hamdu sano» kitobi-xudolarni sharaflovchi qadimgi gimnlar va ezgulik xudolariga yovuzlikka qarshi kurash yordam beruvchi kuchlar haqida. Bundan tashqari, «Avesto» majmuiga «Kichik Avesto» ham mansub, u avesto tilida yozilgan bo'lib, ibodat kalimalari joylangan.

Markaziy Osiyo xalqlari og'zaki ijodda ham katta yutuqlarga erishgan, Alpomish, Go'ro'g'li, Kuntug'mish kabi xalq dostonlari asrlar davomida og'zaki ijod orqali saqlanib, avloddan-avlodga yetib kelgan, bu dostonlarda xalqning vatanparvarlik, mardlik, sadoqat, oila va do'stlik kabi ezgu fazilatlari kuylangan, shuningdek, maqollar, topishmoqlar, ertaklar va afsonalar xalq donishmandligining mahsuli sifatida muhim o'rin egallaydi.

Islom dini kirib kelganidan so'ng, IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan, adabiyot, falsafa va san'at rivoj topdi, bu davrda Beruniy, Ibn Sino, Farobiy, Al-Xorazmiy kabi allomalar ilm-fan va ma'naviyatga beqiyos hissa qo'shdilar, ularning asarlari nafaqat o'z davri, balki butun insoniyat taraqqiyoti uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi, bu mutafakkirlarning ilmiy va axloqiy qarashlari xalqimizning ma'naviy dunyosini boyitdi.

2.2 Al- Farg'oniy, al- Xorazmiy, al-Forobiy , Ibn Sinoning ijodiy faoliyati.

Ahmad al-Farg'oniy hayoti, ilmiy izlanishlari va kamoloti Abbosiylar sulolasi hukm surgan, Arab xalifaligi jahonning eng yirik saltanatlaridan biriga aylanib, uning ijtimoiysiyosiy va madaniy hayotida Movarounnahr, Xorazm va Xurosondan kelgan ko'plab mutafakkirlar muhim o'ringa ega bo'la boshlagan tarixiy davrda kechdi. Al-

Fargʻoniy Xalifa Xorun ar-Rashid (786-809) vorislari al-Maʼmun (813-833), Muʼtasim (833-842) va Mutavakkil (846-861) hukmronlik qilgan davrda yashadi hamda avval Marv, soʻngra Bagʻdod, Damashq va Qohira shaharlarida ilmi hayʼat (falakiyotshunoslik astronomiya), riyoziyot (matematika) va jugʻrofiya (geografiya) fanlari bilan shugʻullandi hamda qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi.

Ahmad al-Fargʻoniy dastavval (taxminan 811-yil) Fargʻonadan Marvga kelgan. Ilk oʻrta asrlardayoq Marv Oʻrta Osiyoning yirik madaniy va ilmiy-maʼrifiy markazlaridan biri boʻlgan, bu maskanda oʻsha davrlardayoq Movarounnahr, Xorazm va Xurosondan koʻplab olimlar-u fozillar va mutafakkirlar toʻplanib, Ajamniy madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etganlar. Hatto 651 yilda soʻnggi Sosoniylar shahanshohi Yazdigard III ibn Shahriyor (632-651) arablar taʼqibidan qochib, poytaxt kutubxonasidagi kitoblarni oʻzi bilan Marvga olib kelgan. Xalifalik qoʻl ostiga oʻtgach ham Marv oʻzining qadimiy mavqeini yoʻqotmay, nafaqat ilmiy va madaniy markazga, balki fath etilgan sharqiy viloyatlarning siyosiy markaziga aylangan.

Horun ar-Rashid vafoti (809-yil) dan soʻng xalifalik taxtiga Muhammad al-Amin (809-813) chiqadi. Uning akasi Abdulloh bilan taxt uchun (809-813 yillarda) olib borgan kurashi (Xorun ar-Rashid oʻgʻli Abdullohni 806 yilda Movarounnahr va Xurosonning noibi etib Marvga yuborgan edi) Abdullohning gʻalabasi bilan tugaydi. Muhammad al-Amin qatl etiladi. Oʻsha yili (813-yil) Abdulloh al-Maʼmun nomi bilan taxtga oʻtiradi. Biroq u xalifalik poytaxti Bagʻdodga bormay, to 819 yilga qadar Marvda yashaydi. U oʻz atrofiga olimlaru fozillarni toʻplaydi. 819-yil al-Maʼmun barcha saroy aʼyonlari va olimlari bilan birga Maradan Bagʻdodga koʻchadi. Ular orasida al-Fargʻoniy ham boʻlgan.

Bu davrda xalifalikda Horun ar-Rashid farmoni bilan bino qilingan ikkita rasadxona va boy kutubxona bor edi. Abu Rayxon Beruniy maʼlumotiga qaraganda, rasadxonalardan biri Bagʻdodning ash-Shammosiya mahallasida va ikkinchisi Damashq yaqinida Kasiyun nomli togʻda joylashgan edi. Rasadxonalarda Horun ar-Rashid asos solgan ilmiy markaz „Bayt ul-hikmat“ („Donishmandlar uyi“) olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borardi. Ular orasida al-Fargʻoniy ham bor edi.

Al-Fargʻoniy avval Bagʻdoddagi rasadxonada ish olib bordi, soʻngra al-Maʼmun topshirigʻiga binoan Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va oʻrnini aniqlash, yangicha „Zij“ yaratish ishlariga rahbarlik qildi. Al-Fargʻoniy yunon astronomlari, jumladan, Ptolemeyning „Yulduzlar jadvali“ asarida berilgan maʼlumotlarni koʻrib chiqish hamda oʻsha davrdagi barcha asosiy joylarning jugʻrofiy koordinatalarini yangitdan aniqlash yuzasidan olib borilgan muhim tadqiqotlarda faol ishtirok etdi. Shu munosabat bilan arab tilidagi ilmiy atamashunoslikka doir ishlarni, xususan, falakiyot, riyoziyot va geografiyaga oid atamalarni belgilab chiqishdek maxsus ilmiy ishlarni amalga oshirishda ham Al-Fargʻoniyning xizmati katta. Bulardan tashqari, u ayrim astronomik asboblarni ixtiro etish, falakiyotshunoslikka doir arab tilidagi boshlangʻich bilimlarni belgilash va tartibga solish ishlariga ham muhim hissa qoʻshdi. 832-833 yillarda Al-Fargʻoniy Shom (Suriya) shimolidagi Sinjor dashtida Tadmur va ar-Raqqa oraligida yer meridiani bir darajasining uzunligini oʻlchashda qatnashdi.

Al-Fargʻoniyning hayoti va ilmiy hamda amaliy faoliyati toʻgʻrisidagi eng soʻnggi maʼlumot 861 yilga mansubdir. Oʻsha yili Abbosiy xalifa Abul Fazl Jaʼfar al-Mutavakkil (hukmronlik yillari 847-861) buyrugʻiga binoan Nil daryosidagi suv sathini oʻlchaydigan inshoot barpo etish uchun Misrning Qohira yaqinidagi Fustat shahriga keladi. Ilmiy-texnik va meʼmoriy jihatdan gʻoyat ulugʻvor bu qurilma Nil daryosining Sayyolat ul-Rod mavzesida hozirga qadar saqlanib qolgan.

Garchi Al-Fargʻoniy haqida maʼlumotlar juda oz boʻlsada, ammo oʻrta asrlarda sharq ilmiy dunyosida uning nomi mashhur boʻlgan. Ibn annadim (10-asr), Ibn al-Kiftiy (12-13-asrlar), Abul Faraj Bar Ebrey (13-asr) va Xoji Xalifa (17-asr) kabi Sharq fihrastchilari uning nomini oʻz asarlarida qayd etganlar.

Al-Xorazmiy, toʻliq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, taxminan 783-yilda Xorazmda tugʻilgan, u Abbosiylar xalifaligi davrida, ayniqsa Maʼmun xalifa hukmronligi yillarida Bagʻdod shahrida faoliyat yuritgan, "Bayt al-Hikma" – yaʼni Donishmandlar uyida ishlagan, bu markazda u yunon, hind va fors manbalarini oʻrganish, tarjima qilish va tahlil etish bilan shugʻullangan.

Al-Xorazmiy matematika, astronomiya, geografiya, va hisoblash tizimlari kabi fanlar bilan chuqur shugʻullangan, ayniqsa uning algebra fani rivojiga qoʻshgan hissasi benihoya katta boʻlgan. U tomonidan yozilgan “Al-Kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val-muqobala” asari algebra fanining ilk asosiy manbasi hisoblanadi, bu asarda u tenglamalarni yechishning umumiy qoidalarini, musbat ildizlar orqali masalalarni hal qilish usullarini, amaliy hayotdagi muammolarga (meros taqsimoti, savdo, yer oʻlchash) asoslangan misollar orqali tushuntirib bergan. Aynan shu asar sababli algebra atamasi ilmiy muomalaga kirgan, uning yondashuvi nazariy emas, balki amaliy boʻlib, turmushda qoʻllanilishi mumkin boʻlgan masalalarni yechishga yoʻnaltirilgan.

Al-Xorazmiy hind raqam tizimini arab dunyosiga olib kirgan, u orqali oʻnlik sanoq tizimi va nol tushunchasi tanilgan, bu tizim keyinchalik lotin tiliga tarjima qilingan va Yevropaga yoyilgan, uning “Hisob al-Hind” asari orqali zamonaviy raqamlar shakllanishi boshlangan, shuningdek, bu asar zamonaviy hisoblash fanining rivojlanishiga asos boʻlgan. Geografiya sohasida ham al-Xorazmiy katta ishlarni amalga oshirgan, u “Kitob surat al-arz” asarida oʻsha davr uchun mavjud boʻlgan geografik maʼlumotlarni toʻplagan, enlik va boylik koordinatalarini hisoblab chiqqan, Ptolemey xaritasini tahrir qilgan, xaritada 240 dan ortiq shahar va joy nomlarini aniq koʻrsatgan. Astronomiya sohasida ham u salmoqli meros qoldirgan, xususan “Zij al-Sindhind” nomli asarida yulduzlar holati, quyosh va oy tutilishlarini hisoblash, vaqtni belgilash usullari keltirilgan, bu asar musulmon astronomiyasining rivojlanishiga kuchli turtki bergan.

Al-Xorazmiyning asarlari keyinchalik lotin tiliga tarjima qilingan, uning ismi Yevropada “Algoritmi” shaklida tanilgan, aynan shu nom asosida bugungi “algoritmi” atamasi paydo boʻlgan, u yaratgan ilmiy uslublar, tushunchalar va metodlar zamonaviy algebra, informatika va boshqa koʻplab fanlar rivojiga poydevor boʻlgan, al-Xorazmiy oʻz davrining eng yirik olimlaridan biri sifatida butun dunyo ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan.

Al-Farobiy Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Tarkhon al-Farobiy taxminan 870-yilda Turkistondagi Farob shahrida tugʻilgan va 950-yilda Damashqda

vafot etgan. U o'z davrining yirik olimi, faylasufi, mutafakkiri va ensiklopedik bilim egasi bo'lib, ko'plab fan sohalarida iz qoldirgan.

Al-Farobiy yunon, arab, fors va boshqa tillarni mukammal bilgan va bu unga qadimgi yunon faylasuflari, jumladan Aristotel va Platon asarlarini chuqur o'rganish va sharhlash imkonini bergan. U o'zining falsafiy qarashlarida aql, borliq, ruh, tafakkur va baxt masalalarini tahlil qilgan va ularni Islom falsafasi bilan uyg'unlashtirgan. Shuning uchun u "Ikkinchi muallim" deb nom olgan, birinchi muallim esa Aristotel hisoblanadi.

Al-Farobiy mantiq fanini mustaqil fan sifatida rivojlantirgan, uni boshqa fanlardan ajratgan va bilim olish vositasi sifatida talqin qilgan. Musiqa ilmi sohasida ham katta hissa qo'shib, "Musiqa ilmi haqida katta kitob" asarini yozgan, unda tovush, ritm, ohang va musiqa asboblari haqida ilmiy izohlar bergan. Ijtimoiy-siyosiy qarashlarida esa ideal jamiyat haqida fikr yuritib, "Fozil shahar" tushunchasini ilgari surgan va jamiyat boshqaruvi ilmi va dono kishilar qo'lida bo'lishi lozimligini ta'kidlagan. Uning mashhur asarlari orasida "Fozil shahar ahlilari haqida", "Baxtga erishish haqida", "Aql ma'nolari haqida risola", "Musiqa ilmi haqida katta kitob" va "Aristotel asarlariga sharhlar" kabilar bor.

Al-Farobiy ilm-fan rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lib, uning g'oyalari nafaqat musulmon Sharqida, balki o'rta asr Yevropasida ham keng tarqalgan va Ibn Sino, Ibn Rushd kabi ko'plab yirik allomalar uning asarlaridan ilhom olgan.

Ibn Sino (Abu Ali Husayn ibn Abdulla ibn Sino), milodiy 980-yilda Hurosonning Buxoro yaqinida tug'ilgan, u o'zining keng ko'lamli ilmiy va falsafiy faoliyati bilan o'rta asrlar ilm-fanining eng yirik namoyandalaridan biri bo'lgan, u tibbiyot, falsafa, matematika, astronomiya, kimyo, musiqiy nazariyalar va boshqa ko'plab sohalarda chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan.

Ibn Sino o'zining eng mashhur asari bo'lgan "Al-Qonun fi-t-Tibb" (Tibb qonuni) asarida tibbiyot fanining nazariy va amaliy jihatlarini tizimli ravishda bayon qilgan, bu asar yuzlab yil davomida Yevropa va Islom olamida asosiy tibbiy manba sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, uning falsafiy asarlari, jumladan "Kitab al-Shifa" (Shifo kitobi), Aristotel va boshqa yunon faylasuflarining asarlarini chuqur o'rganib,

ularni sharhlab, o'ziga xos falsafiy tizim yaratishga xizmat qilgan. Ibn Sino tabiatshunoslik, logika, metafizika, ruhshunoslik kabi sohalarda ham katta yutuqlarga erishgan, uning ilmiy merosi qadimiy yunon va fors ilmiy an'analarini uyg'unlashtirib, keyingi asrlar falsafasi va faniga chuqur ta'sir ko'rsatgan. U o'z zamonasida o'ziga xos ensiklopedist sifatida tanilgan, uning ilmiy ishlari o'nlab tillarga tarjima qilingan va ko'plab ilmiy markazlarda o'rganilgan.

Ibn Sino shuningdek, musiqiy nazariya va tajriba sohasida ham ish olib borgan, bu esa uning ilmiy keng ko'lamini yanada boyitgan. Uning ilmiy faoliyati nafaqat Islom olamida, balki butun dunyo ilm-fani tarixida muhim o'rin tutadi, u o'zining nazariy yondashuvlari va metodologiyasi bilan ilmiy tadqiqotlarning yangi davrini boshlab bergan, shuningdek, uning asarlari tibbiyot, falsafa va boshqa sohalarda o'rganishning asosiy manbasi bo'lib qolgan.

2.3 Temuriylar davrida olmiy falsafiy, ijodiy faoliyat.

Amir Temur ilm-fan rivoji uchun g'amxo'rlik qilishi tufayli Samarqand dunyoning ma'rifiy markaziga aylandi. Mashhur olimlar Samarqandga keldi. Masalan, Qozizoda Rumiy, tabib Xusomiddin Kermoniy, falaqiyotshunos Mavlono Ahmad, Ulug'bek davrida turli mamlakatlardan kelgan 100 dan ortiq olimlar ilmiy va ijodiy faoliyat ko'rsatgan. Temur va temuriylar zamonida tabiiy va gumanitar fanlar sohasida buyuk olimlar yetishib chiqdi hamda jahon faniga munosib hissa qo'shdi. Falokiyotshunoslik fanida Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar yangi kashfiyotlar qildi. Tarix ilmida Sharofiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro', Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy va boshqalar qimmatli asarlar yaratdi. Badiiy ijod va tilshunoslikda Jomiy, Navoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Atoullo Husayniy, Koshifiy singari ijodkorlar yuksak san'at asarlari bilan mashhur bo'ldi.

Mirzo Ulug'bek davrida Samarqandda birinchi Akademiyaga asos solindi, Yer kurrasini o'lchash va falaqqiyotshunoslik jadvallarini tuzish ishlari amalga oshirildi. Samarqand rasadxonasining qurilishi ulkan madaniy voqea bo'lib, jihozi va ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng keladigan rasadxona yo'q edi. Rasadxonada Ulug'bek

matematika, geometriya, falaqqiyotshunoslikda chuqur bilimlar sohibi edi. Ali Qushchi, Muhammad Xavofiylar uning sevimli shogirdlari bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek «Zij» asarida VIII-XI asrlarda boshlangan falaqqiyot ilmiga oid an'anani davom ettirib, yuqori darajaga ko'taradi. Matematikaga doir «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», Falaqqiyotshunoslikka oid «Risolai Ulug'bek» va musiqa haqida «Musiqa ilmi haqida risola» kabi asarlar yozdi. Ulug'bek Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda madrasalar qurdirib, ta'lim ishlariga rahbarlik qildi.

Temur va temuriylar davrida xalq og'zaki ijodi namunalari yaratildi. Adabiyot badiiy uslub jihatidan takomillashdi, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid ilmiy asarlar yaratildi. O'zbek tarjima adabiyoti vujudga keldi.

Bu davrda yetuk ijodkorlar Qutb, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih va boshqalar yashab ijod qildi. Ayniqsa o'zbek yozma adabiyotining dunyoviy ko'lamini Alisher Navoiyning ijodi kamolot bosqichiga ko'tardi.

Movarounnaxr va Xurosonda o'zbek tili, adabiyoti va madaniyatining mavqei orta bordi. Xurosondagi turkiyzabon xalqlar va ularning ziyolilari Samarqand, Buxoro, Turkiston va boshqa shaharlardagi olimlar shoirlar va san'atkorlar bilan o'zaro juda yaqin munosabatda bo'la boshladilar. Qaysi ijodkor o'ziga qaysi mamlakat yoki shaharni qulay deb bilsa, yosha yerda yashab ijod qildi.

Masalan, xorazmlik shoirlar Haydar va hofiz Xorazmiylar Sherozga, Ismoil Ota avlodlaridan bo'lgan shoir Shayx Atoiy Turbatdan (Toshkent yaqinidan) Balxga, Mavlono Lutfiy ham asli Toshkentdan bo'lib Hirot yaqiniga borib yashab qolganlar.

Temur va uning avlodlari adabiyot va san'atga, ilm-fanga yaqin kishilar edi. Temuriylardan 22 ta ijodkor-shoir bo'lib, ular o'zlari she'r yozish bilan birga ijodkorlarga xomiylik ham qilgan. Xalil Sulton, Husayn Boyqaro kabilar o'z she'rlaridan devon tuzganlar.

Xuroson va Movarounnaxrda forsiy va turkiyda ham ikkala tilda ijod qiluvchi shoirlar ko'p bo'lib, adabiy hayot yuksaladi. Sharq klassik adabiyoti tarjimalariga ham e'tibor kuchayadi. «Chaxor manoli» kabi adabiyot nazariyasiga oid asarlar yaratilgan.

Badiiy ijodning g'azal, ruboiy, tuyuq kabi turlari rivoj topgan. Adabiy jarayonda shohlar ham, oddiy kosib va hunarmandlar ham, olim va fozillar ham qatnashgan.

Xurosondagi adabiy hayotning rivojida Boysung'ur Mirzo (Shohruhning o'g'li) ning o'rni beqiyos bo'lib, u o'z tashabbusi bilan fanlarning barcha sohalariga va san'at rivojiga katta hissa qo'shgan. Uning rahbarligida Firdavsiy «shohnomasi»ning ko'p qo'lyozmalarni qiyoslash asosida ishonchli ilmiy matni yaratildi. Boysung'urning o'zi ham forsiy va turkiyda she'rlar yozgan. Xullas, XV asr o'rtalarida Xurosonda o'zbek adabiyotining yangi maktabi yuzaga keldi.

Movarounnaxrda Ulug'bek davrida ko'plab forsiy va turkiy ijodkorlar to'plandi. Adabiy muhitni bevosita Ulug'bekning o'zi boshqarar, Samarqandda o'sha davrning eng yaxshi shoirlari yig'ilgan edilar. Shoirlarning sardori («Malik ul-kalom») qilib Mavlono Kamol Baraxshiy tayinlangan edi. Sakkokiy o'z qasidalaridan birida Ulug'bekning she'r yozishini va uning she'r haqidagi tushunchasi yuqori bo'lganligi ta'kidlab o'tgan. Ulug'bek Xurosondagi ijodkorlar bilan ham do'stona munosabatda bo'lgan. U Lutfiy she'rlarini XV asrning mashhur shoiri Salmon Sovajiy she'rlari bilan teng ko'rgan. Mumtoz shoir bilan tenglashtirish Lutfiy uchun katta sharaf edi.

Ulug'bek saroyidagi eng obro'li o'zbek shoiri Sakkokiyning lirik she'rlari bilan biga o'zbek tilidagi qasidalar ham bu she'riy janrning sezilarli yutug'i bo'ldi.

Navoiy «Majolisun-nafois» tazkirasida ko'proq xurosonlik shoirlar haqida ma'lumotlar bersa, Davlotshoh Samarqandiy «Tazkirat ush-shuaro» asarida o'tmishda o'tgan ijodkorlarga to'xtaladi. Yaqinda ma'lum bo'lgan Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning «Fukukul-balog'a» (1437 y.) asari temuriylar davri Movarounnaxrdagi adabiy hayotni o'rganish imkonitlarini ochdi.

Shayx Axmad Taroziy asarida she'r nazariyasiga doir ilmiy masalalarni yoritish bilan birga, shu paytgacha noma'lum bo'lgan o'zbek va forsiyzabon shoirlarning she'rlaridan misollar keltiradi. Shayx Taroziy o'z asarida bizga ma'lum bo'lgan mashhur shoirlardan tashqari, bizga noma'lum bo'lgan Muhammad Temur Buzoning tuyuqlarini, Shams Qisoriyning «al-maqlubul-ba'z» she'riy san'ati namunalarini, Jaloliy degan shoirning ishqiy mazmundagi baytlarini, «mutasalsal» she'riy man'atiga o'zining g'azalidan namunalar keltiradi.

«Mutasalsal» san'ati qofiya bo'lib kelgan so'zlarning yoki uning bir bo'lagining keyingi bayt boshlanishida takrorlanishi bilan baytlarni bir-biriga bog'lashni anglatadi. Taroziyning «Fukukul-balog'a» asari o'sha davr o'zbek adabiyoti tarixini yanada chuqurroq o'rganishda qimmatlidir.

XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotining eng rivojlangan davri bo'lib, bu yuksalik Temuriy Boyqaro va o'zbek adabiyotining porloq quyoshi Navoiy nomlari bilan bog'liq. Boyqaro hukmronligi davrida adabiyot, san'at va fanning ko'p sohalari rivojiga katta ahamiyat bergan. «Husayniy» taxallusi bilan she'rlar yozgan, bu ulug' zot o'z hukmronligi davomida Navoiyga «muqarrabi hazrati sultoni» mansablarini berib birgalikda madaniyatning rivojlanishiga homiylik qilishgan. Navoiy ustoz Jomiy bilan hamkorlikda ma'naviyat taraqqiyotiga rahnamolik qildi. Ular timsolida badiiy adabiyot eng buyuk yutuqlarga erishdi. Navoiyning «Xamsa» va «Xazoyinul-maoni» devoni, Jomiyning «hasht avrang» va she'riy devonlari shu davr adabiyotining eng buyuk namunalari bo'ldi. Husayn Boyqaro o'z «Risolasida» uning hukmronligi davrida shunday asarlar yaratilganidan cheksiz faxrlangani bejiz emas.

Bu boy adabiy meros o'zbek adabiyotining keyingi taraqqiyotiga ham o'zining chuqur ta'sirini ko'rsatdi. Boburning «Boburnoma» asari shu davr o'zbek adabiyoti va ilmining hayotbaxsh an'analari asosida yuzaga kelgan edi.

XV asrda o'zbek adabiyoti, ayniqsa Navoiy ijodi misolida adabiy janrlar rang-barangligi nuqtai nazaridan ham eng yuksak cho'qqiga ko'tarildi. O'zbek adabiy tili shakllandi. o'zbek nazmi va nasridagi adabiy uslubning xususiyatlaridan biri adabiy va ilmiy asarlarda fikr ifodasida forsiy va arabiy so'z va iboralardan, atamalardan, forsiy tilga xos jumla tuzilish qoidalaridan keng foydalandilar.

Temuriylarning adabiyot va madaniyat sohasidagi an'analari keyinchalik boburiylar tomonidan Afg'oniston va Hindistonda, XVIII-XIX asrlarda Xorazm va Qo'qon xonligida rivojlantirildi.

Temuriylar davri adabiyoti o'zbek adabiyoti rivojida o'ziga xos alohida bir bosqichni tashkil etadi. Undagi ulug'vor insonparvarlik va xalqchillik, adolatparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari hamon o'z tarovatini yo'qotgani yo'q. Bu adabiy meros

O'zbekistonda hali asrlar davomida o'zining boy mazmuni bilan, g'oyaviy-mafkuraviy teranligi va ilohiyligi bilan komil insonni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Temuriylar davrida yaratilgan adabiyot tasavvufning adabiyoti darajasini belgiladi. Adabiyot tasavvufning g'oyaviy mazmunida ilohiy masalalarni qamrab olib umuinsoniy tafakkurni ifodaladi.

Movarounnaxr va Xurosonda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda ro'y bergan madaniy yuksaklik butun musulmon Sharqigina esas, ovropa mamlakatlarini hayratga soldi. Bu yuksaklik Markaziy Osiyoning so'nggi madaniy-ma'naviy rivojinigina belgilab bermay, qo'shni mamlakatlardagi madaniy taraqqiyotga ham katta turtki berdi

1.4 Jamiyat va fan- texnika taraqqiyotida ixtirolarning tutgan o'rni.

Jamiyat va fan-texnika taraqqiyotida ixtirolarning tutgan o'rni nihoyatda muhimdir, chunki ixtirolar insonlarning hayotini yengillashtiradi, yangi imkoniyatlar yaratadi va taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Masalan, XV asrda matbaaning ixtiroi bilan kitoblar keng tarqaldi, bilim ommaviylashdi va ma'rifat asri boshlandi, bu esa jamiyatda yangi fikrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, XVIII asrda parovoz ixtiroi sanoat inqilobiga turtki bo'ldi, transport tezlashdi va iqtisodiyot sezilarli darajada o'sdi.

Elektr energiyasining kashf qilinishi bilan esa kundalik hayotimizda yangi texnika vositalari paydo bo'ldi, masalan, elektr lampasi va telefon, bu insonlar o'rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqdi.

Bugungi kunda internet ixtiroi global axborot almashinuvi va kommunikatsiyaning inqilobiy o'zgarishiga sabab bo'ldi, bu esa ta'lim, ish faoliyati va madaniyat sohalarida tubdan yangilanishlarni amalga oshirdi. Tibbiyot sohasida antibiotiklarning ixtiroi kasalliklarni davolash imkoniyatlarini kengaytirdi va inson umrini sezilarli darajada uzaytirdi, zamonaviy tibbiyotda esa robot texnologiyalari va sun'iy intellekt jarrohlik amaliyotlarini yanada mukammallashtirmoqda. Qishloq xo'jaligida esa traktor va kombayn kabi texnikalar mehnat samaradorligini oshirdi, bu esa oziq-ovqat ta'minotini yaxshiladi va aholi sonining oshishiga yordam berdi.

[illegible]

31

XVI asrda savdo-sotiq va yirik manufakturadagi tub o'zgarishlar bir qancha aniq vazifalarni nazariy va eksperimental hal qilishni talab qildi. Bu davrda fan uyg'onish davri g'oyalari ta'sirida sxolastika an'analarini parchalab, amaliyotga murojaat qildi. Kompas, porox va kitob nashr qilish ilmiy-texnikaviy faoliyatga asos solgan 3 ta yirik kashfiyot bo'ldi. Suv tegirmonlarining rivojlanayotgan manufaktura ishlab chiqarishida qo'llanishi ba'zi mexanik jarayonlarni nazariy tadqiq etishni talab qildi. Natijada charxpalak g'ildiragi, charxpalak harakati nazariyasi, qarshilik va ishqalanish ta'limotlari yaratildi. Fan bilan texnika yaqinlashuvining 2-bosqichi mashina ishlab chiqarishning XVIII asr oxiridan boshlab taraqqiy etishi bilan bog'liq bo'lib, bunda fan bilan texnika bir-birining jadal rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ilmiy tadqiqot faoliyatida nazariy masalalarni hayotga tatbiq qilishga da'vat etuvchi fanning maxsus bo'g'inlari paydo bo'ldi: amaliy tadqiqotlar, ishlab chiqarish tadqiqotlari, amaliy konstruktiv ishlanmalar va hokazo. Fan-texnika taraqqiyotining 3-bosqichi fan-texnika inqilobi bilan bog'liq. Uning ta'sirida texnika taraqqiyotiga qaratilgan ilmiy sohalar kengayadi. Texnik masalalarni hal qilishda biologlar, fiziologlar, psixologlar, mantiqshunoslar ishtirok etadi. Ma'lumki, har qanday holatda ham ilmiy-texnika taraqqiyotining bosib o'tgan tarixiy asoslari bor. Bunga yaqin kelajakka bir nazar solaylik.

XX asrning o'rtalariga kelib fanning ijtimoiy hayotdagi roli mislsiz darajada oshdi. Fanlar taraqqiyotidagi inqiloblarning xarakteri o'zgardi, ya'ni ilm sohasidagi inqiloblar texnika sohasidagi axborotlar bilan uyg'unlashib ketdi va ilmiy-texnika inqilobi yuzaga keldi, shuningdek ijtimoiy fanlar yo'nalishlari, iqtisod va ishlab chiqarishni tashkil qilish, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarish, aniq ijtimoiy tadqiqotlar kabilarga bilvosita ta'sir qiladi. Fanning texnikaga nisbatan yetakchilik mavqei yanada yorqin namoyon bo'ladi, fan texnikani uzluksiz inqiloblashtiruvchi kuchga aylanadi. O'z navbatida, texnika ham fan taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning oldiga yangi talab va vazifalar qo'yadi. Hozirgi zamon fan texnika inqilobining xarakterli xususiyati uning sanoat bilan birga ijtimoiy hayotning turli sohalari: qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, tibbiyot, ta'lim, maishiy xizmat kabilarni qamrab olganligidadir.

1.4 Ijodkorlik faoliyatining ijtimoiy - tarixiy ahamiyati

Ijodkorlik inson tafakkurining eng yuksak ko‘rinishi bo‘lib, u jamiyatning madaniy, ma‘naviy va ilmiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, har bir rivojlanish bosqichida ijodkor shaxslar – olimlar, yozuvchilar, san‘atkorlar, mutafakkirlar hal qiluvchi rol o‘ynaganini ko‘ramiz. Ijodkorlik faqat san‘atga xos emas, balki hayotning barcha sohalarida – ilm-fanda, texnologiyada, ta’limda, hatto kundalik turmushda ham namoyon bo‘ladi.

Har bir davr o‘z ijodkorlarini yetishtirib chiqargan va ular orqali tarixiy xotirani, milliy o‘zlikni va ma‘naviy qadriyatlarni asrab kelgan. Ijod mahsuli bo‘lgan asarlar – bu xalqning ma‘naviy boyligi, ruhiy olami va ijtimoiy ongining ifodasidir. Masalan, Alisher Navoiy o‘z asarlari bilan o‘zbek adabiy tilini yuksaltiribgina qolmay, balki butun bir davrning ijtimoiy-ma‘naviy manzarasini aks ettirdi. Abu Ali ibn Sino, Beruniy kabi mutafakkirlar esa ilm-fan sohasida tarixiy o‘zgarishlar yasab, jahonga o‘z ta’sirini o‘tkazganlar.

Ijodkorlik jamiyat hayotida o‘zgarishlar yasovchi kuch sifatida ham namoyon bo‘ladi, ayniqsa, adabiyot va san‘atda bu kuch ijtimoiy tanqid, ma‘naviy uyg‘onish va yangilanishga turtki beradi. Yozuvchi va san‘atkorlar o‘z asarlari orqali xalqni o‘ylantiradi, jamiyatdagi muammolarni ko‘taradi, yechim izlaydi, g‘amgin qalblarga taskin, ezgulikka chorlov bo‘ladi. Shuning uchun ham ijodkorlik faoliyatining ijtimoiy ahamiyati nihoyatda beqiyosdir.

Tarixda ko‘plab ijtimoiy harakatlar, uyg‘onish davrlari aynan ijodkorlarning g‘oyalari, asarlari orqali boshlangan. Ular xalqqa haqiqatni anglatgan, zulmga qarshi kurashga chorlagan, milliy g‘urur va oriyatni uyg‘otgan. Ayniqsa, mustamlaka davrida ijodkorlarning faoliyati xalqni birlashtirish, milliy ozodlik g‘oyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

Bugungi kunda esa ijodkorlik yangi bosqichga chiqmoqda, endilikda innovatsion g‘oyalar, texnologik yangiliklar, ilmiy kashfiyotlar orqali jamiyat taraqqiyoti jadallashmoqda. Sun‘iy intellekt, raqamli texnologiyalar, ijodiy tafakkur asosida yaratilayotgan mahsulotlar insoniyat hayot tarzini tubdan o‘zgartirmoqda. Demak, ijodkorlik faqat o‘tmish merosi emas, balki kelajak poydevoridir.

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olgʻa harakatlantiruvchi asosiy omil boʻlib kelgan. Shunday ekan, yosh avlodni ijodiy mehnatga oʻrgatish, uni oʻz zamonasining eng ilgʻor bilimlari bilan qurollantirish barcha davrlarda hamma xalqlar uchun eng dolzarb vazifa hisoblangan. Texnik ijodkorlik va dizaynni tashkil qilishda ikki oʻzaro bogʻliq vazifani eʼtiborga olish lozim. Ularning birinchisi, taʼlim oluvchilarga ijodkorlik faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilimlarni egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; ikkinchisi, oʻzlashtirilgan bilimlarni taʼlimda va amaliy faoliyatda mustaqil qoʻllay olishga oʻrgatish bilan belgilanadi.

Texnik ijodkorlik taʼlim oluvchilar egallayotgan bilimlarining mustahkamligi va mukammalligini taʼminlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa boʻljak mehnat taʼlimi oʻqituvchilarining fan asoslarini oʻzlashtirishida, keyinchalik bu jarayonga bevosita rahbarlikni amalga oshirishda ijodiy ishlar shakllarini ishlab chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorlikka boʻlgan ehtiyoj psixofiziologik jihatdan qaralganda, oʻz rivojlanishida bir nechta bosqichlarda amalga oshadi.

Bulardan birinchisi havas - ehtiyojning eng sodda shakli boʻlib, inson tomonidan ongli boshqariladi. Ikkinchi, nisbatan yuqoriroq rivojlanish bosqichi boʻlgan xohish ham inson tomonidan ongli boshqarilib, u shaxsning maʼlum buyum yoki hodisaga nisbatan munosabatlari majmuasini ifodalaydi. Uchinchi, eng murakkab bosqich boʻlgan qiziqish xohish va u bilan bogʻliq boʻlgan tushunchalar asosida yuzaga keladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi maʼnaviy ijodi nima uchun ahamiyatlidir?
2. Ushbu olimlarning ilm-fanga qoʻshgan hissalar Markaziy Osiyo va jahon madaniyatiga qanday taʼsir koʻrsatgan?
3. Al-Fargʻoniy, al-Xorazmiy, al-Forobiy va Ibn Sino asarlarining bugungi zamon ilm-faniga ahamiyati haqida fikringizni bildiring?
4. Temuriylar davrida ilm-fanning rivojlanishiga qanday omillar taʼsir qilgan?

5. Temuriylar davrining ilmiy va ijodiy yodgorliklari bugungi kunda qanday qadrlanadi?
6. Fan va texnika taraqqiyotining ijtimoiy hayotga ta'siri qanday namoyon bo'ladi?
7. Jamiyatda yangi texnologiyalar qabul qilinishining ijobiy va salbiy tomonlari nimalar?
8. Ijodkorlik faoliyati deganda nimani tushunasiz?
9. Ijodkorlik faoliyatining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni qanday

3-mavzu: O'zbekiston Respublikasida ilmiy texnik ijodkorlik faoliyatining me'yoriy asoslari.

Reja.

1. O'zbekiston Respublikasida ilmiy texnik ijodkorlikning rivojlanish tarixi.
2. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan kashfiyot va ixtirolar.

Tayanch so'z va iboralar: *O'zbekiston Respublikasida ilmiy texnik ijodkorlik faoliyatining me'yoriy asoslari, ilmiy texnik ijodkorlikni tartibga soluvchi qonunlar, patent qonuni, intellektual mulk huquqlari, ixtiro va foydali modellarni ro'yxatga olish, mualliflik huquqlari, litsenziyalash tartiblari, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot institutlari va tashkilotlar faoliyati.*

3.1. O'zbekiston Respublikasida ilmiy texnik ijodkorlikning rivojlanish tarixi.

O'zbekiston Respublikasida ilmiy texnik ijodkorlikning rivojlanish tarixi uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan, ilmiy-texnik ijodkorlikning ildizlari mamlakat hududida qadimiy davrlarga borib taqaladi, masalan, qadimgi So'g'diyona va Xorazm hududlarida temirchilik, paxta to'qish, shuningdek agrar texnologiyalar rivojlangan bo'lib, bu sohalardagi amaliy bilimlar xalqimizda asrlar davomida shakllangan va davom ettirilgan.

Sovet Ittifoqi davrida, ayniqsa XX asrning o'rta va ikkinchi yarmida, ilmiy-texnik faoliyat yangi bosqichga ko'tarildi, masalan, Toshkentdagi ilmiy-tadqiqot institutlari, jumladan O'zbekiston Fanlar akademiyasi markazlari, kimyo, fizika va mexanika sohalarida yirik ixtirolar amalga oshirdi, shu bilan birga sanoat korxonalarida

Mustaqillik yillarida ilmiy texnik ijodkorlik sohasida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi, masalan, 1994 yilda O'zbekiston Respublikasi "Patent to'g'risida" qonunni qabul qilgan, bu esa ixtirochilar va mualliflarning huquqlarini himoya qilishga asos yaratdi, shu davrda O'zbekiston xalqaro intellektual mulk tashkilotlariga a'zo bo'lib, dunyo ilmiy hamjamiyatiga integratsiyalashdi.

tejashga imkon berdi.



Bugungi kunda ilmiy texnik ijodkorlik O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri sifatida qaraladi, innovatsion rivojlanish strategiyasi asosida, masalan “Yoshlar innovatsion markazi” va

Davlat tomonidan berilayotgan grantlar va moliyaviy yordamlar ham ixtirochilarni rag'batlantirmoqda, masalan so'nggi yillarda yurtimizda 3D printerlar yordamida tibbiyotda yangi protezlar ishlab chiqilishi, avtomobilsozlikda energiya tejamkor motorlarning yaratilishi kabi loyihalar muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda.

Axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va yangi axborotni yaratish bilan shug'ullanuvchi texnologiyalarni kompyuterlar asosida joriy etish, ya'ni belgilangan faoliyat turini amalga oshiruvchi kompyuter va unda joriy etilgan dasturiy ta'minotni yuritish majmuasi yangi axborot texnologiyasi deb yuritiladi. Axborotlar davri hisoblangan bugungi kunda tarixda birinchi

marotabainsoniyat faoliyatining ko‘plab sohalari moddiy buyumlar bilan emas, balki axborotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Shu sababli, bugungi kunda yoshlarni axborot davrida yashash va ishlashga o‘rgatish, ularda axborotlarni yig‘ish, tartib va tahlil qilish, uni uzatish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning texnik ijodkorligi oldingi vaqtlarda individual xarakterga ega bo‘lgan. Maktabdan tashqari ishlar, texnik ijodkorlik to‘garaklari umuman bo‘lmagan. O‘quvchilarni qiziqtirgan ijodiy faoliyat turlari bilan o‘z xohish irodasi bilan uyda shug‘ullanganlar. O‘smirlarning texnik ijodkorligi faoliyati bilan shug‘ullanishni boshlanishi sobiq ittifoq tuzumi davriga mos keladi. O‘quvchi va yoshlar texnik ijodkorlik faoliyatini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: Birinchi 1920-yili mehnat maktabini paydo bo‘lishi, yoshlarni pioner tashkilotini tashkil qilinishi 1923-yili mamlakatni industrlashtirish.



Ilmiy texnik
taraqqiyotni ommaviy
tashviqot qilish 1926-
yili asosida maktabdan
tashqari ishlarni tashkil
qilishning yangi
shakllarini topish
1932-yili ulug‘ vatan
urushi boshlanishi
yillarida
o‘quvchilarning

zaruriy ishlab chiqarish ko‘nikmalarini egallash davri; Ulug‘ vatan urushining oxirgi yillarida ko‘p ishlab chiqarish ustaxonalarini qisqartirish; Politexnik ta‘lim va o‘quv ustaxonalarini tashkil qilinishi texnika bo‘yicha maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilinishga sabab bo‘ladi.

Xalq ta‘limini rivojlantirish va maktab bilan hayotni o‘zaro aloqasini mustahkamlashga qaratilgan qonun asosida yanada takomillashtirildi. 1960-yillari o‘quvchilarning ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo‘yicha maktab va maktabdan

tashqari tashkilotlarning ko‘rigi o‘tkazilishi munosabati bilan (1967 yil) yoshlarning ilmiy-texnik ijodkorligi ko‘riklarida ishtirok etish (1975 yil) yoshlarning ilmiy - texnikaviy ijodkorligining yagona davlat tizimining paydo bo‘lishi (1980 yil) bosqichlari mavjud.

3.2 Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan kashfiyot va ixtirolar.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan kashfiyot va ixtirolar jahon ilm-fani tarixida alohida o‘rin egallaydi, O‘rta Osiyo, xususan, hozirgi O‘zbekiston hududi qadimdan ilm-ma‘rifat markazi bo‘lib kelgan, bu yurtida yetishib chiqqan allomalar o‘z davrining eng ilg‘or ilmiy ishlanmalarini yaratgan, ularning asarlari faqat Sharq emas, balki butun dunyo tamadduniga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Mashhur alloma Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos solgan, u tomonidan yozilgan “Al-jabr val muqobala” asari orqali algebra mustaqil fan sifatida shakllandi, aynan uning nomidan “algoritm” atamasi kelib chiqqan, bu esa bugungi kunda informatika, dasturlash, kompyuter texnologiyalari asosini tashkil etadi.


Buyuk ensiklopedik olim Abu Rayhon Beruniy esa astronomiya, matematika, geografiya, dorishunoslik, geologiya va boshqa ko‘plab sohalarda o‘z davridan ancha ilg‘or ilmiy g‘oyalarni ilgari surgan, u Yerning aylanishi, Quyosh atrofida harakatlanishi, materiklarning joylashuvi va tabiiy resurslar haqida chuqur fikrlar bildirgan, uning ilmiy qarashlari keyingi asrlar olimlariga asos bo‘lgan.

Abu Ali ibn Sino esa tibbiyot fanining otasi sifatida tan olingan, uning “Tib qonunlari” asari asrlar davomida Yevropadagi tibbiyot universitetlarida asosiy darslik bo‘lib xizmat qilgan, Ibn Sino inson anatomiyasi, kasalliklarning sabablari, psixologik salomatlik va dori vositalarining xususiyatlari haqida ilmiy asosda ma‘lumot bergan, u birinchi bo‘lib ko‘plab kasalliklarni aniqlash va davolashda tajriba asosida yondashuvni ilgari surgan.

Buyuk astronom va hukmdor Mirzo Ulug‘bek tomonidan qurilgan Samarqand rasadxonasi o‘z davrining noyob ilmiy markazi bo‘lib, u o‘zining “Zij” asarida 1018 ta yulduzning aniq koordinatalarini hisoblab chiqqan, bu jadval zamonaviy texnologiyalar bilan tekshirilganda ham yuqori aniqligi bilan hayratga soladi, uning hisob-kitoblari asrlar davomida astronomlar uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Shuningdek, Ahmad al-Fargʻoniy nomi bilan tanilgan astronom Yerning shakli, oʻlchami, ekvator uzunligi haqida aniq ilmiy qarashlarni ilgari surgan, uning asarlari Yevropa olimlari tomonidan lotin tiliga tarjima qilinib oʻrganilgan.

Ajdodlarimiz orasida Al-Farobiy, Nosiriddin Tusi, Umar Xayyom, Ali Qushchi kabi allomalar ham bor boʻlib, ular matematika, falsafa, fizika, musiqashunoslik va boshqa fanlar rivojiga oʻz hissalarini qoʻshganlar, ular tomonidan yaratilgan asarlar va nazariyalar bugungi ilm-fan taraqqiyotining poydevori boʻlib xizmat qilmoqda.



Oʻlkamizdan azal-azaldan qanchadan-qancha mutafakkir, muhaddis, ensiklopedist, mutasavvif, faqih olimu fozillar yetishib chiqqan. Ular nafaqat oʻz vatanlari, balki boshqa oʻlkalarning ham rivoj-

ravnaqi, qayerda boʻlmasin, oʻsha joyning musulmonlarini islomni goʻzal anglab, uning goʻzalligini his etib, boshqalarga ham koʻrsata olishlari uchun ustozlik qilib kelganlar. Shuning uchun dunyoning qaysi davlatiga borsak bizni eng avvalo, ulugʻ bobolarimiz nomi bilan tanishadi va ularni eslashadi. Buyuk ajdodlarimiz oldida oʻzlarini goʻyoki qarzdordek his qilishadi. Bu bizga bir tomondan faxr, gʻurur bagʻishlasada, ikkinchi tomondan bizga ulkan masʼuliyatlarni yuklaydi. Ularga mos avlod boʻla olish bilan bir qatorda, ularning merosini oʻrganib, tadqiq etishimiz, ulardan yuksak darajada foydalanishimiz, boshqalarga oʻrgatishimiz hamda keying avlodlarga ham ularning, ham oʻzimizning maʼnaviy meroslarimizni yetkazishimiz bizning ayni paytdagi burchimizdir.

Barcha davrlarda bobolarimiz ilmning millat va davlat kelajagidagi oʻrnini juda yaxshi anglagan. Buning yorqin dalili sifatida muhaddislar sultoni — Imom Buxoriy bobomizning oʻn ikki asr oldin “Dunyoda ilmdan boshqa najot yoʻq va boʻlmagay” degan fikrlarini keltirish mumkin. Qadimdan qaysiki davlatda hukmdor olimu

ulamolarni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, o'sha yurt, albatta, ravnaq topgan. Xorazmdagi Ma'mun akademiyasi, Bag'doddagi "Bayt ul-hikma" yoki temuriylar davri ilm-fani o'z davrida rivojlanishning yuksak cho'qqisiga erishgan va hali-hanuz jahon ilm-fani rivojida asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ma'naviy ildizimiz bo'lmish yozma merosning tadqiqi va talqiniga xolisona yondashuv, boy tariximizning bizga ma'lum va noma'lum sahifalarini yoritishga, tabiiyki, mustaqillik yillarida imkon yaratildi. Keyingi yillarda manbalar tadqiqi va ularni saqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, Prezidentimizning 2017 yil 24 maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida O'zFA Sharqshunoslik instituti qadimiy qo'lyozmalarni o'rganish bo'yicha mamlakatimizdagi yetakchi ilmiy muassasa etib belgilandi.

O'rta asrlarda yashagan termizlik olimlar tomonidan islom ilmlari, tasavvuf, adabiyot va tibbiyot sohalari bo'yicha ta'lif etilgan 300 ta asarning 1419 ta ilmiy tavsifidan iborat "Termizlik olimlar asarlarining jahon fondlaridagi qo'lyozmalari" katalogi chop etildi.

Imom Termiziy markazining tashkil etilishi va respublikada termizlik olimlarning ilmiy merosini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan izlanishlarning faollashgani munosabati bilan Abu Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Xoja Samandar Termiziy, Adib Sobir Termiziy kabi olimlarning diniy, didaktik va adabiy mazmundagi asarlari ilk bor o'zbek tiliga ilmiy izohli tarjima qilinib, to shu kungacha 15 ta kitob shaklida e'lon qilindi.

Yozma meros yodgorliklarini targ'ib qilish maqsadida institut fondidagi Alisher Navoiy asarlarining XIV–XVI asrlardagi miniatyuralari va boshqa qo'lyozma kitob bezaklarini o'z ichiga olgan "Kitobat san'ati durdonalari" nomli kitob-albom nashr etildi. Nashr tadqiqot, miniatyuralarning o'zbek, ingliz, rus tillaridagi tavsiflari bilan ta'minlangan.

Institut fondida saqlanayotgan qo'lyozma merosni dunyo bo'ylab targ'ib qilish maqsadida "O'zbekiston madaniy merosi" ruknida "Aniq va tabiiy fanlar", "Islom,

falsafa va tasavvuf” hamda “Tarixiy asarlar va hujjatlar” nomli katalog-albomlar o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop qilindi.

Institut xodimlarining mustaqillik yillarida olib borgan tadqiqotlari natijalari asosida “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti nashrlari (1991–2018 yillar)” bibliografiyasi e‘lon qilindi. Unga 513 ta kitob va chet elda nashr etilgan 355 ta ilmiy maqola kiritilgan.

Bugungi kunda olim va mutafakkirlarimizning tarixiy merosini chuqur o‘rganish borasida Xorazm Ma‘mun akademiyasi, Mirzo Ulug‘bek astronomiya maktabi vakillarining ilmiy asarlarini nashr qilish ishlari ustida ham qizg‘in tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning ko‘p jildlik “Tanlangan asarlar” silsilasini to‘ldirish ishlarining davomi sifatida mazkur silsilaning 4-jildini tashkil qiluvchi, allomaning dorishunoslikka oid “Kitob us-saydana fit tib” (Tabobatda dorishunoslik) kitobining o‘zbek tiliga ilmiy izohli tarjimasi hamda shu silsilaning uchta astronomik risola o‘rin olgan yangi — 8-jildi nashr etilishi ko‘zda tutilgan. Abu Ali ibn Sinoga nisbat berilgan arab tilidagi “Qonuncha” asarining o‘zbek tiliga ilmiy izohli tarjimasi, Jamshid Koshiyning astronomiyaga oid “Ziji xoqoniy” asarining tanqidiy matni va tadqiqi tayyorlanadi.

Islomshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlar islom ilmlari bo‘yicha Burhoniddin Marg‘inoniyning hanafiy fiqhiga oid arab tilidagi “At-tajnis val mazid” (“Yangi qo‘shilgan masalalar”) asarining o‘zbek tiliga ilmiy izohli tarjimasi, Abu Hafs Nasafiyning arab tilidagi “Mashori’ ash-sharoi” (Fiqhiy masalalar) asarining asl matni nashr qilinadi. Institut fondidagi noyob nusxalarning nashri borasida Husayn Voiz Koshifiyning Alisher Navoiy uchun atalgan “Mavohibi Aliyya” nomli asari avtografi faksimile shaklida chop etilishi rejalashtirilgan.

Shu o‘rinda O‘zbekiston va O‘mon sultonligi o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar natijasida Sharqshunoslik instituti uchun qo‘lyozmalarni saqlash va tadqiq etishga mo‘ljallangan, jahon talablariga javob beradigan maxsus bino qurib berilganini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Bino qo‘lyozmalarni saqlash, ta’mirlash, raqamlashtirish uchun dunyo standartlaridagi jihozlar va boshqa moddiy-texnik baza bilan ta’minlangan.

Albatta, bu institut faoliyatini takomillashtirish va u yerdagi noyob xazinani zamon talablari asosida raqamlashtirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro jamoatchilikni allomalarimizning dunyo ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasi bilan tanishtirish, ilmiy markazlar hamda dunyoning yetakchi olimlarini mazkur yo'nalishdagi tadqiqot ishlariga jalb etish, beqiyos ma'naviy merosimizni ko'z qorachig'idek asrash hamda xalqaro miqyosda ommalashtirishga qaratilgan ishlar haqida so'zlab bersangiz.

Buyuk alloma va shoirlarimiz yaratgan asarlar nafaqat O'zbekiston, balki dunyo hamjamiyati madaniy merosi xazinasidan munosib o'rin egallagan. Manbalarning asosiy qismi O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida saqlanadi hamda u haqli ravishda YuNESKOning Madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan. Fondga IX–XX asrning birinchi yarmida yaratilgan turli soha va mazmundagi asarlar, hujjatlar jamlangan.

Shu sababli Sharqshunoslik instituti Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston tarixi, fani va o'tmish madaniyati bilan shug'ullanuvchi barcha xorijlik olimlarning eng muhim ilmiy dargohlaridan biriga aylangan. Institut qo'lyozmalari chet ellik olimlar olib borayotgan ilmiy izlanishlar uchun asosiy tarixiy manba vazifasini o'taydi. Ularning yakdil fikriga ko'ra, Markaziy Osiyoning haqqoniy tarixini institut jamg'armasidagi birlamchi asarlarsiz tasavvur etish mumkin emas.

“Uzbekistan Today” tashkiloti bilan hamkorlikda “O'zbekiston obidalaridagi bitiklar” kitob-albomining 13-jildi yaratildi. Unda vatanimizdagi me'moriy yodgorliklar tarixi hamda undagi turli mazmun va xat uslubida bitilgan matnlar talqini o'zbek, rus, ingliz tillarida taqdim etildi. Bu turkumdagi nashrlar nafaqat ilmiy-ommabop maqsadda foydalanish, balki turizmni rivojlantirishda ham qo'l kelmoqda. Sharqshunoslik instituti tegishli tashkilot bilan hamkorlikda “O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida” loyihasi doirasida “O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti to'plami” turkumida “Tarixiy asarlar va hujjatlar”, “Aniq va tabiiy fanlar”, “Badiiy adabiyot”, “Islom, falsafa va tasavvuf” va “Miniatyura va xattotlik namunalari” nomli kitob-albomlarni nashrga topshirdi. 2019 yili avgust oyida “O'zbekiston — buyuk yo'llar va

tamaddunlar chorrahasi: imperiyalar, dinlar, madaniyatlar” madaniy meros haftaligi doirasida mazkur besh jildlik kitob-albomlarning taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida institut 2017 yili dekabr oyida K.Kekelidze nomidagi Gruziya qo‘lyozmalar milliy markazi, 2019 yili iyun oyida Yaponiyaning Aichi san‘at universiteti, iyulida O‘mon Sultonligining Arxivlar boshqarmasi, sentyabr oyida Qozog‘iston Respublikasi Nodir qo‘lyozmalar va kitoblar milliy markazi bilan o‘zaro ilmiy hamkorlik to‘g‘risida memorandum imzoladi. Qo‘lyozmalar vaqt o‘tgani sari o‘z xususiyatini yo‘qotib boraveradi. Shu sababli ularni saqlash choralarini ko‘rish, faksimile nashrlarini tayyorlash, maxsus texnik jihozlar orqali qadimgi kitoblarning elektron shakllarini yaratish, raqamlashtirish zarur. Buning uchun esa fondida qo‘lyozma asarlar mavjud muassasalar moddiy-texnik bazasini boyitish kerak. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar xususida to‘xtalsangiz.

Ajdodlar qoldirgan bebaho qo‘l-yozmalarni ta‘mirlash sohasida yetarlicha malaka, tajriba va ko‘nikmaga ega restavratorlar tarafidan zararlangan qo‘lyozmalar, hujjatlar ta‘mirlanib, ularga ikkinchi hayot baxsh etilmoqda.

Respublikamizdagi o‘rta asr manbalarini ta‘mirlash jarayonini faollashtirish va sifatini oshirish maqsadida institut bazasida qo‘lyozmalarni saqlash va restavratsiyasi bo‘yicha xorijiy mutaxassislarning trening kurslari tashkil etilmoqda. Manbalar restavratsiyasi sohasida ilmiy tadqiqotlar ham o‘tkazilib, malakali mutaxassislarning ko‘p yillik tajribalari asosida O‘zbekistonda birinchi marta “Tarixiy hujjatlarning konservatsiyasi va restavratsiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma nashr etildi.

Chet ellik tadqiqotchilarga qulayliklar yaratish hamda xorijiy tashkilotlardagi biz uchun ahamiyatli qo‘lyozmalar bo‘yicha o‘zaro almashinuvni yo‘lga qo‘yish, qo‘lyozma va nodir manbalarni raqamlashtirish maqsadida eng nodir manbalarning raqamli nusxalari yaratilmoqda. Kelgusida bosqichma-bosqich barcha manbalarning elektron nusxalari yaratiladi. Bu esa nodir manbalarning umrini uzaytirishga xizmat qilish bilan birga, asarlarni boshqa xorijiy markazlarga tanishtirish va ular bilan o‘zaro almashuvini yo‘lga qo‘yish imkoniyatini yaratadi.

Germaniyaning Gerde Xenkel fondi bilan hamkorlikda Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan qo‘l-yozmalarning ingliz tilidagi elektron katalogi yaratildi. Bu katalogdan bugungi kunda dunyoning xohlagan joyidan turib foydalanish mumkin.

Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida yurtimiz hududidan yetishib chiqqan yetuk daholarning betakror merosini chuqur o‘rganish, ularni doimiy harakatdagi qo‘llanmaga aylantirish borasida qanday ishlarni amalga oshirish zarur? Shu bilan birga, bugungi kunda O‘zbekistonda yangi Renessans poydevorini yaratish uchun qanday imkoniyatlar mavjud, deb o‘ylaysiz?

Mamlakatimiz rahbari -O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida “O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik”, deb aytdi. Shubhasiz, bu Uyg‘onish — Uchinchi Renessansda yurtimiz hududidan yetishib chiqqan mutafakkirlarning betakror merosini chuqur o‘rganish, uni doimiy harakatdagi qo‘llanmaga aylantirishning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Darhaqiqat, IX–XI asrlarda Movarounnahrda nafaqat musulmon ma’naviy madaniyati rivojlandi, balki aniq va tabiiy fanlar, ayniqsa, matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, tilshunoslik, mumtoz musiqa, tasviriy san’at, turkiy adabiyotning asoslari yaratildi. Shuning uchun bu davr haqli ravishda Birinchi Uyg‘onish davri deb e’tirof etiladi.

Ana shu davrning mahsuli sifatida X asrning oxiri — XI asrning boshlarida Xorazm Ma’mun akademiyasi paydo bo‘ldi.

Amir Temur davlatining yuzaga chiqishi nafaqat Movarounnahr, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va adabiyoti, ilmu fanining yuksalishi uchun qulay sharoit yaratdi. Bu davlatning ravnaqi tufayli ona yurtimizda ikkinchi madaniy yuksalish sodir bo‘ldi.

O‘lkamizdagi “Oltin davr” deb yuritiladigan ikkinchi madaniy yuksalish haqida gapirganda, ko‘z oldimizda nomi ilmu ma’rifat osmonida yorqin yulduz kabi porlagan Mirzo Ulug‘bek siymosi hamda u bunyod etgan Samarqand rasadxonasi va akademiyasi, ularda faoliyat yuritgan benazir olimlar gavdalanadi.

Amir Temur va temuriylar davri me'morchiligi namunalari, xususan, Samarqanddagi Shohi Zinda, Go'ri Amir va Registon majmualari jahon me'morchiligi durdonalari qatorida e'tirof etilgan.

Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ulkan ilmiy-ma'naviy meros keyinchalik jadidlar deb atalib, nomlari dunyoga tanilgan ko'plab ilm-fan, adabiyot va madaniyat arboblarning yetishib chiqishiga mustahkam zamin bo'lib xizmat qildi.

Buning ma'nosi shuki, tarixiy sharoitlar qanday bo'lganidan qat'i nazar, xalqimizga xos ulug' qadriyatlardan biri — ma'naviy vorisiylik an'anasi hech qachon uzilib qolmagan. Prezidentimizning tantanali marosimda so'zlagan nutqi ma'naviy-madaniy hayotimizdagi ana shunday burilish nuqtalaridan biri sifatida qaralishi va mamlakatimiz madaniy-ma'naviy hamda ilmiy-texnik taraqqiyotining navbatdagi bosqichi dasturi sifatida qabul qilinishi lozim.

Bugun xalqimizning keng muhokamasiga taqdim etilgan -Prezidentimizning "Mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni loyihasida buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy va madaniy merosini nashr etish, keng omma va yosh avlodga sodda, tushunarli shakllarda yetkazish bo'yicha maxsus chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, ularning amaliyotga tatbiq etilishi xalqimizni o'tmishning bebaho merosi va madaniyati durdonalari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. O'zbekiston hududida ilmiy-texnik ijodkorlikning dastlabki bosqichlari qachon boshlangan deb hisoblanadi?
2. Ilmiy-texnik taraqqiyot O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?
3. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan mashhur kashfiyotlardan uch tasini sanab bering
4. Qadimgi o'zbek olimlarining ixtirolari ilm-fan rivojiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
5. Ajdodlarimiz tomonidan yozilgan qaysi ilmiy asarlar hali ham zamonaviy fanda qo'llaniladi?

4-Mavzu: Ijodkorlik faoliyatini va ixtirochilikning innovatsion potentsiali.

Reja:

1. Ijodkorlik faoliyatini va ixtirochilikning innovatsion potentsiali.
2. Respublikamiz ta'lim tizimida ilmiy -texnika ijodkorligini rivojlantirish yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlar.

Tayanch so'z va iboralar: *Ijodkorlik, faoliyat, ixtirochilik, innovatsion, potentsial, yangilik, kreativlik, texnologiya, rivojlanish, g'oya, innovatsiya, tadqiqot, kashfiyot, amaliyot, muammo, yechim, ilm-fan.*

4.1. Ijodkorlik faoliyatini va ixtirochilikning innovatsion potentsiali.

Ijodkorlik — bu inson tafakkurining eng yuqori ko'rinishlaridan biri bo'lib, u orqali yangi g'oyalar, mahsulotlar, yechimlar va jarayonlar yuzaga keladi. Ijodkorlik faoliyati shunchaki yangi narsani o'ylab topish emas, balki mavjud bilim, tajriba va resurslarni birlashtirib, ularni amaliy natijaga aylantirish jarayonidir. Ushbu faoliyat har qanday sohada, xususan ilm-fan, texnologiya, san'at, muhandislik va ishlab chiqarishda muhim o'rin tutadi.



Ixtirochilik esa ijodkorlikning amaliy ifodasidir. U yangi qurilmalar, usullar, moddalar, tizimlar yoki jarayonlarni yaratish bilan bog'liq bo'lib, jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan

biridir. Har bir ixtiro zamirida insonning muammoni hal qilishga, hayotni qulaylashtirishga, resurslardan oqilona foydalanishga bo'lgan intilishi yotadi. Ixtirochilik nafaqat mavjud muammolarga innovatsion yechimlar taklif etadi, balki yangi ehtiyoj va bozorlarga ham yo'l ochadi.

Innovatsion potentsial — bu biror shaxs, jamoa yoki mamlakatning yangilik yaratish va uni amaliyotga tadbiq etish qobiliyatidir. Ijodkorlik va ixtirochilik ushbu potentsialning asosiy poydevorlaridir. Innovatsion potentsialni aniqlashda nafaqat

mavjud bilim va texnologiyalar, balki ijtimoiy-iqtisodiy muhit, ta'lim sifati, tadbirkorlik muhiti, ilmiy-tadqiqot institutlarining faolligi ham muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy davrda innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning, raqobatbardoshlikning va barqaror rivojlanishning kalit omiliga aylangan. Shu bois, davlatlar va yirik kompaniyalar ixtirochilik va ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun katta mablag' va resurslar sarflamoqda. Yaratilgan yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalar esa global bozorni o'zgartirib, hayot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, ta'lim tizimida ham ijodkorlik va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarga yangicha qarashga va o'z g'oyalarini ilgari surishga o'rgatish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Ijodkorlik faoliyati insonning yangi, noyob g'oyalar, tushunchalar va yechimlar yaratish jarayonidir, bu jarayonda shaxs o'z bilimlari, tajribasi va tasavvuridan foydalangan holda mavjud muammolarga innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqadi. Masalan, mashhur ixtirochi Tomas Edisonning elektr lampochkasini yaratishi — bu ijodkorlikning yorqin namunasidir; u ko'plab sinov va xatolardan o'tar ekan, yangi va samarali yoritish vositasini yaratdi. Ijodkorlik nafaqat san'at sohasida, balki ilm-fan, texnologiya, ta'lim va iqtisodiyotda ham katta ahamiyatga ega, chunki u jamiyat taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biridir.

Ixtirochilik esa ijodkorlikning amaliy ko'rinishi bo'lib, u yangi texnika vositalari,



uskunalar, mahsulotlar va texnologiyalarni yaratish, shuningdek mavjud texnologiyalarni takomillashtirishga qaratilgan faoliyatdir. Misol uchun, Aleksandr Graham Bell telefon ixtirosi bilan insonlar o'rtasidagi masofaviy aloqa imkoniyatlarini butunlay o'zgartirdi. Ixtirochilar o'zlarining yangi yondashuvlari orqali ishlab chiqarish

jarayonlarini soddalashtiradi, samaradorligini oshiradi va insonlar hayot sifatini yaxshilaydi.

Innovatsion potensial shaxs, tashkilot yoki jamiyatning yangi g'oyalar va texnologiyalar yaratish, ularni muvaffaqiyatli joriy etish va rivojlantirish qobiliyatidir. Misol uchun, Tesla kompaniyasining elektr avtomobillarini yaratishdagi muvaffaqiyati, ularning innovatsion potensialining yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu potensialning yuqori darajasi ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi, ta'lim darajasi, moliyaviy va texnik resurslar, ijtimoiy-madaniy muhit hamda risklarni qabul qilishga tayyorlik bilan belgilanadi. Shuningdek, innovatsion potensial ijodkorlik va ixtirochilik faoliyatining samaradorligini ta'minlab, yangi mahsulotlar va xizmatlarning bozorda muvaffaqiyat qozonishiga zamin yaratadi.

Ijodkorlik va ixtirochilikning rivojlanishi uchun shaxslarning bilim va ko'nikmalarini doimiy oshirib borish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish, erkin fikrlash va yangi g'oyalarni ilgari surish uchun sharoitlar yaratish muhimdir. Masalan, Apple kompaniyasining yangi mahsulotlarini yaratishda ilmiy-tadqiqotlarga katta sarmoya kiritishi va innovatsion madaniyatni shakllantirishi ularning bozordagi yetakchiligini ta'minlaydi. Shuningdek, innovatsion muhitda raqobat va hamkorlikning uyg'unlashuvi ijodkorlikning yanada rivojlanishiga turtki beradi.

Ijodkorlik faoliyati va ixtirochilik innovatsion taraqqiyotning asosiy omillari bo'lib, ularning rivojlanishiga yo'l ochadigan innovatsion potensial jamiyat va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlarning innovatsion potensialni rivojlantirishga qaratilgan siyosati ularning global iqtisodiy kuchga aylanishiga yordam berdi. Bu esa uzoq muddatli barqaror taraqqiyot va farovonlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimida innovatsiya va ijodkorlik, tanqidiy-tahliliy fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini tarbiyalash old planga chiqdi. Bu orqali yoshlarga fuqarolik mas'uliyati va tuyg'usini singdirish, bugun va kelajak avlodlar farovonligiga hissa qo'shuvchi to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini

shakllantirishga erishish mumkin. Boisi, axborot tizimi shiddat bilan rivojlanayotgan, yoshlar ma'naviyati va kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ko'plab g'ayriinsoniy g'oyalar va mafkuralar atrofimizni o'rab olgan bir davrda davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq

4.2 Respublikamiz ta'lim tizimida ilmiy -texnika ijodkorligini rivojlantirish yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlar.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ilmiy-texnika ijodkorligini rivojlantirish bo'yicha qator keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda, bu yo'nalish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda, ayniqsa, yoshlarning ilm-fanga, texnika va innovatsiyalarga qiziqishini oshirish, ularning tafakkurini rivojlantirish, ixtirochilik va texnik loyihalar yaratishga yo'naltirilgan salohiyatini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etmoqda, ta'lim tizimining har bir bo'g'inida bu borada alohida e'tibor berilmoqda.

Umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar maktablari va oliy o'quv yurtlarida texnik va innovatsion yo'nalishdagi fan to'garaklari faoliyat yuritmoqda, bular jumlasiga robototexnika, mexatronika, dasturlash, muhandislik, 3D modellashtirish, sun'iy intellekt asoslari kabi to'garaklar kiradi, bu to'garaklarda o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ular real loyihalar ustida ishlashni o'rganmoqda.

Har yili yurtimizda yoshlar o'rtasida turli ilmiy-texnik tanlovlar, startup ko'rik-tanlovlari, "TechnoWays", "Future Skills", "Ilm-fan yulduzlari" kabi musobaqalar o'tkazilmoqda, bu tanlovlar orqali yoshlarning ixtirochilik qobiliyatlari namoyon bo'lmoqda, ularning eng yaxshi ishlanmalari xalqaro ko'rgazmalarda namoyish qilinmoqda, g'oliblar esa moddiy va ma'naviy rag'batlantirilmoqda, shuningdek, Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan grantlar ajratilishi ham qo'llab-quvvatlashning muhim shakli hisoblanadi.

Hududlarda tashkil etilgan IT Parklar, Yoshlar texnoparklari va innovatsion markazlar yoshlar uchun startap loyihalarni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va tijoratlashtirish imkoniyatlarini yaratmoqda, bu markazlar zamonaviy uskunalar, 3D printerlar, dasturlash muhiti va laboratoriyalar bilan jihozlangan, yoshlar bu yerda o'z ilmiy g'oyalari asosida real mahsulotlar yaratmoqda, bu esa ta'lim va sanoat integratsiyasini ta'minlashda muhim qadam bo'lmoqda.

Xalqaro hamkorlik doirasida bir qator oliy ta'lim muassasalari xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda qo'shma ilmiy loyihalar olib bormoqda, shuningdek, "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali iqtidorli yoshlar chet elda tahsil olib, zamonaviy texnologiyalar va ilmiy uslublarni o'zlashtirmoqda, bu bilimlar yurtimizga qaytib kelgach, mahalliy ta'lim va ilmiy muhitni yangilashga xizmat qilmoqda, ayniqsa, AKT, muhandislik va texnik yo'nalishlarda bu hamkorliklar muhim natijalar bermoqda.

Shuningdek, o'qituvchilarning malakasini oshirish orqali ular tomonidan o'quvchilarga berilayotgan bilim sifati oshirilmoqda, zamonaviy metodikalar – STEAM, dizayn-o'ylash, loyiha asosida o'qitish kabi yondashuvlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda, bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va muammo yechishga qaratilgan kompetensiyalarini shakllantirishda yordam bermoqda.

Albatta, bu borada ayrim muammolar ham mavjud, xususan, ba'zi ta'lim muassasalarida texnik jihozlar va laboratoriyalar yetarli emas, ba'zida o'quv dasturlar zamonaviy texnologiyalarga moslashtirilmagan, ammo hukumat tomonidan ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha aniq reja va chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, texnoparklar soni oshirilmoqda, yangi o'quv uskunalari xarid qilinmoqda, pedagogik malaka oshirish kurslari tizimli yo'lga qo'yilmoqda.

Kelgusida ilmiy-texnika ijodkorligini yanada rivojlantirish uchun har bir hududda startap markazlari tashkil etish,



barcha maktablarda STEAM ta'limini joriy etish, yosh olimlar va ixtirochilarning xalqaro grantlarda ishtirokini rag'batlantirish, ilmiy ishlanmalarni sanoat korxonalari bilan bog'lash, texnik ijodkorlik natijalarini tijoratlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni kengaytirish re mamlakatimizning ilm-fan va innovatsiyalar yo'lida jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.jalashtirilgan, bu esa mamlakatimizning ilm-va fan innovatsiyalar yo'lida jahon miqiyosida raqobatdoshliginimoshirishga xizmat qiladi?

O'zbekiston Respublikasining Davlat patent idorasi «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida»gi Qonunga muvofiq sanoat mulki ob'yektlarini muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi. Patent idorasi sanoat mulk ob'yektlarga talabnomalarini ko'rib chiqish uchun qabul qiladi, ular bo'yicha davlat ilmiy texnik ekspertizasini o'tkazadi, ularni davlat ro'yxatiga oladi, ushbu Qonunning qo'llanishiga oid qoidalar va tushuntirishlarni ishlab chiqadi hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Patent idorasi to'g'risidagi Nizomga muvofiq boshqa vazifalarni bajaradi. Patent idorasining faoliyatini mablag` bilan ta'minlashning manbai Davlat byudjeti mablag`idan patent bojlaridan, shuningdek, Patent idorasi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar va beriladigan materiallar uchun olinadigan haqdan iboratdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Ijodkorlik nima ?
2. Innovatsion potensial iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir qiladi?
3. Ilmiy-texnika ijodkorligini rivojlantirish qanday yo'nalishda amalga oshirilmoqda?
4. O'zbekistonda yoshlar o'rtasida qaysi ilmiy-texnik tanlovlar o'tkaziladi?
5. Yoshlarning ilm-fanga, texnika va innovatsiyalarga qiziqishini oshirish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
6. Patent idorasining ilmiy-texnika sohasidagi ixtirolarga ta'siri qanday?

5-mavzu: Ijodkorlik faoliyatining psixofiziologik xususiyatlari.

Reja:

1. Ijodkorlik g'oyalarining inson ongidagi evolutsiyasi .
2. Ixtirolar yaratilishidagi psixologik bosqichlar.
3. Ijodkorlikning produktiv va reproduktiv faoliyat turlari bo'yicha amalga oshirilish davrlari .
4. Ijodkorlik bilim, ko'nikma malakalari.

Tayanch so'z va iboralar: *Ijodkorlik, psixofiziologiya, ijodiy fikrlash, nevropsixologik jarayonlar, motivatsiya, tasavvur, fantaziya, diqqat, ongning faolligi, stress, ijodkorlik va stress bog'liqligi, dominant yarim shar, ijodiy krizis, ilhom, temperament, xarakter, kreativ muhit, emotsional intellekt.*

Ijodkorlik — bu insonning yangi, noyob g'oyalar, tushunchalar, usullar, mahsulotlar va yechimlar yaratish qobiliyatidir, insoniyat taraqqiyotining muhim drayverlaridan biri bo'lib, madaniyat, fan, texnika va san'at sohalarida innovatsiyalarni yuzaga keltiradi. Ijodkorlik g'oyalari inson ongida uzoq va murakkab evolutsion jarayon natijasida paydo bo'lgan, bu jarayon insonning biologik, psixologik va madaniy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ijodkorlik turli sohalarda namoyon bo'lishi mumkin: san'at, fan, texnologiya, adabiyot va boshqalar. U inson tasavvurini, tasavvurini va muammolarni hal qilishdagi innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. 345

Inson evolyutsiyasi davomida odamlar atrof-muhitni o'zgartirish va moslashish usullarini o'rganganlar. Bu evolyutsiya inson ongida ijodiy g'oyalar va tushunchalarning rivojlanishini aks ettiradi.

Ijodkorlikning ildizlari inson miyasi va uning murakkab tuzilishida yotadi, millionlab yillar davomida inson miyasi rivojlanib, ayniqsa prefrontal korteksning rivojlanishi ijodiy fikrlashning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Ushbu soha — rejalashtirish, abstrakt fikrlash, muammolarni hal qilish, yangi g'oyalarni yaratish uchun javobgar hisoblanadi. Odamzodning dastlabki bosqichlarida ijodkorlik — asosan hayot uchun zarur bo'lgan yangi qurol-uskunalar yaratish, yashash sharoitlarini

yaxshilash kabi amaliy ehtiyojlar bilan bog‘liq edi, masalan, tosh asboblarni yasash, olovdan foydalanish texnologiyasini kashf etish kabi

Ijodkorlikning rivojlanishida juda muhim vosita bo‘ldi, til orqali inson o‘z fikrlarini boshqalarga yetkazishi, fikrlarni tahlil qilishi va yangi g‘oyalarni shakllantirishi mumkin bo‘ldi. Abstrakt fikrlashning rivojlanishi insonning murakkab tushunchalar va kontseptlarni yaratishiga imkon berdi. Ushbu jarayonda insonda yangi tushunchalar, san‘at asarlari, diniy e‘tiqodlar paydo bo‘ldi, masalan, qadimgi madaniyatlarda rasm chizish, haykaltaroshlik, musiqa va raqs shakllari — bular ijodkorlikning dastlabki ko‘rinishlari edi.

Inson jamiyatda yashashi bilan ijodkorlik shaxsiy qobiliyat sifatida emas, balki madaniyat va jamiyatning rivojlanishida ommaviy kuchga aylandi, bilim va tajriba avloddan-avlodga o‘tib, doimiy yangilanib bordi. Madaniy evolyutsiya natijasida ijtimoiy tashkilotlar, ilmiy yutuqlar, texnologik kashfiyotlar yuzaga keldi, masalan, dehqonchilik, temirchilik, yozuvning kashf qilinishi insoniyatning texnologik va ma‘naviy taraqqiyotini tezlashtirdi.

Bugungi kunda ijodkorlik shaxsiy fikrlashdan tortib, global innovatsiyalar va texnologiyalar yaratishga qadar kengaygan, inson ongida ijodkorlik faqat san‘at bilan cheklanmay, ilm-fan, texnika, biznes, ta‘lim va boshqa sohalarda ham muhim o‘rin tutadi. Kompyuterlar, sun‘iy intellekt, internet kabi texnologiyalar inson ijodkorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda, bu jarayonda ijodkorlik ko‘proq muammolarni hal qilishga qaratilgan, shuningdek, jamoaviy ishlash va kollektiv tafakkur orqali yangi g‘oyalar yaratish imkoniyatlari kengaymoqda.

Motivatsiya — ijodkorlik rivojlanishi uchun insonning o‘zini ifoda etish, yangilik yaratish istagi, qiziqish va mustaqillik motivlari muhimdir. Bilim va tajriba — yangi g‘oyalar ko‘pincha mavjud bilim va tajriba asosida shakllanadi, inson tajribasi va bilim darajasi ijodkorlik darajasiga ta‘sir qiladi. Atrof-muhit ta‘siri — rivojlangan ta‘lim tizimi, erkin fikr almashish muhiti, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash ijodkorlikni kuchaytiradi. Muammolarni hal qilish — ijodkorlik ko‘pincha yangi muammolar paydo bo‘lganda va ularga noodatiy yechimlar kerak bo‘lganda yuzaga keladi.

Ijodkorlik g'oyalari texnologik taraqqiyot jarayonida asosiy rol o'ynaydi, masalan, sanoat inqilobi, axborot texnologiyalari, biotexnologiyalar kabi yutuqlar ijodkorlik natijalaridir. Bugungi kunda esa sun'iy intellekt va robototexnika sohalarida yangi ijodkorlik imkoniyatlari kengaymoqda.

Evolyutsiya organizmlar guruhidagi xususiyatlarning avlodlar davomida qanday o'zgarishini o'rganadi. Inson evolyutsiyasida olimlar zamonaviy odamlar yo'q bo'lib ketgan odamga o'xshash turlar va primatlardan paydo bo'lgan deb taxmin qilishadi. Bu o'zgarishlar millionlab yillar davom etadi. Inson evolyutsiyasi tushunchasi tabiiy tanlanish tamoyili atrofida aylanadi. U taniqli tabiatshunos Charlz Darvin tomonidan kiritilgan. Tabiiy tanlanish organizmning genetik tarkibining vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini anglatadi. Bu unga atrof-muhitga yaxshiroq moslashish imkonini beradi. Darvin inson evolyutsiyasi sohasida kashshof edi. Uning nazariyalaridan muhim tushuncha Yerdagi barcha hayot shakllarining umumiy kelib chiqishidir.

Maymunlardan odamlarga o'tish ikki oyoqda yurish yoki ikki oyoqda yurishni qabul qilish bilan boshlandi. Sahelanthropus tchadensis deb ham ataladigan odamlarning ajdodlari bu o'tishni taxminan 6 yil oldin boshlagan. Homo sapiens, barcha zamonaviy odamlar tegishli bo'lgan tur, bu o'tishdan taxminan 5 million yil o'tgach paydo bo'lgan. Insoniyat evolyutsiyasining bu uzoq davri davomida turli xil inson turlari gullab-yashnadi, rivojlandi va oxir-oqibat vafot etdi.

Umuman olganda, inson evolyutsiyasi millionlab yillar davom etadigan murakkab va doimiy jarayondir. Bu turimizdagi turli belgilar va xususiyatlarning bosqichma-bosqich rivojlanishini o'z ichiga oladi.

5.2. Ixtirolar yaratilishidagi psixologik bosqichlar.

Ixtirolar inson tafakkurining eng yuqori bosqichdagi mahsulidir, ular insonning ijodiy imkoniyatlari, mantiqiy fikrlashi, tajriba va bilimlariga asoslanib yuzaga keladi. Har qanday ixtiro ma'lum bir jarayon asosida paydo bo'ladi, bu jarayon esa bir nechta psixologik bosqichlardan iborat bo'lib, ularning har biri insonning ruhiy holati, tafakkur darajasi va ichki motivatsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ixtiro – bu talabchanlik, nozik ta'blik yoki «aql o'yini» emas, balki inson faoliyatini yangi, uning uchun qulayroq bo'lgan vaziyatga olib chiquvchi taraqqiyot yo'lidir.

Yaratuvchanlik va ixtiro jarayoni tasodifiy hodisa emas, balki inson ongi va ongsizligida sodir bo‘ladigan muayyan psixologik bosqichlardan iborat mantiqiy ketma-ketlikdir. Ushbu jarayonni to‘rtta asosiy bosqichga ajratish mumkin.

Birinchidan, tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, unda muammo aniqlandi va shu sohaga oid barcha zarur ma’lumotlar diqqat bilan o‘rganiladi, muammo har tomonlama tahlil qilinadi, turli echimlar izlanadi. Bu bosqichda shaxs faol, ongli va intellektual mehnat bilan shug‘ullanadi, ko‘pincha, uzoq vaqt davom etadi va ba’zan charchoq, umidsizlik hissi bilan ham birga kelishi mumkin.

Ikkinchidan, inkubatsiya bosqichi boshlanadi, bu yerda muammoni ongli ravishda hal qilishga urinishlar to‘xtatiladi, shaxs muammo haqida qasdan o‘ylamaydi, boshqa ishlar bilan shug‘ullanadi yoki dam oladi. Tashqi tomondan, hamma nisha tinch ko‘rinadi, ammo aslida ongsiz miya faoliyati davom etadi, ma’lumotlar qayta ishlanadi, aloqalar izlanadi va yangi g‘oyalar shakllana boshlaydi.

Uchinchidan, yelkalamish bosqichi sodir bo‘ladi, bu eng dramatik va lahzali bosqich hisoblanadi, to‘satdan, ko‘pincha kutilmagan paytda, masalan, dam olayotganda, yurayotganda yoki hushyor holatda bo‘lmaganda, muammoning yechimi yorqin, aniq va to‘liq shaklda ong sathiga chiqadi. Bu “Aha!”, “Topdim!” degan lahzadir, bu psixologlar tomonidan “insayt” yoki “tushunib yetish” deya ataladi.

To‘rtinchidan, tasdiqlash bosqichi keladi, bu yerda yorqin vahiydan keyin, g‘oya amalga oshiriladi, sinovdan o‘tkaziladi, takomillashtiriladi va ishchi holatga keltiriladi. Bu bosqichda yana ongli, mantiqiy fikrlash va qat’iy mehnat talab etiladi, chunki dastlabki vahiy har doim ham to‘liq yoki to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin.

Insondagi ana shu ijodkorlik, ixtirochilik sifatlari uni tabiat kuchlari bilan raqobatni engib, yangi – tafakkur qobiliyatining shakllanishiga zamin yaratdi. Inson ehtiyojlarining o‘sib borishi jarayonida uning tomonidan qo‘llaniladigan mehnat qurollari ham murakkablashib, takomillashib borgan. Insoniyat taraqqiyoti o‘z yo‘lida yutuqlar bilan birga ko‘plab muammolarni ham keltirib chiqargan. YAqin o‘tmishga qadar esa bu muammolar Faqat bitta usul – amal va xato metodi orqali halq ilib kelingan. Bu usul minglab xato echimlarichida bitta to‘g‘risini topishga qaratilgan bo‘lsa-da, uning vositasida elektr dvigatellari va generatorlar, ichki yonuv dvigateli,

Har qanday yangilik ham ixtiro bo‘lavermaydi. Masalan, quruq ilmiy qoidalar, xususan, kashfiyotlar, amalga oshirib bo‘lmaydigan va xato takliflar (masalan, abadiy dvigatel yaratish haqidagi takliflar) ixtiro hisoblanmaydi. Hal qilinadigan masala faqat nazariy emas, balki amaliy ehtiyojlarni qondiradigan bo‘lishi lozim. Ixtiro qonun bilan muhofazalangan davlatlarda har bir taklifning ixtiro bo‘lish shartlari belgilanadi. Bu shartlardan asosiysi masalaning eng yangi hisoblangan texnik yechimidir. Muayyan taklifni ixtiro deb hisoblash uchun undan bir necha marta foydalanish imkoni ham bo‘lishi kerak. Ixtironing yangiligi, ya’ni birinchi ekanligi (ko‘pincha, ixtirochilikka oid tashkilotlarga berilgan hujjat — ariza sanasi) oldin berilgan mualliflik guvohnomalari va patentlar, ixtirolar e‘lon qilinadigan tegishli adabiyotlar, ko‘rgazmalarda namoyish qilingan eksponatlar va boshqaga muvofiq, aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ixtirochi bo‘la olish shartlari va uni tasniflash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1994-yilda tasdiqlangan „Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari haqida“gi qonunda belgilangan. Ixtiro bo‘yicha talabnomalarni ekspertiza qilish, mualliflik guvohnomasi va patent berish ishlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi tomonidan amalga oshiriladi.

Dunyoni o‘zgartirgan ixtirolardan biri bu – kompyuter. Olimlar o‘tgan asrning 50 yillarida yaratgan, dastlabki kezlarda bahaybat mashinaga o‘xshash bo‘lgan “kompyuter”ning asosiy vazifasi kosmik uchish traektoriyasini aniq hisoblab borish edi. Bu ixtironi dastlab hisoblash mashinasi deb atashdi. Axborot texnologiyalari bo‘yicha 230 dan ortiq ixtiroga patent olgan Stiv Jobs kompyuter dahosi, afsonaviy odam degan nom oldi. Uning dahosi tufayli faqat portativ kompyuterlar emas, iPod pleeri mobilne iPhone mobil telefonlari ham yaratildi.

Kosmik korabllar va sun‘iy yo‘ldoshlarning uchish traektoriyasini, ularning kosmosga ko‘tarilish tezligini to‘g‘ri hisoblash, er qa‘ridagi dolg‘alarni o‘rganish, tabiiy falokatlar sodir bo‘lishini oldindan aniqlash va tabiatda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni kuzatib borish, foydali konlarni izlab topish, atom stansiyalari ishini

nazorat qilib borish – ana inson kompyuterni ixtiro qilgandan so`ng qo`lga kiritgan yutuqlarning arzimagan qismi.

5.3. Ijodkorlikning produktiv va reproduktiv faoliyat turlari bo'yicha amalga oshirilish davrlari .

Ijodkorlik bu inson tafakkurining yuqori darajasini ifodalovchi faoliyat bo'lib, u orqali yangi g'oyalar, mahsulotlar, usullar yoki yondashuvlar yaratiladi, ijodiy faoliyat ikki asosiy shaklga ega bo'lib, ular produktiv va reproduktiv faoliyatlardir, produktiv ijodkorlik yangi va original narsalarni yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, unda ilgari mavjud bo'lmagan mahsulot yoki g'oya paydo bo'ladi, bu faoliyatda inson mustaqil fikrlaydi, yangilik kiritadi va mavjud tajribalarni yangicha talqin qiladi, reproduktiv ijodkorlik esa mavjud bilim, usul va tajribalarni takrorlash va qayta qo'llash orqali amalga oshiriladi, u o'rganilgan bilimlarni eslab qolish, tushunish va ulardan yangi vaziyatlarda foydalanish imkonini beradi, ijodiy faoliyat muayyan bosqichlar asosida rivojlanadi, bu bosqichlar tayyorgarlik, inkubatsiya, ilhom, tekshirish va amaliyotga joriy etish bosqichlaridan iborat, tayyorgarlik bosqichida inson muammoni tushunishga harakat qiladi va kerakli ma'lumotlarni yig'adi, inkubatsiya bosqichida muammo ustida bevosita ishlash to'xtaydi, biroq ong ostida g'oya shakllanadi.

Ilhom bosqichida esa yangi g'oya birdan yuzaga keladi, bu bosqichda produktiv ijodkorlikning roli kuchayadi, tekshirish bosqichida paydo bo'lgan g'oya tahlil qilinadi va amaliy jihatdan baholanadi, amaliyotga joriy etish bosqichida esa bu g'oya hayotga tatbiq qilinadi. Har bir bosqichda reproduktiv va produktiv faoliyatlar turlicha darajada ishtirok etadi, reproduktiv faoliyat ko'proq tayyorgarlik va tekshirish bosqichlarida namoyon bo'lsa, produktiv faoliyat inkubatsiya va ilhom bosqichlarida asosiy rol o'ynaydi, ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun mustaqil fikrlashni rag'batlantirish, yangi g'oyalarni muhokama qilish, tanqidiy va divergent fikrlashni rivojlantirish, interaktiv metodlardan foydalanish muhimdir, shuningdek, san'at, adabiyot, ilm-fan sohalarida faol ishtirok etish ham ijodkorlikni kuchaytiradi, pedagogik jarayonda har bir shaxsning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bunda

o'quvchi yoki talabani erkin fikrlashga yo'naltirish, yangi g'oya yaratishga undash muhim vazifadir.

Ijodkorlik bu inson tafakkurining yuqori darajasini ifodalovchi faoliyat bo'lib, u orqali yangi g'oyalar, mahsulotlar, usullar yoki yondashuvlar yaratiladi. Ijodiy faoliyat ikki asosiy shaklga ega bo'lib, ular produktiv va reproduktiv faoliyatlardir.

Produktiv ijodkorlik yangi va original narsalarni yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, unda ilgari mavjud bo'lmagan mahsulot yoki g'oya paydo bo'ladi. Bu faoliyatda inson mustaqil fikrlaydi, yangilik kiritadi va mavjud tajribalarni yangicha talqin qiladi.

Reproduktiv ijodkorlik esa mavjud bilim, usul va tajribalarni takrorlash va qayta qo'llash orqali amalga oshiriladi. U o'rganilgan bilimlarni eslab qolish, tushunish va ulardan yangi vaziyatlarda foydalanish imkonini beradi.

Ijodiy faoliyat muayyan bosqichlar asosida rivojlanadi. Bu bosqichlar tayyorgarlik, inkubatsiya, ilhom, tekshirish va amaliyotga joriy etish bosqichlaridan iborat.

Tayyorgarlik bosqichida inson muammoni tushunishga harakat qiladi va kerakli ma'lumotlarni yig'adi. Inkubatsiya bosqichida muammo ustida bevosita ishlash to'xtaydi, biroq ong ostida g'oya shakllanadi. Ilhom bosqichida esa yangi g'oya birdan yuzaga keladi. Bu bosqichda produktiv ijodkorlikning roli kuchayadi.



Tekshirish bosqichida paydo bo'lgan g'oya tahlil qilinadi va amaliy jihatdan baholanadi. Amaliyotga joriy etish bosqichida esa bu g'oya hayotga tatbiq qilinadi

Har bir bosqichda reproduktiv va produktiv faoliyatlar turlicha darajada ishtirok etadi. Reproductiv faoliyat ko'proq tayyorgarlik va tekshirish bosqichlarida namoyon bo'lsa, produktiv faoliyat inkubatsiya va ilhom bosqichlarida asosiy rol o'ynaydi.

Ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun mustaqil fikrlashni rag'batlantirish, yangi g'oyalarni muhokama qilish, tanqidiy va divergent fikrlashni rivojlantirish, interaktiv metodlardan foydalanish muhimdir. Shuningdek, san'at, adabiyot, ilm-fan sohalarida faol ishtirok etish ham ijodkorlikni kuchaytiradi.

Ijodkorlik masalalariga insonlar har qadamda duch keladilar, biroq ularni har doim ham ijodiy yo‘l bilan qilishga intilmaydilar. Jumladan, ta’limni tashkil qilishning asosiy shakllari bo‘lgan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish muammosi o‘zining to‘laqonli echimini topmay kelmoqda. Mazkur muammoni darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida hal etish muayayn echimlari taklif etilgan bo‘lsa-da, dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish muammosi etarlicha tadqiq qilingan emas. Qisqa qilib aytilganda, ijodkorlikni murakkab ko‘ringan masalani hal etishning soda echimini topish deb ta’riflash mumkin. Odatda, uni oqilona echim yoki ixtiro deb atashadi. Ushbu fikrni ko‘proq moddiy shaklga ega bo‘lgan texnik ijodkorlik misolida izohlash mumkin.

Pedagogik jarayonda har bir shaxsning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, bunda o‘quvchi yoki talabani erkin fikrlashga yo‘naltirish, yangi g‘oya yaratishga undash muhim vazifadir.

5.4 Ijodkorlik bilim, ko‘nikma malakalari.

Ijodkorlik inson tafakkurining yuqori shakli bo‘lib, unda yangi g‘oyalar, original yechimlar, o‘zgacha yondashuvlar yuzaga keladi, u nafaqat san’at yoki adabiyotda, balki ilm-fan, texnologiya, biznes, ta’lim va kundalik hayotda ham muhim o‘rin tutadi, zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, moslashuvchan va tashabbuskor bo‘lish uchun ijodiy fikrlash zaruriy kompetensiyalardan biridir.

Ijodkorlik insoniyat taraqqiyotining asosiy drayveri hisoblanadi, ammo u hech qachon bo‘shliqda paydo bo‘lmaydi, u har doim ma’lum bir asosga, ya’ni puxta egallangan bilim, mukammal o‘zlashtirilgan ko‘nikma va amaliy tajriba orqali shakllangan malakalarga tayanadi. Bu uchala komponent o‘rtasidagi munosabat dinamik va o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning har biri ijodiy jarayonning turli bosqichlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bilim — kishilarning tabiat jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan voqelik ma’lumotlarning inson tafakkurida aks etishi. Voqelik haqidagi bilgan ma’lumotlarimiz bilim darajasiga ko‘tarilishi uchun quyidagi shartlarni

qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma'lumotlarning voqelikka mutanosibligi; ikkinchidan, bu ma'lumotlar dalillar bilan asoslangan bo'lishi lozim.

Ko'nikma — insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko'nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko'nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy ko'nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko'nikmalar bilim olishga, uni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Malaka — muayyan kasb, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat. Odatda, biron ish jarayonida harakatlar anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda amalga oshiriladi. Harakatni bajarishda ongning borgan sari kamroq ishtirok etishi tufayli ish avtomatik ravishda ijro etila boradi. Buning natijasida topshiriq ravon, ortiqcha kuch sarflamay, tez va sifatli bajarila boradi. Masalan, tajribali kompyuter foydalanuvchisi klavishlarga qaramasdan yozaveradi. Malaka hosil qilish tezligi uning murakkablik darajasi, kishining yoshi, individual xususiyati, bilimi va boshqa omillarga bog'liq. Kishidagi malaka ko'pincha, boshqa mahoratni hosil bo'lishida yordam beradi. Masalan, avtomobil haydashni yaxshi bilgan kishi boshqa transport vositalarini boshqarishni ham osonlik bilan o'rganadi.

Ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirishda bilim, ko'nikma va malakalar asosiy rol o'ynaydi, bilimlar bu — insonning o'zlashtirgan nazariy tushunchalari, faktlar va tajribalar majmui bo'lib, ular ijodiy fikr uchun poydevor vazifasini bajaradi, har qanday yangilik mavjud bilim asosida vujudga keladi, ammo ijodkorlik bu bilimlardan noodatiy tarzda foydalanish orqali amalga oshadi.

Ko'nikma — bu muayyan faoliyatni takrorlash orqali hosil bo'ladigan amaliy qobiliyat bo'lib, ijodiy fikrlash ko'nikmalariga misol qilib muammoga savollar orqali yondashish, teskari fikrlash, assotsiatsiya orqali yangi g'oya topish, bir necha alternativ yechimlarni ilgari surish, "aql hujumi" usulidan foydalanishni keltirish mumkin, bu ko'nikmalar o'z ustida ishlash, faol tajriba orttirish orqali rivojlanadi.

Malaka esa chuqurlashgan va avtomatlashtirilgan ko'nikmalar majmuasidir, ijodiy malakaga ega inson doimiy ravishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga

intiladi, bu esa mustahkam bilim va tajribaga asoslanadi, masalan, yozuvchi uchun obraz yaratish, dizayner uchun muvofiq rang tanlash, muhandis uchun texnik yechimlarni topish malaka darajasida shakllanadi

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun turli usullardan foydalaniladi, masalan, "aql hujumi" usuli orqali guruhda ochiq fikr almashiladi, SCAMPER texnikasi orqali mavjud g'oyani o'zgartirish, moslashtirish, o'zgartirish, yangilash orqali yangi g'oyalar yaratiladi, teskari fikrlash yordamida muammoni boshqa nuqtai nazardan ko'rib chiqish imkoniyati yuzaga keladi, shuningdek, rol o'ynash, metaforalar bilan ishlash, erkin yozish (freewriting) kabi metodlar ham ijodiy salohiyatni oshiradi.

Zamonaviy ta'limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi, o'quvchilarga tayyor bilimlarni berish emas, balki mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish, turli alternativ yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifadir, bu borada STEM yondashuvi, loyihaviy ishlanmalar, fanlararo topshiriqlar, tanqidiy va ijodiy fikrlash mashqlari samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ijodkorlik o'ziga xos xususiyatdir va u har bir bolada mavjud. Bundan tashqari, ijodkorlik bitta omil sifatida emas, balki har bir shaxsning ma'lum bir odamda turli darajalarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan turli xil qobiliyatlarning birikmasi sifatida ko'rib chiqiladi. Shuning uchun psixologlar hamda pedagoglar uchun barcha bolalar potentsial ijodiy bo'lishi kerak. Pedagog uchun bolaning o'ziga xos individual ijodini sezish va uni rivojlantirishga intilish juda muhimdir.

Ijodkorlik faoliyat mobaynida rivojlanadi, ko'plab tadqiqotchilar ijodiy bo'lmagan tafakkur uslubining shakllanishining sababini o'quv jarayonida bolalar doimiy ravishda "yopiq turdagi" vazifalar bilan, ya'ni berilgan elementlar to'plamiga va yagona to'g'ri yechimga ega bo'lgan vazifalarda deb ta'kidlashadi. Bolalarda mashg'ulotlar natijasida ilgari shakllangan bilim va faoliyatga asoslangan fikrlash turi shakllanadi.

Ijodkorlik - bu ma'lum bir mavzu uchun ilgari noma'lum narsani yaratishga, kashf etishga hissa qo'shadigan faoliyat. Yana bir nuqta ijodiy faoliyat ko'lami bilan bog'liq. Ijtimoiy amaliyotda, qoida tariqasida, ijodkorlik kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatsiya kabi

yangilik toifalari bilan o'lchanadi. So'nggi paytlarda tashkiliy va texnologik jarayonlarga yangilik kiritish bilan bog'liq innovatsion (innovatsion) faoliyat haqida ko'p narsa aytiladi. Ammo bunday faoliyatni ratsionalizatsiya deb atash mumkin. Texnologiya fani darsi maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik prinsiplarni qo'llasada, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug'ullanadilar.

Haqiqiy ijodkorlik, puxta egallangan fundamental bilimlar, qattiq mashq qilish orqali avtomatlashtirilgan ko'nikmalar va ularni amaliyotda sinab ko'rganlik natijasida hosil bo'lgan malakalarning uyg'un sintezidan kelib chiqadi.

Texnologiya fani predmetlari, qurollari, jarayonlari oddiy o'rganish obyekti sifatida emas, balki o'quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko'rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta'limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. O'quvchilarning bilishga oid qo'llanilgan usullarni, paydo bo'lgan muammo va uni yechish yo'llarini tushunishi bo'yicha fikr yuritishi, tahlil etishi, o'quvchilarning individual tarzda erishgan natijalarini aniqlashda ko'maklashishi, jamoa bo'lib yaratilgan ta'limiy natijalarini aniqlashi, izlanishli, ta'limiy vaziyatlarning asosiy texnologik elementlari: motivatsiya, muammolar qo'yish, vaziyat ishtirokchilari tomonidan muammoni yechish, ta'limiy natijalarni namoyon etish, ularni bir-birlari bilan qiyoslashdan iborat.

Texnik ijodkorlikni rivojlantirishda o'quvchi yoshlarning o'zlari qiziqib sevib o'rganadigan turli yo'nalishlari bo'lishi mumkin. Texnik ijodiyotga o'quvchilarni yo'naltirishda birinchi navbatda, milliy xalq hunarmandchiligiga, an'analarning milliy estetik manbaiga hamda boy sharq miniatura san'ati, haykaltaroshlik, kulolchilik, yogoch o'ymakorligi va hunarmandchilikning boshqa turlariga alohida e'tibor berish lozim.

Ta'lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o'zgarish dinamikasini ham nazarda tutish lozim. Shakllanib borayotgan demokratik huquqiy davlatning yoshlarga nisbatan amalga oshirayotgan siyosati yigit va qizlarga o'z qobiliyati va iste'dodini to'la ro'yobga chiqarishda, yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga faolroq qo'shilishga yordam berishdan iboratdir. Shu jihatdan ta'lim-tarbiya jarayonini diagnostika qilishga zarurat oshmoqda.

Yoshlarning kamolot darajasini diagnostika qilishda va xulqi dagi nuqsonlarni korreksiyalashda intellektual va tarbiyalanganlik darajasi orasidagi aloqadorlikni aniqlash, xalq pedagogikasi tajribalarini zamon talablari bilan uyg'unlashtirish, ta'lim-tarbiya bilim ko'nikmalarni tizimini qulaylashtirish, komil inson fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan milliy qadriyatlar va ilg'or metodikalar Pedagogik diagnostika - pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik



tizim natijalarini tahlil qilish, kafolatlash va tavsiyalar berish jarayoni. Uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olayotgan yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini takomillashtirishda muhim

yo'nalish sifatida qaralmoqda. Shuningdek, ta'lim olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qoraladi. Didaktik va diagnostika tashxislashning maqsadi o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Ijodkorlik g'oyasi tarix davomida qanday o'zgarib kelgan?
2. Ijodiy jarayonni bosqichlarga ajratishning amaliy ahamiyati nimada?
3. Reproduktiv va produktiv faoliyatni asosiy farqi nimada?
4. Inkubatsiya bosqichi nimadan iborat? Tashqi tomondan tinch ko'ringan bu paytda aslida nima sodir bo'ladi?
5. Zamonaviy psixologiyada ijodkorlik qanday talqin qilinadi?
6. Ijodkorlik va ong o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirib bering.
7. Ixtiro qilish jarayonining asosiy psixologik bosqichlari nimalardan iborat?
8. Ijodkorlikni rivojlantirish uchun qanday bilimlar zarur?
9. Ijodiy ko'nikmalarni qanday usullar bilan shakllantirish mumkin?
10. Malaka va ko'nikma o'rtasidagi farq nima?

6-Mavzu: Yoshlarni ixtirochilik ijodkorligiga tayyorlashning tashkiliy asoslari.

Reja:

1. Ixtirochilik ijodkorligiga raxbarlik qilish.
2. Ixtirochilik ijodkorligiga oid ilmiy anjuman va ko'rik tanlovlarni tashkil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: *ixtirochilik va texnik ijodkorlik dasturlarini ishlab chiqish, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, davlat va xususiy hamkorlik (MMCh), moliyaviy va resursli ta'minot, raqobatbardosh muhit va tanlovlar tashkil etish, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, individual yondashuv va qobiliyatlarni rivojlantirish,*

6.1 Ixtirochilik ijodkorligiga raxbarlik qilish.

Bugungi kunda zamonaviy rahbarlikning eng dolzarb va mulim jihatlaridan biri – "Ixtirochilik va ijodkorlikka rahbarlik qilish" mavzusiga to'xtalamiz. Dunyo shiddat bilan o'zgarayotgan bir paytda, har qanday tashkilotning muvaffaqiyati endi nafaqat samarali boshqaruvda, balki doimiy yangilanish va ijodiy yechimlarni topish qobiliyatida yashaydi. Ixtirochilik nafaqat texnologik kompaniyalar uchun, balki hamma soha va o'lchamdagi tashkilotlar uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Rahbarlar vazifasi – bu ijodiy muhitni shakllantirish, yangi g'oyalarni rag'batlantirish va ularni amaliy natijalarga aylantirish uchun sharoit yaratishdir. Rahbar o'z jamoasining har bir a'zosiga to'g'ri yo'nalish berishi, ularni maqsadga yetaklashi va g'oyalarni amalga oshirishda qat'iyatli bo'lishi lozim. Ixtirochilik va ijodkorlik faqat yangi g'oyalar bilan cheklanmaydi, balki eski usullarni yangilash, yangi yondashuvlarni topish va mavjud tizimlarni yaxshilashni ham anglatadi. Shuning uchun rahbarlar yangi imkoniyatlar yaratish va doimiy o'zgarishlarga tayyor bo'lishlari zarur. Bunday rahbarlarning asosiy maqsadi jamoaning ijodiy potensialini to'liq ochish, yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va ularni muvaffaqiyatga erishish uchun kerakli resurslar bilan ta'minlashdir. Ixtirochilik va ijodkorlik rahbarining muvaffaqiyati, uning jamoasining har bir a'zosining o'z kuchiga ishonch hosil qilishi va har bir yutuqni birgalikda nishonlashlariga bog'liq. Shunday qilib, ijodkorlik va



rahbarlik bir-birini to'ldiradi va birgalikda ajoyib natijalarga erishish imkonini beradi. Birinchi navbatda, ijodkorlikka rahbarlik qilish an'anaviy boshqaruv uslublaridan tubdan farq qiladi. An'anaviy rahbarlik ko'pincha tartib-intizom, izchillik, reja va byudjetga qat'iy rioya qilish, xatolarni

minimallashtirishga qaratilgan. Ijodkorlikni boshqarish esa tartibsizlikdan, tajriba qilish va xato qilish erkinligidan, aniqlikdan ko'ra noaniqlikka chidamlilikdan kelib chiqadi. Rahbar o'zining rolini nazorat qiluvchidan katalizator va xizmat ko'rsatuvchiga o'zgartirishi kerak.

Uning asosiy vazifasi – jamoada ishonch va o'zaro hurmat muhitini yaratish, bu esa odamlarga yangi va tajriba g'oyalarini xavfsiz bildirishlariga imkon beradi.

Ikkinchi muhim jihat – bu xavf olish madaniyatini shakllantirish. Ijodkorlik va yangi narsalarni kashf qilish degani doimo ma'lum darajadagi xavf bilan bog'liq. Har bir muvaffaqiyatli loyiha ortida bir qancha muvaffaqiyatsizliklar yotadi. Aqlli rahbar xatolarni jazolashtirish emas, balki ularni qanday qilib qimmatli tajribaga aylantirishni biladi. Ular jamoa a'zolariga: "Xato qilmang" emas, balki "Qanday qilib xatodan yangi narsani o'rganib, keyingi urinishda yaxshilashingiz mumkin?" degan savolni beradi. Bu esa odamlarda xavf olishga bo'lgan qo'rquvni yo'qotadi va ularni ko'proq innovatsion g'oyalar bilan shug'ullanishiga undaydi.

Uchinchidan, resurslar va vaqtni ajratish mutlaqo zarur. Hech qanday ajoyib g'oya uni amalga oshirish uchun kerakli vaqt, mablag' va inson resurslarisiz rivojlanmaydi. Rahbar innovatsion loyihalar uchun maxsus byudjet, "erkin ishlash" vaqti yoki tajriba o'tkazish uchun laboratoriya yaratishi kerak. Masalan, dunyoning ko'plab yirik kompaniyalari o'z xodimlariga ish vaqtining ma'lum foizini (masalan, 10-20%) o'zlarining shaxsiy loyihalari ustida ishlashga bag'ishlashlariga ruxsat beradi. Aynan shunday loyihalardan keyinchalik dunyoga mashhur bo'lgan mahsulotlar paydo bo'lgan.

To'rtinchi prinsip – bu g'oyalarning xilma-xilligini rag'batlantirish. Ijodiy

yechimlar turli xil tajriba, ko'nikma, dunyoqarash va madaniyatlarning to'qnashuvidan paydo bo'ladi. Monokultura – bu innovatsiyaning dushmani. Shuning uchun rahbar jamoada ko'p sohali mutaxassislarni, turli yosh va ma'lumotga ega odamlarni to'plashi, ularning ochiq muhokama qilishlari va bir-birlarining g'oyalari qadrlashlari uchun sharoit yaratishi kerak. “Brainingstorm” sessiyalari, g'oya tanlovlari, interdisciplinar loyihalar – bularning barchi jamoa a'zolarining ijodiy qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchi qadam – bu g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini yaratish. Ko'pincha ajoyib g'oyalar amalga oshirilmasdan, qog'ozda yoki prezentatsiyalarda qolib ketadi. Rahbarning vazifasi – bu g'oyalarni sinovdan o'tkazish, ularni prototiplash va bozorga chiqarish uchun aniq yo'l xaritasini ishlab chiqish. Bu esa loyihalar boshqaruvi, kichik guruhlar texnologiyasi (agile, scrum) va tez prototiplash kabi zamonaviy usullardan foydalanishni talab qiladi. Har bir g'oya hayotga tatbiq etilishi va haqiqiy muammoni hal qilishi kerak.

Oltinchi jihatdan, rag'batlantirish va mukofotlash tizimi muhim ahamiyatga ega. Ijodkorlikni faqat pul bilan rag'batlantirib bo'lmaydi. Odamlar o'zlarining g'oyalari qadrlanganini, ularga ishonilganini va ularning hissiy tashkilotning muvaffaqiyatiga olib kelayotganini ko'rishlari kerak. Mukofot moliyaviy bo'lishi mumkin, ammo ko'proq e'tibor, jamoa oldida e'tirof etilish, loyihani mustaqil boshqarish imkoniyati kabi nomoddiy rag'batlantirishlar samaraliroq bo'ladi. Rahbar har doim jamoa va uning a'zolarining yutuqlarini nishonlashi kerak.

Yettinchi va oxirgi prinsip – bu doimiy o'rganish va moslashishga tayyor bo'lish. Innovatsion muhitda kecha yaratilgan eng yaxshi amaliyotlar ertaga eskirgan bo'lishi mumkin. Rahbar o'zi ham doimo yangi bilimlar o'rganishi, bozordagi o'zgarishlarni kuzatishi va tashkilotni yangi tendensiyalarga tezda moslasha oladigan qilishi kerak. Bu – tunganmas jarayon. Tashkilotning butun madaniyati doimiy takomillashtirish va o'zgarishga intilishi kerak.



O‘zbekistonda fan va texnika sohasida ixtiro yaratish, uning rasman tan olinishi va qo‘llanishi bilan bog‘liq holda vujudga keladigan ijtimoiy munosa-batlarni tartibga solib turadigan fuqarolik-xuquqiy me‘yorlar majmui. Ixtiro fan va texnikada yangilik ekanini isbotlash uchun u dastlabki taklif berish asosida 15 kunlik muddat ichida ekspertizadan o‘tkaziladi. Ixtiro ekspertiza uchun qabul qilingani yoki rad etilgani haqida taklif be-ruvchiga asosli dalillar bilan yozma ja-vob yuboriladi. Ekspertiza davomida buyurtmachiga ixtiro mazmuniga biron-bir shaklda o‘zgartish yoki qo‘shimcha kiritish taklif etilishi mumkin, buning uchun yana ikki oylik muddat belgilanadi. Mazkur talablar o‘z vaqtida bajarilgan taqdirda ixtironing birinchi marta yaratilganligi fakt sifatida dastlabki taklif berilgan kundan e‘tiboran tan olinadi. Taklifning ixtiro deb hisoblanishi uchun uning muallifi muayyan texnik muammoni ijodiy tarzda hal qilgan bo‘lishi shart. Ixtiroga oid huquq qonunqoidalari O‘zbekiston Respublikasi FK 62bobida belgilab berilgan. Ularga binoan, bu huquq ixtirochiga patent berilganidagina muhofaza qilinadi. Patent bilan muhofazalanadigan ixtirodan o‘z xohishicha foydalanishdagi alohida huquq patent egasiga tegishlidir, boshqa shaxslar uning ruxsatisiz ixtirodan foydalanishga haqli emas (qonunlarda ko‘zda tutilgan alohida hollar bundan mustasno). Ixtiro muallifi maxsus huquqlar, imtiyozlar bilan qonun vositasida ta‘min etilishi mumkin . Innovatsion jarayonlarni boshqarishda vaqt va resurslarni oqilona taqsimlash muhim ahamiyatga ega, shuning uchun rahbar har bir loyiha bosqichini aniq nazorat qilishi va zarurat tug‘ilganda o‘zgarishlar kiritishi zarur, natijada, ixtirochilik ijodkorligiga rahbarlik qilish jarayoni – bu samarali boshqaruv, innovatsion muhit yaratish va jamoa a‘zolarining

imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan murakkab va mas'uliyatli faoliyatdir.

2.Ixtirochilik ijodkorligiga oid ilmiy anjuman va ko'rik tanlovlarni tashkil qilish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati va texnik yutuqlar har qanday davlatning taraqqiyotining asosiy omilidir, shuning uchun zamonaviy dunyoda ixtirochilik va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etishning ahamiyati beqiyosdir. Ixtirochilik ijodkorligiga oid ilmiy anjumanlar va ko'rik tanlovlarni tashkil qilish nafaqat yosh avlodning kreativ salohiyatini namoyon etish, balki fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanish istiqbollarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Bunday tadbirlar yoshlarni ilmiy izlanishlar va amaliy yechimlar topishga rag'batlantirish, ularning intellektual va kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, istiqbolli loyihalar va ixtirolarni amaliyotga joriy etish imkoniyatini yaratish maqsadida o'tkaziladi.

Ilmiy anjumanlarni tashkil qilish bir qator muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi, bularning boshida tadbirning aniq maqsad va vazifalarini belgilash, reja va dastur ishlab chiqish, ishtirokchilar va mehmonlar doirasini aniqlash, shuningdek, tegishli hujjatlarni tayyorlash turadi. Anjumanning mavzusi zamonaviy fan va texnologiyalarning eng dolzarb yo'nalishlarini, masalan, sun'iy intellekt, qayta tiklanadigan energiya manbalari, biotexnologiyalar, robototexnika yoki axborot xavfsizligi kabi sohalarni qamrab olishi kerak, bu esa nafaqat ishtirokchilarning, balki tinglovchilarning ham qiziqishini uyg'otadi. Shuningdek, tadbir joyini tanlash, zarur texnika va uskunalar bilan ta'minlash, ishtirokchilar va mehmonlar uchun qulay sharoitlar yaratish, shu jumladan, masofaviy ishtirok imkoniyatini ta'minlash hozirgi global dunyoda juda muhim ahamiyatga ega.

Ko'rik tanlovlarni tashkil etish jarayoni ham o'ziga xos jihatlarga ega, chunki bu yerda ishtirokchilarning loyihalari va ixtirolari raqobat sharoitida baholanadi, shuning uchun hakamlar hay'atini tuzish, ularning obro'li va mutaxassislardan iborat bo'lishi, shaffof va adolatli baholash mezonlarini ishlab chiqish asosiy talab hisoblanadi. Tadbirlarning natijalari bo'yicha eng yaxshi ishlanmalar targ'ib qilinishi, ommaviy axborot vositalarida yoritilishi, hamda turli innovatsion yarmarkalarda

namoyish etilishi lozim, Bu esa yosh ixtirochilarning motivatsiyasini oshiribgina qolmay, balki ularning ishlariga investorlar va ishlab chiqaruvchilar e'tiborini tortadi, Natijada, ixtirolarning amaliy hayotga tatbiq etilishiga zamin yaratiladi.



Ixtirochilik ijodkorligiga oid ilmiy anjuman va ko'rik-tanlovlarni tashkil etish uchun, avvalo, maqsadi, ishtirokchilar kontingenti va moliyalashtirish manbalari aniqlanadi. Keyin tadbir rejasi tuziladi, homiylar va hamkorlar jalb etiladi, ma'ruza qiluvchilar va hakamlar hay'ati tayyorlanadi. Anjuman va tanlov o'tkazilib, natijalari e'lon qilinadi va ishtirokchilar rag'batlantiriladi.

1. Dastlabki bosqich: Rejalashtirish va tayyorgarlik

Maqsad va vazifalarni belgilash: Anjuman yoki tanlovning asosiy maqsadi nima ekanligini aniqlash – ixtirochilikni rag'batlantirish, yosh ixtirochilarni qo'llab-quvvatlash, yangi g'oyalarni o'rtoqlashish va hokazo. Ishtirokchilar kontingentini aniqlash: Kimlar qatnashishi mumkinligi – talabalar, tadqiqotchilar, muhandislar, maktab o'quvchilari. O'tkazilish sanasi va joyini tanlash: Tadbir qachon va qayerda o'tkazilishi rejalashtiriladi. Moliyalashtirish manbalarini aniqlash:

Tadbirni o'tkazish uchun pul mablag'lari qayerdan olinishi – byudjet, homiylar, grantlar.

2. Tadbirni tashkil etish

Tadbir dasturini tuzish: Anjuman uchun ma'ruzalar, panel sessiyalari; tanlov uchun esa ijodiy ishlarni taqdim etish tartibi. Tashkiliy qo'mitani shakllantirish: Tadbirni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha vazifalar bo'linadi. Ma'ruzachilar va hakamlar hay'atini taklif etish: Tadbirga taniqli olimlar, ixtirochilar va mutaxassislarni taklif qiling. Homiylarni jalb qilish: Potentsial homiylarni topib, ularga tadbirga homiylik qilish taklifini kiritish. Reklama va targ'ibot: Tadbir to'g'risida keng xabardor qilish – ijtimoiy tarmoqlar, OAV va boshqa kanallar orqali.

3. Tadbirni o'tkazish

Ro'yxatga olish va ishtirokchilarni qabul qilish: Tadbirga kelgan ishtirokchilar ro'yxatga olinadi. Ma'ruzalar va taqdimotlar: Belgilangan dasturga ko'ra, ma'ruzalar o'qiladi va ijodiy ishlar namoyish etiladi. Hakamlar hay'ati baholashi: Tanlovga taqdim etilgan ishlarni hakamlar hay'ati baholaydi.

4. Yakuniy bosqich

G'oliblarni taqdirlash: Tanlov g'oliblari taqdirlanadi va rag'batlantiriladi. Tadbir natijalarini e'lon qilish: Anjuman va tanlov natijalari OAV va boshqa resurslar orqali ommaga e'lon qilinadi. Qaytgan fikr-mulohazalar: Ishtirokchilar va tashkilotchilarning tadbir bo'yicha fikr-mulohazalari to'planadi va keyingi tadbirlarni takomillashtirish uchun foydalaniladi.

Ilmiy anjuman va tanlovlarni tashkil etishda zamonaviy talab – bu nafaqat yakka tartibda tashkilotchilar, balki universitetlar, ilmiy markazlar, startap inkubatorlari, sanoat korxonalari va davlat idoralari o'rtasida tizimli hamkorlik o'rnatishdir. Shunday tarmoq yordami bilan ishtirokchilarga nafaqat bilim va resurslar taqdim etiladi, balki innovatsiyalarni tezroq va samaraliroq joriy etish imkoniyati yaratiladi. Hozirgi kunda ko'plab ilmiy anjumanlar va tanlovlar butun dunyo bo'ylab ishtirokchilarni jalb qilish uchun raqamli platformalarda (masalan, Zoom, MS Teams, maxsus konferensiya portallari) o'tkazilmoqda. Bu esa geografik chegaralarni yo'q qiladi va ishtirokchilarning sonini oshiradi. Shuningdek, maxsus mobil ilovalar orqali ishtirokchilar o'z loyihalarini taqdim etishi, tarmoq yaratishi va fikr almashishi mumkin. Tanlov va anjumanlarning muvaffaqiyatini faqatgina g'oliblarning soni yoki taqdimotlarning sifati bilan o'lchash yetarli emas. Zamonaviy yondashuv bu



taqdim etish emas, balki

mentorlik tizimini yaratish muhim. Bu orqali yoshlar o'z g'oyalarini yanada rivojlantirish uchun tajribali mutaxassislar bilan muntazam muloqotda bo'ladilar. Mentorlar nafaqat ilmiy maslahatlar beradi, balki loyihalarni tijoratlashtirishda yordam ko'rsatadi.

Bugungi kunda har qanday ixtiro va loyiha barqaror rivojlanish tamoyillariga mos kelishi talab etiladi. Shuning uchun ilmiy anjuman va ko'rik tanlovlarda ayniqsa ekologik toza texnologiyalar, energiyani tejash, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash kabi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ixtirochilik va ilmiy tadbirlarda barcha guruhlarni, xususan, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar va ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarni ham faol jalb qilish kerak. Bu nafaqat ijtimoiy adolat, balki innovatsiyalar xilma-xilligini oshirishga xizmat qiladi.

Yangi g'oyalarni rag'batlantirish uchun faqat moddiy mukofotlar emas, balki innovatsion grantlar, treninglar, startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlari va ishchi guruhlar tashkil etilishi muhim. Bu yosh ixtirochilarga loyihalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha ko'rik-tanlov hamda ularning doirasida ko'rgazmalar o'tkazish Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-avgustdagi 440-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi bayonnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

Tanlov ikki bosqichda o'tkaziladi:

Hududiy bosqich. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida tashkil etilgan ko'rgazmalarda ishtirok etganlar orasidan tanlab olingan

eng yaxshi ixtiro, foydali model yoki ratsionalizatorlik takliflar egalari Tanlovning hududiy bosqichi g'olibi deb topiladi hamda respublika bosqichiga yo'llanma oladi.

Respublika bosqichi. "InnoWeek — 2025" — Innovatsion g'oyalar xalqaro haftaligi ko'rgazmasida respublika bosqichiga yo'llanma olganlar qatnashadi va ular orasidan tanlab olingan 3 nafar eng yaxshi ixtiro, foydali model yoki ratsionalizatorlik takliflar egalari tanlovning respublika bosqichi g'olibi deb topiladi.

Tanlovning asosiy maqsadi ixtirochilar va ratsionalizatorlarning innovatsion ishlanmalarini qo'llab-quvvatlash hamda yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga ko'maklashishdan iborat.

Har yili o'tkaziladigan ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha ko'rgazmalar hamda ularning doirasida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlarning g'oliblari pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Ixtirochilik va ijodkorlikka rahbarlik qilish an'anaviy boshqaruv uslublaridan qanday farq qiladi?
2. Innovatsion muhit yaratishda rahbarning asosiy vazifalari qanday?
3. Xavf olish madaniyatini shakllantirishda qanday usullar qo'llaniladi?
4. Ixtirochilik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda davlatning roli qanday?
5. Yosh ixtirochilarni qo'llab-quvvatlashning samarali usullari qanda

7-Mavzu: Ixtirochilik ijodkorligi metodlari.

Reja:

1. Ixtirochilik faoliyati metodlari tushunchasi va tasnifi.
2. Ixtirochilik ijodkorligiga oid ilmiy anjuman va ko'rik-tanlovlarni tashkil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: *Ijodiy fikrlash, muammoni hal qilish, innovatsion yondashuv, kreativlik, brendstorning, sinectika, lateral fikrlash, TRIZ, skamper usuli, muammoni aniqlash, ma'lumot to'plash, g'oya generatsiyasi, yechimlarni baholash, amaliyotga joriy etish, natijalarni tahlil qilish, erkinlik muhiti.*

7.1. Ixtirochilik faoliyati metodlari tushunchasi va tasnifi.

Ixtirochilik faoliyati — yangi g‘oyalar, texnik-texnologik yoki tasnifiy yechimlar, mahsulotlar, jarayonlar yaratish, ularni sinovdan o‘tkazish va amaliyotga tatbiq etish jarayoni. Bu jarayon ijod, bilim, tajriba, resurs va boshqaruvni talab qiladi. Metod — ma’lum maqsadga erishish uchun tizimli yo‘l-yo‘riq, usul, texnika, usullar majmui. Ixtirochilik faoliyatida metod deganda: qanday bosqichlarda, qanday vositalar va usullar bilan muammolar tahlili, g‘oya generatsiyasi, yechim tanlash va tatbiq etish ishlari amalga oshiriladi.

Ixtirochilik faoliyati metodlari deganda, yangi g‘oyalar, yechimlar yoki mahsulotlarni yaratish, rivojlantirish va amalga oshirish jarayonida qo‘llaniladigan tizimli yondashuvalar, usullar va texnikalar majmui tushuniladi. Bu metodlar nafaqat ilmiy tadqiqotlar va texnik yutuqlar, balki har qanday sohadagi ijodiy jarayonlarni samarali tashkil etish va boshqarish imkonini beradi. Ixtirochilik metodlari muammolarni tahlil qilish, g‘oyalarni generatsiya qilish, ularni tanlash, rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etishning turli bosqichlarida qo‘llaniladi.

Ixtirochilik metodlarini tasniflashda ularning qo‘llanilish maqsadi, qiyosiy murakkablik darajasi, foydalaniladigan resurslar, ijtimoiy hamda iqtisodiy samaradorligi kabi mezonlar asosida farqlash mumkin. Asosiy tasnif quyidagicha bo‘lishi mumkin: birinchidan, g‘oya generatsiyasi metodlari, ya’ni yangi va original fikrlarni yaratishga yo‘naltirilgan usullar, masalan, breynstorming, sinectika, morfologik tahlil, ikkinchidan, muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topish metodlari, jumladan, SWOT-tahlil, Pareto tahlili, ildiz sabablar tahlili, uchinchidan, loyihalarni boshqarish va amalga oshirish metodlari, masalan, Agile, Scrum, Kanban, to‘rtinchi tomondan, innovatsion yechimlarni baholash va tanlash metodlari, jumladan, iqtisodiy samaradorlik tahlili, xavf-tahlil, prioritetlar matritsasi.

Bundan tashqari, zamonaviy ixtirochilikda raqamli texnologiyalar asosidagi metodlar, masalan, ma’lumotlarni qayta ishlash, sun’iy intellekt, virtual reallik, katta ma’lumotlar tahlili kabi usullar ham keng qo‘llanilmoqda. Ixtirochilik metodlarini o‘rganish va qo‘llash, nafaqat individual, balki jamoa va tashkilot darajasida innovatsion salohiyatni oshirish, raqobatbardoshlikni ta’minlash va barqaror rivojlanishga erishish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ixtirochilik metodlari analitik, evristik, tizimli dizayn, innovatsion va raqamli metodlarga bo'linadi. Analitik metodlar qatoriga funksional-tizimli tahlil, morfologik tahlil va patent tahlili kiradi. Evristik metodlar beynstorming, sinectika, TRIZ va 6 ta gapirish qalpoq usullarini o'z ichiga oladi. Tizimli dizayn metodlari funksional dizayn, modulyar dizayn va qayta ishlash dizaynidan iborat. Innovatsion metodlar teskari muhandislik, prototiplash va foydalanuvchi markazli dizayni qamrab oladi. Raqamli metodlar esa kompyuter yordamida dizayn, sun'iy intellekt metodlari va simulyatsion modellashdan tashkil topgan.

Zamonaviy ixtirochilikda metodlarning kombinatsiyasi qo'llaniladi, masalan, TRIZni kompyuter dasturlari bilan birlashtirish yoki beynstormingni modulyar dizayn bilan qo'llash keng tarqalgan. Metodlarni samarali qo'llash uchun muammoning murakkablik darajasi, resurslar, vaqt cheklovlari, komanda a'zolarining bilimlari va mahsulot talablarini hisobga olish kerak. Ixtirochilik metodlarini o'rganish yangi g'oyalar yaratish, muammolarni hal qilish va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Kashfiyot va ixtiro o'rtasida dialektik o'zaro bog'lanish mavjud. Ko'p hollarda ixtiro, kashfiyot natijasida olingan ilmiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va rivojlantirish hisoblanadi. Masalan: N. G. Basov, A. M. Proxorov va Tomsonlarning kvant jarayonlarini qo'llashga asoslangan elektromagnit to'lqinlarni kuchaytirish bo'yicha qilgan kashfiyotlari xalq xo'jaligida keng amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab ixtirolarni yaratishga asos bo'ldi.

Ilmiy-texnik hamda pedagogik-psixologik adabiyotlarda ixtirochilik hamda ixtirochilik ijodkorligiga ko'plab ta'riflar berilgan. Jumladan, I. I. Kichkin ixtirochilikni ilmiy g'oyalarni texnik yechimlarga ijodiy tatbiq etish, ilmiy-texnika taraqqiyoti sur'atlarini belgilovchi asosiy ko'rsatkich, yangi texnika va texnologiyalar yaratilishining mezonini hamda uning yuqori ilmiy-texnik darajasini ta'minlovchi omil deb hisoblaydi. M. A. Vachevskiy esa "ixtiro qilish"ni – "qo'yilgan masalani yechish uchun eskisidan tubdan farq qiluvchi, odatiy mantiqiy fikrlash yo'li bilan yetishib bo'lmaydigan yangi samarali texnik yechimni taklif qilish" deb ta'riflaydi.

Bizning fikrimizcha, ixtirochilik – tegishli idoralar tomonidan patentlar bilan tasdiqlanadigan yangi texnik yechimni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat

turidir. Ixtirochilik ijodkorligini esa – bu jarayonda shaxsda namoyon bo‘ladigan zehnlilik, topqirlik, mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi ijodiy sifatlari bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy xususiyat deb ta’riflash mumkin.

Ixtirochi tan olish uchun u oldingi texnik yechimlardan tuzilishi, natijasi va keltiradigan ijobiy effektlari yangiligi bilan farqlanishi kerak. Ixtiro quyidagilar bo‘lishi mumkin: yangi qurilma, yangi usul, yangi mahsulot yoki yangi maqsadlar uchun eski usuldan foydalanish.

7.2. Ixtirochilik ijodkorligiga oid ilmiy anjuman va ko‘rik-tanlovlarni tashkil qilish.

Ixtirochilik ijodkorligiga oid ilmiy anjuman va ko‘rik-tanlovlarni tashkil qilish muhim ahamiyatga ega; bu tadbirlar yosh ixtirochilarni rag‘batlantirish, ularning g‘oyalarini namoyish qilish va amaliyotga joriy etish uchun asosiy platforma hisoblanadi. Tadbirlarni tashkil qilish bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi: birinchidan, tadbirning aniq mavzusi, maqsadi va ishtirokchilar doirasi belgilanadi; keyin, ishchi dastur tuzilib, tashkiliy qo‘mita va hakamlar hay’ati shakllantiriladi; moliyalashtirish uchun homiylar va grantlar topiladi; loyihalarni qabul qilish va baholash mezonlari e’lon qilinadi; nihoyat, tadbir o‘tkazilib, g‘oliblar mukofotlanadi. O‘zbekistonda "Yosh olim", "Kelajak texnologiyalari" kabi respublika tanlovlari, xalqaro miqyosda esa Intel ISEF, iCAN kabi nufuzli tanlovlar o‘tkaziladi. Ixtirochilik metodologiyalaridan TRIZ (Ixtirochilik Masalalarni Yechish Nazariyasi), Dizayn Fikrlash va Miyalash Shturmi kabi usullar keng qo‘llaniladi. Davlat ixtirochilarni patentlar, grantlar, texnoparklar va soliq imtiyozlari bilan qo‘llab-quvvatlaydi. Patent ma’lumotlarini o‘rganish uchun O‘zbekiston Patent Axborot Markazi, WIPO PATENTSCOPE va Google Patents kabi onlayn resurslardan foydalanish mumkin. Ta’lim tizimida loyihaga asoslangan o‘qitish, fan to‘garaklari va ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish orqali ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishga harakat qilinmoqda. Xulosa qilib, ixtirochilikni rivojlantirish – bu tizimli yondashuv, qo‘llab-quvvatlovchi muhit va doimiy bilim almashishni talab qiladigan murakkab jarayondir.

Ko‘rik-tanlovlar va ilmiy anjumanlarni tashkil qilishdan asosiy maqsad — iqtidorli, tashabbuskor, yangilikka intiluvchan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ular tomonidan

ishlab chiqilgan g'oyalar va ixtirolarni keng ommaga taqdim etish, ularni amaliyotga joriy qilishga ko'maklashishdan iborat. Bunda loyiha mualliflari o'z ishlanmalarini taqdim etishadi, hakamlar hay'ati tomonidan ular baholanadi, eng yaxshi g'oyalar va ishlanmalar e'tirof etiladi, sovrinlar va sertifikatlar topshiriladi. Baholashda esa g'oyaning yangiligi, amaliy ahamiyati, iqtisodiy samaradorligi, prototipining mavjudligi yoki tayyorlash imkoniyati, taqdimot darajasi, huquqiy va



texnik hujjatlarning to'liqligi inobatga olinadi. Bunday tadbirlar odatda bir nechta bosqichda o'tkaziladi — hududiy, respublika va xalqaro. Har bir bosqichda qatnashuvchilarga imkoniyatlar yaratiladi, zarur metodik va texnik yordamlar ko'rsatiladi. Ishtirokchilar o'z loyihalarini nafaqat yozma shaklda, balki stend, banner, multimedia taqdimotlari, hatto

prototip yoki amaliy qurilma tarzida taqdim etishlari mumkin. Ilmiy anjumanning o'zi esa muhim platforma sifatida xizmat qiladi — unda ilmiy maqolalar, tezislar taqdim etiladi, fikr almashuv, tajriba, hamkorlik, mentorlik, homiylik va investitsiya imkoniyatlari yaratiladi. Ko'rik-tanlovlar va anjumanlar yakunida ilmiy ishlar to'plami nashr etiladi, eng yaxshi ishlanmalar patent olish bosqichiga yo'naltiriladi.

Bunday tashabbuslarning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun esa, uni to'g'ri rejalashtirish, tashkil etish va baholash juda muhim. Dastlab mavzu va yo'nalishlar aniqlanadi, e'lon beriladi, ishtirokchilar ro'yxatga olinadi, hakamlar hay'ati shakllantiriladi. Shuningdek, anjumanda qatnashuvchilarni tanlashda adolat, shaffoflik va ilmiy mezonlarga qat'iy amal qilish talab etiladi. Moliyalashtirish masalalari — homiylar, grantlar, universitet yoki davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar orqali hal etiladi. Eng muhimi, ixtiro va innovatsiyalar ko'rgazma shaklida ham namoyish etilishi, ommaviy axborot vositalarida yoritilishi, keng auditoriyaga yetkazilishi zarur.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham ixtirochilik va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'plab tanlovlar, anjumanlar o'tkazilmoqda. Masalan, “100 Best Innovative

Projects of Women of Uzbekistan”, “Ilm qaldirg‘ochlari”, “Yoshlar innovatsiyasi” kabi tanlovlar, respublika va xalqaro anjumanlar orqali yoshlar, tadqiqotchilar, olimlar va talabalar o‘z ijodiy salohiyatini namoyon etmoqda. Davlat tomonidan esa innovatsion loyihalarni patentlash, ularni tijoratlashtirish, huquqiy muhofaza qilish bo‘yicha huquqiy asoslar yaratilgan.

Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo‘yicha o‘tkaziladigan ko‘rgazmalar doirasida Ixtirochilik va ratsionalizatorlik ko‘rik-tanlovitanloviga ishtirok etmoqchi bo‘lganlar uchun . Mazkur tanlovga arizalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 10-avgustdagi 440-son qarori hamda 2022-yil 1-noyabrdagi 15-son bayonida belgilangan talablarga muvofiq qabul qilinadi.

Tanlovga taqdim etiladigan ishlanmalar ixtirochilik va ratsionalizatorlik ko‘rik-tanlovini o‘tkazish bo‘yicha elektron platforma orqali 2025-yil 14-sentabrga qadar elektron shaklda qabul qilinadi.

Tanlov shartlari:

1. Tanlovda O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlaridan 16 dan 40 yoshgacha bo‘lgan ixtirochi va ratsionalizatorlar qatnashish huquqiga ega.
2. Tanlovda ishtirok etish istagida bo‘lgan iqtidorli yoshlar Platforma orqali ro‘yxatdan o‘tadi.
3. Tanlovda ishtirok etish istagida bo‘lgan ixtirochilar va ratsionalizatorlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lishi;

aniq bir ixtiro, foydali model yoki ratsionalizatorlik taklifiga ega bo‘lishi.

4. Tanlovga hududlarda o‘tkazilgan ixtirochilik va ratsionalizatorlik ko‘rgazmalarida ishtirok etgan takliflar bo‘yicha arizalar qabul qilinadi. Bunda, ko‘rgazmada ishtirok etganligini tasdiqlovchi ma’lumot yoki rasm Platformaga alohida hujjat shaklida yuklanadi.

5. Ilgari o‘tkazilgan tanlovlarda ishtirok etgan taklif arizalari Tanlovdan chetlashtiriladi.

6. Tashkilotchilar va homiylik qiluvchi tashkilotlar xodimlarining hamda Komissiya a'zolarining yaqin qarindoshlari Tanlovda ishtirok etish huquqiga ega emas (ular o'zini o'zi rad qilgan holatlar bundan mustasno).

7. Tanlov ikki bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida tashkil etilgan ko'rgazmalarda ishtirok etganlar orasidan tanlab olingan eng yaxshi ixtiro, foydali model yoki ratsionalizatorlik takliflar egalari Tanlovning hududiy bosqichi g'olibi deb topiladi hamda respublika bosqichiga yo'llanma oladi;

2-bosqich – respublika bosqichida ishtirok etish uchun yo'llanma olganlar "InnoWeek – 2025" – Innovatsion g'oyalar xalqaro haftaligi ko'rgazmasida ishtirok etadi va ular orasidan tanlab olingan 3 nafar eng yaxshi ixtiro, foydali model yoki ratsionalizatorlik takliflar egalari Tanlovning respublika bosqichi g'olibi deb topiladi.

8. Tanlov natijalari bo'yicha g'oliblar Platformada Respublika komissiyasi a'zolarining ovoz berishi orqali aniqlanadi.

9. Tanlovga taqdim qilingan ixtiro, foydali model yoki ratsionalizatorlik takliflarini baholash quyidagi mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

energiya va resurslarni tejash, zamonaviy texnologiyalar va yangi materiallar yaratish hamda ulardan foydalanish;

ekologiyaga mosligi (atrof muhitni himoyalash bo'yicha muammolarni hal qilish);

mehnat sharoitlarini yaxshilash, insonlar uchun qulaylik yaratish;

ob'ektni ishlab chiqilish darajasi (foydalanishga tayyorligi: sinov-sanoat yoki dastlabki namuna va b.)

eksportga mo'ljallanganligi;

importning o'rnini bosishi.

ixtiro yoki foydali modelga patent olinganligi.

10. Arizalarni Platforma (ixtiro.ilmiy.uz) orqali ro'yxatdan o'tkazish jarayonida quyidagi hujjatlarning elektron nusxalari (pdf/doc) Platformaga yuklanadi:

ixtiro, foydali model yoki ratsionalizatorlik taklif asosidagi ishlanma fotosurati yoki sxemasi (pdf/jpeg).

ixtiro, foydali model yoki ratsionalizatorlik taklif tavsifi matni (imzo qo'yilgan

olda, pdf va uning matn redaktori dasturidagi (doc/docx) shakli);
taklif tashkilotda/jamoaviy yaratilgan bo'lsa, taklifning tanlovda ishtiroki bo'yicha hammualliflarining rozilik xati (pdf);
patent yoki ratsionalizatorlik taklifi guvohnomasi nusxasi (pdf);
taklif joriy etilgan bo'lsa, litsenzion kelishuv shartnomasi nusxasi (pdf)
12. Ixtiro, foydali model yoki ratsionalizatorlik taklifi ma'lumotlari Platformada (ixtiro.ilmiy.uz) tegishli bo'limlarga kiritilishi lozim.

Izoh: Platformaning (ixtiro.ilmiy.uz) majburiy () belgisidagi bo'limlariga ma'lumotlar kiritilmagan taqdirda, ariza tanlovga qabul qilinmaydi.*

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Ixtirochilik faoliyati nimadan iborat? Uni qanday jarayon sifatida ta'riflaysiz?
2. Ixtirochilik metodlari deganda nima tushuniladi va ularning asosiy vazifasi nimadan iborat?
3. Ixtirochilik metodlarini tasniflashda qanday mezonlardan foydalanish mumkin?
4. Zamonaviy ixtirochilikda qanday yangi (raqamli) metodlar keng qo'llanilmoqda? Kamida 3 ta misol keltiring.

8-Mavzu Xalq xo'jaligidagi muammova texnik yechimlarni tadqiq qilish uslublari

REJA:

1. Texnika va texnologiyalar sohasidagi nomukammal yechimlar mohiyati.
2. Texnik texnologik, iqtisodiy, ekologikva x.k jihatlardan nomukammal texnik yechimlar

8.1. Texnika va texnologiyalar sohasidagi nomukammal yechimlar mohiyati.

Texnika va texnologiyalar sohasidagi nomukammal yechimlar muammoni hal qilishning eng yaxshi, ideal yo'li emas, balki ma'lum bir sharoitda (vaqt, mablag', resurslar, mavjud infratuzilma yoki texnologik cheklovlar) amalga oshirish mumkin bo'lgan eng maqbul va amaliy yo'lidir. Ushbu yechimlar ko'pincha "yetarli darajada yaxshi" printsiptga asoslanadi, ya'ni natija mukammal bo'lmasa-da, maqsadlar uchun

etarli darajada samarali va ishonchlidir. Ularning mohiyati turli omillar, masalan, loyihaning cheklangan byudjeti, bozorga chiqish muddatining qisqaligi, mutaxassislarning yetishmasligi yoki mavjud eski tizimlar (legacy systems) bilan muvofiqlashtirish talabi tufayli shakllanadi. Misol tariqasida, dasturiy ta'minot ishlab chiqishda tezda bozorga chiqish uchun kod sifatii yozilmasligi mumkin, bu keyinchalik "texnik qarz" (technical debt) shaklida namoyon bo'ladi yoki sun'iy intellekt modeli 100% emas, balki 95% aniqlikda ishga tushirilishi mumkin, chunki qolgan 5% ni oshirish juda qimmat va murakkab hisoblanadi. Nomukammal yechimlar har doim ham yomon emas, ular amaliyotda resurslarni optimal taqsimlash, vaqtni tejash va loyihani umuman ishga tushirish imkoniyatini beradi, biroq ularning salbiy tomoni uzoq muddatda texnik qarzning to'planib borishi, tizimni qo'llab-quvvatlash qiyinlashishi yoki samaradorlikning pastligi shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

Texnika va texnologiyalar – bu insoniyatning barcha sohalarida hayotni osonlashtiradigan, tezlashtiradigan va samarali qilishga yordam beradigan muhim vositalardir. Ular bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, inson faoliyatining turli yo'nalishlarida katta o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bu maqolada texnika va texnologiyalarning ahamiyati, ular qanday rivojlanayotgani va kelajakdagi ta'sirlarini ko'rib chiqamiz. Texnika — bu materiallar va resurslardan foydalanib, ma'lum bir maqsadni amalga oshirish uchun yaratilgan vositalar, usullar va qurilmalar to'plamidir. Texnikaning asosiy maqsadi insonlarning hayotini yanada qulay va samarali qilishdir. Bu kunga kelib, texnika o'zining rivojlanish bosqichida, jamiyatni modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Texnologiya esa texnikaning rivojlanishidan olingan bilimlarni, usullarni va jarayonlarni o'z ichiga olgan tizimdir. Texnologiya yordamida yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratish, mavjud tizimlarni yaxshilash va insonlarning turmush tarzini yuqori darajaga ko'tarish mumkin. Texnologiya ham vaqt o'tishi bilan rivojlanib, yangi ixtirolar va innovatsiyalarni keltirib chiqarmoqda.

Ma'lum hollarda ratsionalizatorlik taklifi ixtiro bo'lishi mumkin. Dizaynni ixtirochi va ratsionalizatorlik faoliyatiga "bog'lab qo'yish" mumkin, agar ularni amalga

oshirish uchun ma'lum dizaynlarni yaratish zarur bo'lsa. Ixtiro, dizayn va ratsionalizatsiya o'rtasidagi amaliy farqni har bir faoliyatning maqsadlari xarakteridan izlash kerak. Ixtiro – texnik muammoni, umuman olganda, muammoni hal qilishga qaratilgan; dizayn – tuzilmani yaratish; Texnologiya

fanini o'rganish materiallar, ularning xossalariini o'rganishdan hamda ushbu materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ulardan turli buyumlar tayyorlashdan iborat bo'ladi. Ushbu jarayon o'qituvchilardan texnologik bilimlarni qo'llash, kreativ va texnik fikrlash orqali tayyor buyumlarning sifat darajasini tahlil etish va o'quvchilarga kasbiy bilimlarni singdirishdan iborat.

O'quvchilarni yoshligidan mehnatga o'rgatish kelajak hayotida juda katta samara beradi. Bunda mehnat ko'nikmalari bilan birga o'quvchilarda kreativlik, texnik bilimlar, kollektiv ijodkorlik kabi qobiliyatlarni ham shakllantirish zarur.

Mashhur idealist faylasuf E. L. Radlov tomonidan yigirmanchi asr boshidagi eng obro'li falsafiy lug'atlardan birida ijodkorlik biror narsaning yaratilishi bilan bog'liqligi, yaratish qobiliyati xudoga eng xos bo'lganligi va odam faqat nisbatan ijodiy harakatlarni bajarishi mumkin... Bunday bayonotlar bilan bir qatorda, ijodiy jarayon tarkibida ongsiz jarayonlarning mavjudligiga e'tibor qaratildi. Keyinchalik, ijodkorlikning har xil turlarini ilmiy o'rganish o'zgargani sari, umuman unga bo'lgan munosabat ham, ijodga berilgan ta'riflar ham o'zgardi. So'nggi paytlarda, asosan, yangi mahsulotning yaratilishi ilgari bo'lmagan ijodkorlik bilan bog'liqligiga e'tibor qaratildi; ijodkorlik inson faoliyatining turli sohalarida, yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar vujudga kelganda namoyon bo'ladi. Ijodkorlik - bu ma'lum bir mavzu uchun ilgari noma'lum narsani yaratishga, kashf etishga hissa qo'shadigan faoliyat. Yana bir nuqta ijodiy faoliyat ko'lami bilan bog'liq. Ijtimoiy amaliyotda, qoida tariqasida, ijodkorlik kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatsiya kabi yangilik toifalari bilan o'lchanadi. So'nggi paytlarda tashkiliyvatexnologik jarayonlarga yangilik kiritish bilan bog'liq innovatsion (innovatsion)faoliyat haqida ko'p narsa aytiladi. Ammo bunday faoliyatni ratsionalizatsiya deb atashmumkin.Ratsionalizatsiya - mavjud texnologiyalardan foydalanishni yaxshilash uchun(biz faqat texnik muammolarni hal qilish bilan bog'liq

jihatni olamiz). Shunday qilib, biz buni aytishimiz mumkin: ixtirochi, birinchi navbatda, yakuniy effekt, funktsiya, dizayner - funktsiyani bajaruvchi qurilma va ratsionalizator bilan qiziqadi - tugallangan qurilmadan ba'zi shaxsiy maqsadlar uchun yanada oqilona foydalanish.

Loyiha – bu talabalar tomonidan amalga oshiriladigan intellektual va amaliy xarakterdagi ijodiy yechim. O'qituvchi rahbarligida bajariladigan talabalarning mustaqil ishi. Agar biz ijodkorlikning ishchi ta'rifiga etibor qaratadigan bo'lsak, uni yangi muammolarni hal qilish yoki ilgari hal qilingan muammolarni hal qilishning yangi usullarini topish, ishlab chiqarishda yuzaga keladigan turli xil muammolarni, vaziyatli qiyinchiliklarni hal qilish bilan bog'lash maqsadga muvofiq ko'rinadi. va kundalik hayot. Yangi muammoning ijodiy yechimining tuzilishini ko'rib chiqishdan oldin, texnik ijodiyot turlari haqida umumiy ma'lumotga to'xtalib o'tamiz. Kasbiy ijod turlariga ixtiro, qurilish, ratsionalizatsiya, dizayn kiradi. Texnik ijodkorlikning barcha turlari o'rtasida yaqin munosabatlar mavjud. Texnologiyani jadal rivojlanishining birinchi davrida bunday bo'linish kuzatilmadi va ilmiy adabiyotlarda asosan ixtirochilik faoliyati haqida so'z yuritiladi. Hozirgi vaqtda kashfiyot, ixtiro va ratsionalizatorlik taklifining ilmiy va amaliy bo'linmasi mavjud bo'lib, ular nafaqat texnik ob'ektlarga nisbatan amalga oshiriladi. Shunday qilib, kashfiyot deganda, ilgari noma'lum bo'lgan, ob'ektiv mavjud bo'lgan mulk yoki hodisani aniqlash tushuniladi. Ishlab chiqarish, madaniyat va boshqalar uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan muammoning yangi yechimi deb nomlangan ixtiro. Ixtirolar konstruktiv (qurilmalar), texnologik (usullar) va yangi moddalarni yaratish bilan bog'liq bo'linadi

8.2. Texnik texnologik, iqtisodiy, ekologik va x.k jihatlardan nomukammal texnik yechimlar

Nomukammal texnik yechim deganda, amaliyotga tatbiq etilganda texnik, texnologik, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan jiddiy kamchiliklari borligi ma'lum bo'lgan loyiha, konstruksiya yoki texnologiyani tushunamiz. Bunday yechimlarning paydo bo'lish sabablari orasida dastlabki tadqiqotlarning yetarli emasligi, loyihalashdagi xatolar, tejamkorlik maqsadida sifatni chetga surish, iqtisodiy bosim va muddatlar, shuningdek, mutaxassislarning malakasizligi kabi

larkiradi. Texnik jihatdan nomukammallik, yechimning ishlash prinsipi, ishonchliligi va xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni o'z ichiga oladi, masalan, tez-tez ishdan chiqadigan, nosozliklarga uchraydigan, rejalashtirilgan funksiyalarni bajarolmaydigan, xavfsizlik talablariga javob bermaydigan qurilmalar bunday nomukammallikning aniq namunalari. Bunday holatlar operatsion xarajatlarning keskin oshishiga, ishlab chiqarishning to'xtab qolishiga va hatto xodimlar salomatligi uchun xavf tug'dirishiga olib keladi. Texnologik jihatdan esa, yechimni ishlab chiqarish va undan foydalanish jarayonining qiyinligi, ya'ni murakkab va qo'lda ishlov berishni talab qiladigan operatsiyalar, maxsus asbob-uskunalar yoki malakali ishchilarni talab qiladigan montaj, mavjud ishlab chiqarish tizimiga integratsiya qilishning qiyinligi kabi muammolar yuzaga keladi, bu esa ishlab chiqarish muddatlarining uzayishiga, mehnat unumdorligining pasayishiga va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarining oshishiga sabab bo'ladi.

Iqtisodiy jihatdan nomukammallik, loyihaning boshlang'ich kapital xarajatlarining haddan tashqari yuqori bo'lishi, energiya iste'moli va texnik xizmat ko'rsatish kabi operatsion xarajatlarning ko'pligi, qisqa xizmat qilish muddati va boshqa analog yechimlarga nisbatan kamroq unumdorlik kabi belgilar bilan namoyon bo'ladi, natijada investitsiyaning qaytarilish muddati uzoraydi, umumiy foyda kamayadi va mahsulot bozorda o'zining raqobatbardoshligini yo'qotadi.

Ekologik jihatdan nomukammallik, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xususiyatlarni, jumladan, havoni, suvni va tuproqni ifloshtiradigan moddalarning chiqarilishi, qayta ishlanmaydigan yoki zaharli materiallardan foydalanish, energiya samaradorligining pastligi va shovqin vibratsiya kabi ifloslantiruvchi omillarning mavjudligini o'z ichiga oladi, bu atrof-muhitni muhofaza qilish qonunlarini buzilishiga, kompaniyaga nisbatan jarimalar qo'llanilishiga va uning obro'siga putur yetkazishiga olib keladi.

Bundan tashqari, ergonomik jihatdan noqulay ushlagichlar va displeylar, ortiqcha shovqinli mexanizmlar kabi muammolar ishchilarning charchashiga va mehnat sharoitlarining yomonlashishiga sabab bo'ladi, estetik jihatdan esa, eskirgan va funksionallikka e'tibor berilmagan dizayn mahsulotning bozorda

raqobatbardoshligini pasaytiradi, huquqiy jihatdan esa, davlat standartlari va texnik reglamentlarga mos kelmaslik mahsulotni sotishga ruxsat berilmasligiga va katta miqdordagi jarimalarga olib keladi. Nomukammallikni bartaraf etish uchun chuqur oldindan loyihalash, prototip yaratish va sinovdan o'tkazish, ko'p tarmoqli ekspertizani jalb qilish, hayotiy tsikl bo'yicha xarajatlarni tahlil qilish va xalqaro standartlarni qo'llash kabi choralar muhim hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Nomukammal texnik yechimlar paydo bo'lishining asosiy sabablari qaysilar?
2. Ixtiro, ratsionalizatsiya va dizayn o'rtasidagi farqni quyidagi jihatlardan izohlang:
3. Nomukammal yechimning iqtisodiy jihatlari qanday namoyon bo'lishi mumkin
4. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni kelajakda nomukammal yechimlardan voz kechishga qanday tayyorlash mumkin?

9- MAVZU: Fan asoslarini ijodiy talqin qilish.

REJA:

1. Nazariy bilimlarni o'zlashtirishda yangi imkoniyatlarni tadqiq qilish.
2. Bilimlarni tanqidiy tahlil qilish.
3. Texnik masalalarni hal qilishda noan'anaviy usullardan foydalanish
4. Talabaalarning ijodkorlik faoliyati texnologiyasi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilishi.
5. Fan asoslarini ijodiy talqin qilishda noan'anaviy usullardan foydalanish.

9.1. Nazariy bilimlarni o'zlashtirishda yangi imkoniyatlarni tadqiq qilish.

Texnologik taraqqiyot nazariy bilimlarni o'zlashtirishda fundamental o'zgarishlarni keltirdi. Sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan o'quv platformalari endi har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashadi. Masalan, AI tutor tizimlari o'quvchining har bir qadamini kuzatib, uning tushunmagan joylarini aniqlaydi va materialni qayta-taqdim etadi yoki alternativ izohlarni beradi. Bu odatiy sinfxona ta'limida imkonsiz bo'lgan individual yondashuvni ta'minlaydi. Kengaytirilgan va virtual reallik texnologiyalari abstrakt tushunchalarni sezilarli

tajribaga aylantiradi. Kimyoviy reaksiyalarni virtual laboratoriyada xavfsiz o'tkazish, tarixiy voqealarni VR-da boshdan kechirish yoki murakkab biologik jarayonlarni 3D modeli bilan o'rganish bilimlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu texnologiyalar vizual, eshitish va hatto taktil sezgilarni faollashtirib, ko'p qirrali o'rganish imkonini yaratadi.

O'yinlashtirish elementlari motivatsiyani oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ballar tizimi, darajalar, yutuqlar va reytinglar sog'lomon raqobat ruhini keltirib chiqaradi. Mikroo'rganish prinsipi asosida tuzilgan qisqa darsliklar va interfaol topshiriqlar zamonaviy odamning e'tiborini saqlash qobiliyatiga mos keladi.

Bulutli texnologiyalar va MOOC platformalari dunyoning istalgan nuqtasidagi eng yaxshi ta'lim resurslarini hammaga ochdi. Endi har kim istalgan vaqtda, istalgan joyda nufuzli universitetlar dasturlariga kirish imkoniyatiga ega. Global hamkorlik vositalari esa o'quvchilarga turli mamlakatlardagi hamkasblari bilan loyihalarda ishlash imkoniyati beradi.

Ma'lumotlar tahlili (Learning Analytics) o'qitish sifatini doimiy yaxshilashga imkon beradi. Platformalar o'quvchilarning harakatlarini tahlil qilib, samarali metodikalarni aniqlaydi va zaif o'quvchilarni erta aniqlab, ularga qo'shimcha yordam ko'rsatadi. Sun'iy intellektning ta'limdagi roli doimiy rivojlanmoqda. NLP texnologiyalari inson tilini tushunadigan va savollarga javob bera oladigan aqlli yordamchilarni yaratdi. Kelajakda neyrointerfeyslar orqali o'quvchining diqqat darajasini o'lchash va darslik mazmunini real vaqtda moslashtirish kutilmoqda.

AR/VR texnologiyalari endi nafaqat oliy ta'limda, balki maktab ta'limida ham qo'llanilmoqda. Masalan, geometrik shakllarni virtual fazoda aylantirish yoki geografik obyektlarni 3D ko'rinishda o'rganish murakkab mavzularni tushunishni osonlashtiradi.

O'yinlashtirishning psixologik asoslari chuqur o'rganilgan. Dopamin chiqarilishiga ta'sir ko'rsatadigan mukofot tizimi insonning tabiiy motivatsiyasidan foydalanadi. Bu nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham samarali hisoblanadi.

Ta'limning kelajagi "aralash ta'lim" (blended learning) modeliga intiladi, ya'ni an'anaviy o'qitish usullari yangi texnologiyalar bilan uyg'unlashtiriladi. Biroq,

raqamli tengsizlik, ma'lumotlar xavfsizligi va insoniy aloqalarning ahamiyati kabi muammolar hal qilinishiga to'g'ri keladi.

“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo’yicha)” o‘quv fanini o‘rganish jarayonida quyidagi pedagogik tushunchalarni bilish va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarur: – ta’lim-tarbiya ishlarini mustaqillik g‘oyalaridan foydalanilgan holda pedagogik qonuniyatlar va tamoyillarga uyg‘un holda o‘tkazish; – pedagogik faoliyatni rejalashtirishda, yaqin, o‘rta davrni va istiqbolni ko‘zlab maqsad, vazifalarni belgilash; – amaliyotda o‘qitish hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy shakllarini qo‘llash; – amaliyotda o‘qitish va ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning qulay metod va vositalarini qo‘llash, ma’lum vaziyatlarda ulardan to‘g‘ri foydalana olish; – ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari shuningdek, Sharq va G‘arbning ilg‘or pedagogik tajribalaridan foydalangan holda tashkil etish; – o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni to‘g‘ri bajarilishini tashkil etish; – shaxs faoliyati va xulqini rag‘batlantirib borish; – pedagogik vaziyatlar, ta’lim va tarbiya natijalarini tahlil eta olish, jamoani o‘rganish; o‘zlashtirmaslik sabablarini, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun samarali tadbirlarni belgilash; – o‘z bilimini oshirib borish, amaliyotda pedagogika fanidagi yutuqlar, ilg‘or tajribalardan foydalanish, qulay pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish, pedagogik faoliyatda yuzakichilik va bir qolipda ishlashga yo‘l qo‘ymay, ishga ijobiy, tolerantlik va improvizatsiya munosabatni namoyon etish; – guruh rahbari va tarbiyachi-murabbiy vazifalarining samaradorligiga erishish, tashqi ta’lim, otaonalar, mahalla, jamoatchilik bilan o‘z-o‘zini boshqarishni tashkil etish.

Talabgor “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo’yicha)” fanini o‘rganish davomida zamonaviy ta’lim texnologiyasi kompyuter, axborot texnologiyasi, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik mazmundagi amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajara olishini namoyon eta olishlari zarur. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risida Qonun asosida metodika fani va uning jamiyatda tutgan o‘rni haqida – Davlat va jamiyat-davlat va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiradi hamda fuqarolarning o‘rta

umumiy ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim turlarini olish huquqini kafolatlaydi; – uzluksiz ta'lim va uning faoliyat ko'rsatish prinsiplari ta'limning ustuvorligi, ta'limning demokratlashuvi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'naltirilganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, har tomonlama komil insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash; – uzluksiz ta'lim tizimi va turlari; maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim; – fan-tabiat va jamiyat taraqqiyoti haqidagi yangi fundamental va tadqiqiy bilimlarni shakllantirish, yuqori malakali ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash sohasi sifatida; – ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi. Pedagoglik kasbi. Pedagoglik kasbining paydo bo'lishi va ravnaq topishi. Sharq mutafakkirlari (Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Alisher Navoiy va boshqalar) va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rni haqida. O'qituvchi-murabbiyning o'ziga xos fazilatlari ilmiy dunyoqarashi va insonparvarligi. Uning ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazari, barkamol avlod tarbiyasi uchun o'qituvchimurabbiyning jamiyat oldidagi mas'uliyati, uning kasbiy 7 bilimlari va ko'nikmalari. Pedagog iste'dodi va qobiliyati. O'qituvchimurabbiyning pedagoglik axloq-odobi va nazokati, uning o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblari bilan muloqoti.

9.2. Bilimlarni tanqidiy tahlil qilish.

Bilimlarni tanqidiy tahlil qilish, soddagina ma'noda, faqat ma'lumotni qabul qilish emas, balki uni chuqur va har tomonlama tekshirish jarayonidir. Bu ko'nikma sizga har qanday ma'lumot, da'vo yoki g'oyani uning sirtidagi jozibadorlikdan qat'iy nazar, uning asosliligi, ishonchliligi va mantiqiyligini baholash imkonini beradi. Tanqidiy tahlilning asosiy mohiyati har doim "Nega?" savolini berishdan iborat. Ma'lumotning manbasini, muallifning niyatini, dalillarning kuchliligi va muqobil

nuqtai nazarlarniko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Bu jarayon bir qator muhim bosqichlardan iborat bo'lib, ularning barchasi sizni asoslangan xulosaga olib boradi. Birinchi navbatda, siz o'zingizga berilgan ma'lumotni aniq tushunishingiz kerak, asosiy tushunchalar, da'volar va keltirilgan dalillarni aniqlashingiz lozim. Keyingi va eng muhim qadam manbani tanqidiy baholashdir, bu yerda siz ma'lumotning kelib chiqish joyini, muallifning kimligini, uning malakasi, tarafkashligi va maqsadini, shuningdek, ma'lumotning yangiligi va kontekstini tekshirasiz.

Dalillarni tahlil qilish bosqichida siz keltirilgan dalillarning ma'lumotga muvofiqligini, yetarliligini va ishonchliligini, shuningdek, ularning boshqa talqin qilish imkoniyatlari bor-yo'qligini o'rganasiz. Mantiqiy xatolarni, ya'ni safsatalarni aniqlash juda muhimdir, chunki ular ko'pincha noto'g'ri xulosalarga olib keladi, masalan, shaxsga hujum qilish, so'z o'yinlari yoki sabab va oqibatni noto'g'ri bog'lash kabi xatolar. To'liq bo'lishi uchun siz har doim muammoning boshqa tomondan ko'rinishini, muqobil g'oyalar va qarama-qarshi dalillarni ham hisobga olishingiz kerak. Faqat shundan keyingina siz barcha jihatlarni hisobga olgan holda asoslangan xulosa chiqarishingiz yoki qaror qabul qilishingiz mumkin.

Tanqidiy tahlil qilishda siz o'zingizga doim bir qator savollar berishingiz kerak: kim bu ma'lumotni taqdim qilayotgan va unga nima uchun ishonishim kerak; u nimani da'vo qilmoqda va qanday dalillar asosida; bu ma'lumot qachon va qayerda paydo bo'lgan; muallifning asosiy maqsadi nima; va ma'lumot qanday usul bilan taqdim etilmoqda, hissiyotlargami yoki faktlargami asoslangan. Bu usul sizni noto'g'ri ma'lumotlardan, reklama va siyosiy propaganda usullaridan, mantiqiy xatolardan himoya qiladi. Bu nafaqat ilmiy izlanishlar va ta'limda, balki kundalik hayotda ham, yangiliklarni o'qish, mahsulot sotib olish yoki muhim qarorlar qabul qilishda juda foydli ko'nikmadir.

Tanqidiy fikrlash tushunchasini chuqurroq tahlil qilish zarur. Tanqidiy fikrlash – bu faqatgina mavjud ma'lumotlarni qabul qilish emas, balki ularni tahlil qilish, asoslash va muqobil nuqtai nazarlarni ko'rib chiqish orqali mustaqil xulosa chiqarish jarayonidir. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlash ko'nikmasi insonni stereotip va yuzaki qarashlardan xoli bo'lishga, voqealarni ko'p qirrali yondashuvda ko'rishga o'rgatadi.

Bu ko'nikma ayniqsa murakkab va ziddiyatli masalalarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash zamonaviy dunyoda yoshlarning faqat bilim o'zlashtirishiga emas, balki bilimdan to'g'ri foydalanishlariga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgan bugungi kunda noto'g'ri va manipulyativ ma'lumotlarga duch kelish ehtimoli oshganidan, tanqidiy fikrlash



yoshlarni bunday xatarlardan himoya qilishda muhim vositadir.

Bilimlarni tanqidiy tahlil qilish deganda, har qanday ma'lumotni yoki g'oyani ko'r-ko'rona qabul qilish o'rniga, uni chuqur o'rganish, tekshirish va baholash jarayoni tushuniladi. Bu sizga keltirilgan ma'lumotning mazmunini anglab yetishdan boshlanadi. Asosiy maqsad shundan iboratki, ma'lumotning o'zi emas, balki uning qayerdan kelgani (manbasi), qanchalik ishonchli va xolis ekanligi, qanday dalillarga asoslanganligi va boshqa

ma'lumotlar bilan solishtirganda qanday o'rin tutishini tushunishdir. Bu jarayon sizni yolg'on yoki ishonchsiz axborotdan himoya qiladi, chunki siz manbani tekshirish, turli g'oyalarni taqqoslash va ular orasidagi ziddiyatlarni ko'ra o'rganasiz. Oxir-oqibat, siz barcha o'rganilgan dalillar asosida o'zingizning asoslangan xulosangizni chiqarasiz va mustaqil fikrlash qobiliyatingizni rivojlantirasiz. Muhimi, o'zingizning shaxsiy qarashlaringiz tahlilingizga ta'sir qilishini his etish va imkon qadar obyektiv bo'lishga harakat qilishsan. Tanqidiy tahlil nafaqat bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish, balki murakkab dunyoda to'g'ri qarorlar qabul qilishning asosiy vositasi hisoblanadi.

9.3. Texnik masalalarni hal qilishda noan'anaviy usullardan foydalanish.

Zamonaviy texnik masalalarni hal qilishda an'anaviy yondashuvlar har doim ham kutilgan natijani bermasligi mumkin, chunki hozirgi davr muammolari murakkab, ko'p qirrali va tez o'zgaruvchan bo'lib bormoqda, shuning uchun noan'anaviy, ya'ni

ijodiy va innovatsion yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, bunday yondashuv muammoni yangicha nigoh bilan ko‘rish, mavjud andozalardan chekinish va kutilmagan, samarali yechimlar topishni nazarda tutadi, masalan, texnik muammoni hal qilishda TRIZ – ya’ni Ixtirolar nazariyasi usulidan foydalanish mumkin, bu metod yordamida texnik qarama-qarshiliklar aniqlanadi va ular uchun tizimli asosda ixtirochilik printsiplari qo‘llaniladi, shuningdek, tabiatdan ilhom olish – biomimetika yondashuvi ham keng qo‘llaniladi, bu usulda tabiatdagi tayyor yechimlar asosida texnik muammolar hal qilinadi, masalan, samolyot qanotlari qush qanotlariga, suv o‘tkazmaydigan matolar lotus barglariga o‘xshatib yaratiladi, yana bir samarali noan’anaviy metod bu Design Thinking – ya’ni loyihaviy fikrlash bo‘lib, bunda foydalanuvchi ehtiyojlari asosida g‘oyalar ishlab chiqiladi, prototiplar yaratiladi va sinov orqali eng optimal yechim tanlanadi, shuningdek, teskari muammo yondashuvi – reverse engineering orqali mavjud mahsulot yoki tizim tahlil qilinib, yangi yoki yaxshilangan yechimlar ishlab chiqiladi, yana lateral thinking – ya’ni yonlama fikrlash ham muhim bo‘lib, bunda odatiy emas, g‘ayrioddiy savollar orqali muammoga kutilmagan yondashuv topiladi, bularning barchasi shuni ko‘rsatadiki, texnik muammolarni hal qilishda faqat nazariy bilim emas, balki ijodkorlik, tahliliy fikrlash, va keng dunyoqarash muhim o‘rin tutadi, noan’anaviy usullar ayniqsa ekologik, energiya tejamkorlik, samaradorlik va iqtisodiylik talab etiladigan sohalarda katta afzallik beradi, bunday yondashuvlar orqali resurslar tejiladi, yangi innovatsion mahsulotlar yaratiladi va foydalanuvchilar uchun qulay sharoitlar yuzaga keladi, Noan’anaviy bo‘lmagan dars – noan’anaviy (noma’lum) tuzilishga ega bo‘lgan improvizatsiya qilingan o‘quv mashg‘ulotlaridir. Pedagogik adabiyotlarning tahlili bir necha o‘nlab turdagi nostandart darslarni ajratish imkonini berdi, ammo ular bitta maqsadga birlashtirilgan – asosiy o‘quvning bajarilishi ob’ektiga ega bo‘lgan yangi usullar, shakllar, texnologiyalar va vositalar asosida tashkil qilishdan iborat. Darslarni o‘qitish jarayoni o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqa bilan yaratiladi, an’anaviy dars – ko‘p hollarda ta’lim jarayonining birdan-bir modeli bo‘lib qo‘llanmoqda. An’anaviy dars – passiv dars berish usuli bo‘lib, darsning samaraliligi uni rejalashtirilishiga bog‘liq bo‘ladi. Ma’lumki an’anaviy darsda ta’lim jarayonining

markazida o'qituvchi turadi. An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar.

Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo'lgan talablar doirasida o'zining aniq ifodasini topadi.

Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quvtarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;
- o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o'quvchilar anglab yetadigan fanlarga bog'liqlarni o'rnatish;
- ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;
- shaxsning har tomonlama rivojlanishini motivatsiyalash va faollashtirish;
- o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyliги va emosionalligi;

9.4. Talabalarining ijodkorlik faoliyati texnologiyasi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilishi.

Talabalarining ijodkorlik faoliyati texnologiyasi fanini samarali o'zlashtirishlari uchun o'qitishda ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish juda muhimdir, bular orasida faol o'qitish metodlari, masalan, loyihalar asosida o'qitish, muammoli o'qitish, guruhlarda hamkorlikda ishlash va muhokamalar orqali talabalarni mustaqil fikrlashga, yangi g'oyalar yaratishga va muammolarni ijodiy yechimlar yordamida hal qilishga o'rgatish kiradi, shuningdek, individual yondashuvni qo'llash orqali har bir talabani qiziqtirgan va ularning qobiliyatiga moslashtirilgan ta'limni tashkil etish muhimdir, bu esa ularning ijodiy salohiyatini yanada rivojlantiradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash talabalar uchun

o'rganishni qiziqarli va samarali qiladi, jumladan, multimedia vositalari yordamida matn, audio va video materiallar bilan boyitilgan darslar, onlayn platformalar va masofaviy ta'lim tizimlari orqali interaktiv o'quv jarayonini tashkil etish, virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) texnologiyalari yordamida murakkab tushunchalarni yanada oson tushunishga imkon berish, mobil ilovalar orqali talabalarni har qanday vaqtda o'qishga jalb qilish, shuningdek, gamifikatsiya elementlarini qo'llash orqali o'quv motivatsiyasini oshirish mumkin. Bu texnologiyalar nafaqat talabalarning bilim olish darajasini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, kreativlik va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, talabalarning o'z bilimlarini real hayotdagi muammolarga qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Zamonaviy pedagogik usullar va yangi texnologiyalar yordamida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarni faollashtiradi, ularning o'quv jarayoniga faol ishtirokini ta'minlaydi, shaxs sifatida rivojlanishini rag'batlantiradi va zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan, ijodiy fikrlovchi, mustaqil shaxslarni tayyorlashga xizmat qiladi. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfoal metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O'z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innnovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbqiq etishning izchil metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi. Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars

o'tish, so'nggi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalanish holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxassislik bo'yicha, masalan kimyo sohasidagi so'nggi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o'tish talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi

O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfoal metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfoal metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O'z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innnovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi.

9.5.Fan asoslarini ijodiy talqin qilishda noan'anaviy usullardan foydalanish.

Fan asoslarini ijodiy talqin qilishda noan'anaviy usullardan foydalanish ta'lim jarayonida o'quvchilarning mavzuni faqat yodlash yoki oddiy tushunish emas, balki uni o'z nuqtai nazaridan talqin qilish, yangicha va o'ziga xos usullarda tushunishga qaratilgan jarayon hisoblanadi, noan'anaviy usullar an'anaviy ta'lim usullaridan farqli ravishda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tanqidiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday usullarga interfaol o'qitish metodlari kiradi, bunda o'quvchilar guruhda muammolarni yechish, muhokamalar va rolli o'yinlarda faol ishtirok etib, mavzuga qiziqishini oshiradi va ijodiy fikrlashga rag'batlantiriladi. Shuningdek, loyiha asosidagi ta'lim usuli ham mavjud bo'lib, bunda o'quvchilar mustaqil yoki guruhda loyiha yaratish orqali bilimlarni amaliy qo'llashadi, bu esa ularning ijodiy yondashuv, yangi usullar izlash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Multimediyaviy vositalardan foydalanish ham muhim bo'lib, kompyuter, interfaol doska, videolar va animatsiyalar yordamida mavzu vizual va ko'ngilochar shaklda o'rganiladi, bu esa

o'quvchilarning diqqatini jalb qilib, o'z fikrini yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, tajriba va eksperimentlar o'quvchilarda fan asoslarini amalda ko'rsatib, qiziqishni uyg'otadi va mavzuni ijodiy yondashuvda o'rganishga xizmat qiladi, shuningdek, murakkab tushunchalarni tushunarli qilish uchun metafora va analogiyalardan foydalanish ham samarali usul hisoblanadi. Noan'anaviy usullar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, dars jarayonini qiziqarli va interfaol qiladi, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi, tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi, bu esa fanlarga bo'lgan qiziqishni oshiradi. O'qituvchi esa bu jarayonda o'quvchilarga yangi usullarni tanishtiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi sifatida faoliyat yuritishi, ularni ijodiy fikrlashga rag'batlantiruvchi muhit yaratishi, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi va mustaqil izlanishlarga yo'l ochishi muhimdir. Shu sababli, fan asoslarini ijodiy talqin qilishda noan'anaviy usullarni qo'llash zamonaviy ta'limning muhim jihati bo'lib, o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish, shuningdek, ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos tayyorlashga xizmat qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Sun'iy intellekt asosidagi o'quv platformalarning ta'limdagi asosiy afzalliklari nimalardan iborat?
2. Bilimlarni tanqidiy tahlil qilishda qanday asosiy bosqichlar mavjud?
3. Tanqidiy fikrlashning kundalik hayotdagi ahamiyatini misollar bilan tushuntiring.
4. Dars jarayonida metafora va analogiyalar qanday ahamiyatga ega?
5. Multimediyaviy vositalar orqali dars o'tkazishning ijobiy tomonlarini sanab bering.
6. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi nima?
7. Tajriba va eksperimentlarning o'quvchilardagi bilimga ta'siri qanday?
8. O'qituvchi fan asoslarini ijodiy talqin etishda qanday rol o'ynashi lozim?

10-MAVZU Ijodkorlik faoliyatini amalga oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.

REJA:

1. Ijodkorlik faoliyatini amalga oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish shakillari.
2. Yangi texnik yechimlarni rasmiylashtirishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.
3. Patent tadqiqotlarni amalga oshirishda bilimlar banki va ma'lumotlar bankidan foydalanish.

10.1. Ijodkorlik faoliyatini amalga oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish shakillari.

Zamonaviy dunyoda ijodkorlik faoliyati turli sohalarda keng rivojlanib bormoqda. San'at, adabiyot, musiqa, kino, dizayn, fan va texnologiya kabi ko'plab yo'nalishlarda ijodiy yondashuvlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Shu jarayonda axborot texnologiyalari — ya'ni kompyuterlar, internet, dasturiy ta'minotlar va sun'iy intellekt tizimlari ijodiy ishlarni amalga oshirishda muhim vositaga aylanmoqda. Ijodiy faoliyat va axborot texnologiyalarining uyg'unlashuvi yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirib, ijodkorlarga tez, samarali va interaktiv ishlash uchun qulay sharoitlar yaratmoqda.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish ijodiy faoliyatda bir necha yo'nalishlarda ko'zga tashlanadi. Eng avvalo, bu texnologiyalar ijodiy g'oyalarni yaratish va ularni shakllantirish bosqichida katta yordam beradi. Masalan, matn bilan ishlovchi ijodkorlar uchun Microsoft Word, Google Docs kabi dasturlar matn yozish va tahrir qilishda asosiy vositaga aylangan. Rassomlar uchun esa Adobe Photoshop, CorelDRAW, Procreate kabi grafik muharrirlar raqamli tasvirlar yaratishda keng qo'llaniladi. Musiqa bilan shug'ullanuvchi ijodkorlar FL Studio, Ableton Live yoki AIVA kabi sun'iy intellekt asosida ishlovchi platformalar yordamida musiqa bastalash, aranjirovka qilish va yozib olish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

Shuningdek, axborot texnologiyalari ijod mahsulotlarini tahrir qilish va mukammallashtirishda ham juda muhim o'rin tutadi. Rasm, video yoki audio materiallar turli dasturlar yordamida professional darajada tahrir qilinib, yakuniy ko'rinishga keltiriladi. Masalan, Adobe Premiere Pro, DaVinci Resolve kabi dasturlar

videomontaj jarayonida qo'llaniladi. Canva yoki Figma kabi vizual dizayn vositalari esa dizaynerlar, bloggerlar va marketing mutaxassislari uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda.

